Бугунги кунда Ўзбекистон иқтисодиётининг самарали ривожланиши бевосита тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларнинг барқарорлигига боғлиқ бўлиб, бундай барқарорликни таъминлаш ўз навбатида фуқаролик қонун ҳужжатларини такомиллаштириб боришни тақозо этади. Хусусан, кейинги даврларда бутун дунёда содир бўлиб турган турли табиий офатлар, ижтимоий-сиёсий, ҳарбий-иқтисодий вазиятлар ва пандемия оқибатлари натижасида тадбиркорлик фаолияти субъектлари томонидан шартнома мажбуриятларини бажармаслик ёки лозим даражада бажара олмаслик ҳолатлари тез-тез учраб турибди. Бундай вазиятларда мажбуриятни бажаришга тўсқинлик қилган форс-мажор ҳолатларини тўғри малакалаш ва асосли қўллаш масалалари тадбиркорлик фаолияти субъектларининг жавобгарлигини белгилашда муҳим аҳамият касб этади. Зеро, форс-мажор ҳолати қарздорни шартнома мажбуриятини бузганлик учун жавобгарликдан озод этишнинг муҳим асосларидан бири. Айтиш мумкинки, хорижий мамлакатларнинг форс-мажорга оид фуқаролик қонунчилигини илмий-назарий тадқиқ этиш ва ундан миллий қонунчиликни такомиллаштиришга оид таклифларни ишлаб чиқишда фойдаланиш зарурати мавжуд. Шундан келиб чиқиб, мусулмон ҳуқуқий тизими мамлакатларининг форс-мажорга оид фуқаролик қонунчилигини илмий-назарий тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ.

Мусулмон ҳуқуқий тизими ҳозирги замондаги энг асосий ҳуқуқий тизимлардан бири бўлиб, унинг асосий хусусияти исломнинг диний қарашлари, ахлоқий ва маиший ақидалари билан яқиндан боғлиқликда ифодаланади. Мусулмон ҳуқуқининг амалий фаолияти шахсий (шахс мақомининг кўпгина масалалари бўйича) ва ҳудудий



қўлланиш ақидаларининг уйғунлаштирилиши билан ажралиб туради⁶. Шу ўринда, мусулмон ҳуқуқий тизим мамлакатларининг фуқаролик қонунчилигида форс-мажор ҳолати (инглизча “force-major”, французча “force-majeure”) тушунчаси енгиб бўлмайдиган куч таъсири натижасида зарар етказилишига олиб келадиган ҳолат сифатида қабул қилинганлиги ва шартнома мажбуриятини бажармаганлик ёки лозим даражада бажарганлик учун жавобгарликдан озод этишнинг асоси сифатида талқин қилинишини таъкидлаш ўринли.

Мусулмон ҳуқуқий тизими мамлакатларининг фуқаролик қонунчилигида мусулмон ҳуқуқи ва шариат қоидаларига зид бўлмаган Низомлар марказий ўринни эгаллаган ҳолда, улар хусусий мулк ҳуқуқини қатъий ҳимоя қилади ва тузилган битимнинг муқаддаслигини белгилайди. Масалан, **Саудия Арабистони** Асосий Низоми⁷ (Конституцияси)нинг 1-моддасида таъкидланишича, Аллоҳнинг каломи – Қуръони карим ва Пайғамбаримиз Муҳаммад Мустафо (С.А.В) суннатлари мамлакат ҳуқуқий тизимининг асосий манбаи. Яъни, Саудия Арабистонида давлат, жамият ва шахс ҳаётининг барча соҳалари Қуръони карим асосида қабул қилинган Асосий Низом билан тартибга солинади ва шариат қоидалари ўрнатилади. Шу ўринда Саудия Арабистони⁸ дунё мамлакатлари ичида ҳуқуқ соҳалари кодификация қилинмаган ва ислом таълимоти асосида анъанавий шаклда фикҳ меъёрлари ҳамда шариат қоидалари қўлланилиб келинаётган ягона мамлакат эканлигини алоҳида таъкидлаш жоиз. Ушбу мамлакатнинг фуқаролик қонунчилигига кўра, шартнома тарафлар ўртасида фуқаролик ҳуқуқ ва бурчлари вужудга келишининг энг муҳим асоси сифатида қабул қилинади ва уни тузишда тарафларнинг эрки-иродаси тўла ифодаланганлигидан келиб чиққан ҳолда, шартнома мажбурияти виждонан бажарилиши талаб этилади. Бу шуни англатадики, фуқаролик муомаласи иштирокчилари ўз эрки ва хоҳиш-иродасини тўла ифодалагани ҳолда, шартномани тузиш вақтида келажакда юз бериши мумкин бўлган ҳар қандай тасодиф ҳодиса ёки вазиятни форс-мажор ҳолати сифатида қабул қилиш тўғрисида шартларни ҳам келишиб олишлари ёки истисно тариқасида, шартнома билан бошқача тартибни ҳам

⁶ Жаҳон мамлакатларининг ҳуқуқий тизимлари. Қомусий луғат. Тошкент, 2006. –451б.

⁷ Конституция Саудовской Аравии. <https://worldconstitutions.ru/?p=86>.

⁸ Л.Р.Сюкияйнен. Основы теории исламского права. Учебное пособие. –СПб., 2019. –С.92.



белгилаб олишлари мумкин. Агар шартномада, форс-мажор ҳолатларига оид шартлар назарда тутилган бўлмаса ва мажбурият форс-мажор ҳолати туфайли бажарилмаса ёки лозим даражада бажарилмаса, тарафлар ўртасидаги муносабатлар фикҳ меъёрлари ва шариат қоидалари асосида тартибга солинади. Хусусан, бунда шартнома мажбуриятини бажармаган ёки лозим даражада бажармаган тарафдан мажбуриятни бажаришга форс-мажор ҳолати (енгиб бўлмайдиган куч) туфайли имкон бўлмаганлиги тўғрисида етарли далиллар тақдим этиши талаб этилади.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, мусулмон ҳуқуқий тизимининг Саудия Арабистонидан бошқа мамлакатларида фикҳ меъёрлари ва шариат қоидалари асосида қабул қилиниб, қитъа ҳуқуқий тизими анъаналарига хос равишда кодификация қилинган кодекслар амалга киритилган бўлиб, ушбу кодекслар хусусий мулк ҳуқуқини мустаҳкам ҳимоя қилиш ва тузилган шартномалар муқаддаслиги тамойилини ўрнатишга қаратилган. Мусулмон ҳуқуқий тизимининг **Миср Араб Республикаси, Бирлашган Араб Амирликлари, Эрон Исломи Республикаси, Иордания, Ироқ** каби кўплаб мамлакатларида фуқаролик кодекслари амалга киритилган. Лекин, кодексларнинг барчасида ҳам форс-мажорга оид ҳуқуқий нормалар акс этмаган бўлса-да, шартнома мажбуриятини бажаришга тўсқинлик қиладиган ҳолат юзага келганда, бундай ҳолат суд томонидан форс-мажор ҳолати деб топилиши ва қарздор жавобгарликдан озод этилиши мумкин. Масалан, **Бирлашган Араб Амирликлари**да фикҳ меъёрлари ва тамойиллари асосида қабул қилинган Фуқаролик ҳуқуқий муносабатлари кодексид⁹ бевосита форс-мажорга оид ҳуқуқий норма бўлмаса-да, унинг 48-моддасида “одат бўйича ёки ҳаммага маълум бўлган имконсиз (абсурд) деб ҳисобланган нарса, аслида имконсиз (абсурд) нарса сифатида кўриб чиқиши керак”, деб кўрсатилган бўлса, унинг 62-моддасида “агар иш (тегишли қонуний воситалар) далиллар билан аниқланган бўлса, оқибатлари судьянинг гувоҳ бўлишига тенг” эканлиги ва 65-моддасида эса, “шунчаки ташқи томондан равшан бўлган масала ҳимоя сифатида (статус-қвони сақлаб қолиш учун) етарли, лекин ҳуқуқни ўрнатиш (ижобий тасдиқлаш) учун эмас”, деб таъкидланган.

⁹ <https://www.iaq.org/ru/Codeks-grazhdanskix-vzaimootnosheniy-OA3.pdf>



Бу шуни англатадики, шартномани бажаришнинг мукаддаслиги, уни тузишда тарафларнинг хошиш-иродаси тўлиқ ифодаланганлиги ва мажбуриятнинг виждонан бажарилиши билан бир пайтда, уни бажаришнинг имконсизлиги ҳам белгиланган тартибда кўриб чиқилиши мумкин. Яъни, мажбурият содир бўлган тасодиф ҳодиса ёки форс-мажор ҳолати туфайли бажарилмаганда, тарафлар ўртасидаги муносабатлар Бирлашган Араб Амирликларининг Фуқаролик ҳуқуқий муносабатлари кодекси нормалари асосида тартибга солинади ва тарафлар ўртасида низо юзага келган ҳолларда, шариат судлари томонидан кўриб чиқиб ҳал этилади.

Миср Араб Республикасининг фуқаролик қонунчилиги бутун мусулмон ҳуқуқий тизими сингари аралаш хусусиятга эга бўлиб, шахснинг ҳуқуқий мақоми масалалари (никоҳ-оила ва ворислик муносабатлари) ислом ҳуқуқи, қолган институтлар китъа (роман-герман) ҳуқуқи билан (асосан француз моделига эргашган ҳолда) тартибга солинади. Зеро, 1875 йилда қабул қилинган Миср Араб Республикасининг Фуқаролик кодекси француз ҳуқуқи назарияси ва амалиётининг кучли таъсирида тайёрланган бўлиб, бу 1948 йилда қабул қилинган янги Фуқаролик кодексига ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Яъни, мусулмон ҳуқуқи (фикх) ва китъа ҳуқуқи анъаналари асосида қабул қилинган Миср Араб Республикасининг амалдаги Фуқаролик кодекси¹⁰ фуқаролик ҳуқуқининг асосий манбаи ҳисобланиб, ундан ҳуқуқни қўллаш ва суд амалиётида фойдаланиш имкониятлари кенглиги туфайли фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солишда муҳим ўрин эгаллайди. Жумладан, Фуқаролик кодексининг 1-моддасида “Қонунчилик қоидалари барча масалаларга тегишли бўлиши лозим. Қонунда қўлланилиши мумкин бўлган қоида бўлмаганда, судья одат бўйича ўз фикрини билдириши шарт. Одат йўқ бўлса, бу ҳукм мусулмон ҳуқуқи тамойилларига мувофиқ эълон қилинади. Агар ҳеч қандай тамойиллар мавжуд бўлмаса, унинг ҳукми табиий ҳуқуқ ва адолат тамойилларига мувофиқ амалга оширилиши керак”, деб белгилаб қўйилган. Бундан кўришиб турибдики, Миср Араб Республикасининг амалдаги Фуқаролик кодексига кўра, фуқаролик ҳуқуқий нормалар билан бир пайтда, одат ҳуқуқи ва мусулмон ҳуқуқи (шариат) нормалари ҳам адолат тамойилларига асосланган ҳолда, судьялар

¹⁰ Гражданский кодекс Египта. <https://constitutions.ru/?p=23917>.



томонидан мустақил равишда қўлланиши мумкин. Бу эса, юзага келган ҳар қандай фуқаролик муносабатларини ҳуқуқий тартибга солишга имконият яратади. Шу билан бирга, ушбу кодекснинг 165-моддасида форс-мажор ҳолатларини фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солишга оид ҳуқуқий норма ҳам белгилаб қўйилган бўлиб, унга кўра “агар шахс, қонун ҳужжатлари ёки келишувда бошқача бўлмаса, форс-мажор ҳолатлари ёки жабрланувчининг айби ёки бегона шахслар (учинчи шахслар ҳаракатлари) айби билан кутилмаганда содир бўлган авария сабаб бўлганлини исботласа, зарарни қоплашга мажбур эмас”.

Айтиб ўтилганларга асосланиб, мусулмон ҳуқуқий тизими мамлакатларининг форс-мажорга оид фуқаролик қонунчилиги бўйича қуйидаги хулосаларга келиш мумкин:

Биринчидан, форс-мажор ҳолати енгиб бўлмайдиган куч таъсири натижасида мажбуриятни бажаришга тўсқинлик қилган ҳолат сифатида қабул қилинганлиги ва қарздорни жавобгарликдан озод этишнинг асоси сифатида қўлланиши;

Иккинчидан, ягона Саудия Арабистонида, форс-мажор ҳолатларини малакалаш ва қўллашда ислом таълимоти асосида анъанавий шаклда мусулмон ҳуқуқи (фикҳ) меъёрлари ва шариат қоидаларидан келиб чиққан ҳолда ёндашиш;

Учинчидан, аксарият кўпчилик мамлакатларда форс-мажор ҳолатларини малакалаш ва қўллашда мусулмон ҳуқуқи (фикҳ) меъёрлари билан бир бирга, улар асосида қабул қилиниб, қитъа ҳуқуқий тизими анъаналарига хос равишда кодификация қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар (кодекслар)дан келиб чиққан ҳолда ёндашиш;

Тўртинчидан, форс-мажор ҳолатларини малакалашда фуқаролик ҳуқуқи, одат ҳуқуқи ва мусулмон ҳуқуқи (шариат) нормаларини адолат тамойилларига асосланган ҳолда, судьялар томонидан мустақил қўлланиши;

Бешинчидан, шартномани тузишда тарафларнинг эрки-иродаси тўла ифодаланганлигидан келиб чиққан ҳолда, мажбуриятнинг виждонан бажарилишини талаб этилиши кабилар.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жаҳон мамлакатларининг ҳуқуқий тизимлари. Қомусий луғат, нашр масъул муҳаррири Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази. Тошкент, 2006. -451б.
2. Конституция Саудовской Аравии. <https://worldconstitutions.ru/?p=86>.
3. Сюкияйнен Л.Р. Основы теории исламского права. Учебное пособие. -СПб., 2019. -С.92.
4. Кодекс гражданских взаимоотношений Объединенных Арабских Эмиратов. <https://worldconstitutions.ru/?p=23917>.
Кодекс гражданских взаимоотношений ОАЭ. Pdf
5. Гражданский кодекс Египта. <https://worldconstitutions.ru/?p=23917>.



СОЦИОЛОГИЯ И ОБЩЕСТВЕННОЕ ЗДОРОВЬЕ

Тальятхонов Азизхон Дилмуродхон угли

Ташкентский государственный медицинский институт

Аннотация: В статье анализируется роль социологии в научном управлении обществом, а именно — социальном конструировании, направленном на предупреждение негативного развития событий и создание желательных для индивида и общества социальных реалий а также здоровье населения. Общественное здоровье (здоровье населения) рассматривается как интегрированное выражение динамики индивидуальных уровней здоровья всех членов общества.

Ключевые слова: социальное конструирование, общественное здоровье, система здравоохранения, образ жизни, сберегающие здоровье технологии, эндогенные и экзогенные факторы общественного здоровья.

С точки зрения современного науковедения социология выполняет в обществе два вида функций: гносеологические и собственно социальные. К гносеологическим функциям социологии относят познавательно-объяснительную и систематизирующую, а к социальным — информационную, критическую, прогностическую и социально-конструктивную.

Важной особенностью современной социологии стало смещение акцента с познавательно-объяснительной функции на социально- конструктивную функцию.

Одной из областей социальной реальности, а также важнейшей сферой жизнедеятельности общества, подлежащей социальному конструированию, является общественное здоровье.

С позиций критической школы в современной социологии, основанной Пьером Бурдьё (Pierre Bourdieu, 1930–2002), многие понятия, особенно те, которыми оперирует и обыденное сознание, изначально являются социально заданными, и поэтому не могут претендовать на абсолютную научную точность. Именно к такого рода понятиям и относятся понятия “здоровье индивидуума” (“индивидуальное здоровье”) и “здоровье населения” (“социальное здоровье”).

Действительно, понятие “здоровье индивидуума”, объединяющее медицинский и социальный аспекты, является относительным. В медицинском аспекте оно связано с большой широтой колебаний важнейших показателей жизнедеятельности человека



и его органов, с состоянием приспособительных возможностей его организма. Часто “здоровье” противопоставляют “болезни”, определяя эти понятия через категорию “состояния”. Состояние (уровень) здоровья устанавливают на основании анализа личных (субъективных) ощущений конкретного человека в совокупности с объективными показателями, полученными путем клинических обследований, с учетом пола, возраста и прочих особенностей организма.

В социальном аспекте здоровье или болезнь имеют свою реальность и свое значение, которые могут существовать лишь внутри культуры, опознающей их в качестве таковых. Широко известно, что в Средние века здоровым (пригодным для найма на тяжелую физическую работу) считался мужчина, который имел во рту как минимум десять зубов.

В социальном аспекте здоровье или болезнь имеют свою реальность и свое значение, которые могут существовать лишь внутри культуры, опознающей их в качестве таковых. Широко известно, что в Средние века здоровым (пригодным для найма на тяжелую физическую работу) считался мужчина, который имел во рту как минимум десять зубов.

Общественное здоровье в целом, как и здоровье отдельных социальных групп людей, определяется посредством анализа комплекса так называемых санитарно-статистических показателей — уровней смертности, рождаемости, заболеваемости, продолжительности жизни, физического развития и т.п. Формируется общественное здоровье людей в результате взаимодействия двух групп факторов — эндогенных и экзогенных.

К эндогенным факторам относятся, например, пол, биологический возраст, раса, телосложение, наследственность и тип нервной системы человека. Эти факторы индивидуальны, объективны, хотя и зависят в известной степени от особенностей конкретного человека. Под экзогенными факторами понимают природные (социально-экологические) и социальные факторы. Эти факторы оказывают непосредственное воздействие на общественное здоровье, но они, как правило, создаются самими людьми в процессе их жизнедеятельности и являются управляемыми, т.е. социально конструируемыми.



Так, эксперты Всемирной организации здравоохранения считают, что общественное здоровье зависит на 20% от наследственности и биологических особенностей организма, а на 80% — от социально-экологических, социально-экономических и собственно социальных факт.

Жизнь города неизбежно оказывает негативное влияние на окружающую среду, вызывает ее деградацию, порождая широко- масштабные долгосрочные последствия, которые будут сказываться на протяжении жизни нескольких поколений.

Сегодня наблюдается общая “природная патология” большого города: городская жизненная среда стала, как никогда прежде, болезнетворной и пагубной для здоровья человека. Достаточно очень неблагоприятных атмосферных условий — отсутствия ветра, наличия смога или инверсии температуры, иногда, впрочем, того, другого и третьего вместе, — чтобы вредоносность загрязнения воздуха резко усилилась и трагически возросла смертность.

Именно в крупных городах, особенно в мегаполисах, в силу загрязненности воздуха и воды, неправильного обращения с промышленными и особенно радиоактивными отходами, наблюдается рост показателей заболеваемости по всем классам болезней.

Известно, что загрязнение воздуха отравляет человеческий организм, нарушает психические и физиологические функции, рефлексы и затрудняет управление автомобилями, снижает способность к умственной деятельности, вызывает расстройства зрения, астму, головокружение, тошноту, потерю сознания, бронхиты и рак легких.

К серьезным нарушениям здоровья приводит загрязнение источников водоснабжения. По данным Всемирной Организации Здравоохранения, ежегодно в мире из-за низкого качества питьевой воды умирает около 5 млн человек. Инфекционная заболеваемость, связанная с водоснабжением, достигает 500 млн случаев в год.

Выше мы уже говорили о том, что с древности известен эффект несоответствия желаемого и фактически возникающего будущего — это эффект человеческой



деятельности: люди желают одного, однако на самом деле все оканчивается иначе, практически наоборот. Дело в том, что отдельные характеристики деятельности людей и ее субъективного восприятия часто противоречат наличному научному знанию. В их основе — “социальная эйфория” от сиюминутного результата (выгоды), непонимание или даже нежелание понять то, как определенное деструктивное поведение в настоящем скажется на жизни в будущем.

Одним из видов подобного поведения, а также серьезной социальной проблемой является нездоровый образ жизни современного человека, выступающий, в свою очередь, важнейшим фактором развития многочисленных заболеваний. С одной стороны, люди, особенно молодые, редко задумываются о последствиях вредных привычек, избыточного или неправильного питания, а также гиподинамии. С другой стороны, общество крайне мало делает для того, чтобы обучать людей берегающим здоровье технологиям. Особую проблему представляют интересы бизнеса крупных и мощных корпораций, которые рекламируют по телевидению, в газетах и журналах, в интернете, интенсивное потребление лекарственных средств и нездоровой (искусственной) пищи.

Особое место в ряду экзогенных (социально сконструированных) факторов, влияющих на общественное здоровье, занимает система здравоохранения (медицинского обслуживания населения). Существующая система здравоохранения — чрезвычайно сложная социальная проблема для любого общества. Миллионы людей в мире существуют без какого-либо медицинского страхования и поэтому откладывают визит к докторам и дантистам до тех пор, пока ситуация не станет настолько серьезной, что они не могут откладывать его дальше. Последствия этого для людей — худшее состояние здоровья; “они терпят гораздо больше лишней боли и дискомфорта и умирают каждый год из-за отсутствия доступа к бесплатной медицинской помощи”, — подчеркивает известная американская журналистка, занимающаяся проблемами медицины в США, Лаура Унгар (Laura Ungar).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. М., 2015.



2. Дюркгейм Э. Метод социологии // Социология. Ее предмет, метод, предназначение. М., 2019.
3. Козлова О.Н. Конструирование экологического будущего и образование // Истоки единства: проблемы воссоздания социально-экологического пространства. М., 2018.
4. Фромм Э. Здоровое общество. М., 2016.



Xorazm viloyati Xiva tumanidagi
30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Ozodova Oyxonim Ismoil qizi.

QODIRIYNING BEBAHO XAZINASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida romanchilik janrini boshlab bergan adib, o'zbekning yetuk so'zarnoblaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriyning so'z san'atiga, badiiy mahoratiga, individual uslubiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy. "Millatimga". "Ahvolimiz". "Baxtsiz kuyov". "Juvonboz". "Uloqda". "O'tgan kunlar". "Mehrobdan chayon". "Mushtum". "Yig'indi gaplar".

Abdulla Qodiriyning prozasi birinchi navbatda g'oyatda hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Qodiriyning tilidan u xalqning boy va ajoyib tilini g'oyatda yaxshi bilganligi yaqqol sezilardi. Uning romanlari ana shunday go'zal til bilan yozilgan. U tug'ma epik yozuvchi, keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realist san'atkor edi."

Oybek XX asr xalqimiz tarixida o'zlikni anglash, milliy uyg'onish davri bilan boshlandi. Jadidchilik xarakati nomi bilan tarixga kirgan bu jarayon xalqimiz ma'naviy hayotining hamma jabhalarini qamrab oldi, badiiy adabiyotga ham tom ma'noda yangilanish jarayoni kechdi. Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romaniga yozgan kichik muqaddimasida o'sha davr ijodkorlarining adabiyotga qo'ygan talablarini to'la ifodalagan edi: "Modomki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashishimiz va shunga o'xshash dostonchilik, romanchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg'a, xalqimizni shu zamonning "Tohir Zuhra" lari, "Chor darvesh" lari, "Farhod Shirin" va "Baxromgo'r" lari bilan tanishtirishda o'zimizga xis etamiz".

A.Qodiriy ijodkor sifatida o'z adabiy faoliyatini she'riyatdan boshladi, uning "Millatimga", "Ahvolimiz" kabi she'rlari shu davr mahsulidir. Qodiriy she'rlarida Millat va Vatanga xizmat qilish, uni g'afolat, jaholat uyqusidan uyg'otishga da'vat yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda Avloniy, Tavallo, Hamza kabi jadid shoirlariga xos xususiyatlar o'z ifodasini topgan.



Oradan ko‘p o‘tmay, A. Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi, “Juvonboz”, “Uloqda” hikoyalari kitobxonlar qo‘liga borib tegdi. Yozuvchining “Juvonboz” hikoyasi va “Baxtsiz kuyov” dramasi Mahbudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasining bevosita ta‘sirida yaratilgan. “Baxtsiz kuyov” mazmunan Behbudiy dramasidan farq qilsa-da, jadidchilik g‘oyasi yetakchilik qiladi. Ammo “Juvonboz” hikoyasi sujeti “Padarkush”ga juda yaqin turadi. Hikoyaning bosh qahramoni-katta savdogar Raufboyning o‘g‘li Sa‘dulla. U o‘qish, ilm olish o‘rniga iflos, fahsh yo‘llariga kirib, otasining butun mol-dunyosini soviradi, oxir-oqibatda odam o‘ldirib, o‘z umrini barbod qiladi. Yozuvchi Oybekning 1936-yilda yozgan “Abdulla Qodiriyning ijod yo‘li” asarida har ikkala asarga xos kamchiliklar: voqea hodisalarning ijtimoiy ildizi to‘laroq ochib berilmaganligi, timsollar tilinig sun‘iyligi, xalq jonli tilidan uzoqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, Oybek ta‘kidlaganidek, “Jadid adabiyoti uchun xarakterli alomat, ya’ni san’atkorning o‘rnini voiz egallashi, nasihatgo‘ylik, “oqartiruvchilik” va boshqalar “Baxtsiz kuyov” da yaqqol ko‘rinadi”.

A. Qodiriy L.Tolstoy, Chexov, Turgenev kabi mashhur yozuvchilarning asarlari bilan nafaqat tanish, balki ular haqida teran mushohadaga ega bo‘lgan. Bemalol aytish mumkinki, Qodiriy 1910-yillarning oxirida ulkan asar yaratish uchun ma’naviy tayyor edi.

Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar” romanini milliy uyg‘onish harakati siyosiy kurashlar bosqichiga ko‘tarilgan davrda yozishga kirishdi. Bu hol romandagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabatda ham ko‘zga tashlanadi. Darhaqiqat, u 1910-yillarda jadidchilikning faollaridan, bir qator safdoshlari singari istibdod, jaholat ildizlarini topish, xalqni taraqqiy etgan millatlar qatoriga olib chiqish haqida o‘ylardi.

Roman “1264-nci hijriya, dalv oyining 17-si, qishqi kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...” degan jumla bilan boshlanadi. E’tibor bering, yozuvchi “shom azoni” dan keyin xalqimiz boshiga tushadigan eng uzun, eng sovuq, eng qorong‘u tunlar haqida ogohlantirayotgandek. Yozuvchi romandagi voqealar bilan asar yozilayotgan davrdagi siyosiy voqealarda hamohanglikni ko‘radi. Xalq “O‘tgan kunlar”ni katta mamnuniyat va samimiyat bilan kutib oldi, qisqa muddatda butun O‘rta Osiyo xalqlarining sevimli asariga aylanib ketdi. Hatto o‘sha kezlarda butun romanni yod bilganlar bo‘lgan. Afsuski, mavjud sho‘rolar hukumati, Kommunistik mafkura uni nohush qabul qildi. Asar yaratila boshlagan davr bilan uning dunyo yuzini ko‘rishi, ya’ni 1926-yil orasida



sho‘ro mafkurasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘lgan edi. “O‘tgan kunlar” romani haqida birinchi tanqidiy maqolani rus yozuvchisi Mixail Sheverdin yozib, “Birinchi o‘zbek romani” nomi bilan “Zapartiyu” jurnalining 1928-yil uchinchi sonida chiqargan va romanni “zararli” asar sifatida baholagan edi. Ushbu maqola roman va muallifiga ko‘plab asossiz ayblar qo‘yishga zamin yaratdi.

Abdulla Qodiriyning ikkinchi “Mehrobdan chayon” romani 1928-yilda yozib tugatildi va 1929-yilda bosmadan chiqdi. Bu ikki buyuk romanning yaratilishidagi oraliq u darajada uzoq emas, bor yo‘g‘i olti yil. Ammo bu oraliq bir-biridan keskin farq qilar, “Mehrobdan chayon” yaratilayotgan davrda kommunistik partiyaviy yakka hokimlik hamma sohaga, shu jumladan, badiiy adabiyotga ham o‘z tazyiqini o‘tkazishga astoydil kirishgan edi. Romanning qahramonlari avvalgi roman qahramonlaridan ancha farq qiladi. Ikkinchi romanda yozuvchi xalq hayotining quyi va o‘rta tabaqa vakillarining turmush tarzini, umid va orzularini tasvirlaydi. Ular turmushning rohatidan ko‘ra mashaqqatini, adolatidan ko‘ra malomatini totib ko‘rishgan.

Solih maxdum oilasi Qo‘qonning ziyoli tabaqasiga mansub. U ancha hasis odam, shu bilan birga, yoshligidan qolgan g‘ayirlik, tamagirlik xususiyatlari bo‘rtib ko‘rinadi, oilani yeyish-ichishdan, kiyim-kechakdan ancha tergaydi. Hasisligi haqida qizi Ra‘no hazil-mutoyiba she‘r bitadi:

Yog‘lar to‘kilsa yerga yotib yalar taqsirim,
Bo‘lsa bozorda pastlik sotib olar taqsirim.

Menim uchun bir zirak, Ra‘nobonuga jevak,
Desa oyim-“ne kerak?!” yumma talar taqsirim.

“Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazil emas,
Jevak taqish farz emas!” g‘avg‘o solar taqsirim.

Ra‘no va Anvarlar muhabbati, demak, ularning taqdiri hal qilinayotgan bir paytda Anvar qat‘iyat ko‘rsata olmaydi. Ikkilanib qoladi. Muhabbatning falsafiy mohiyati haqida gapiradi. Ammo Ra‘no xonga qarshi isyon ko‘taradi: “Xonning iflos to‘shagida yotmayman”, deb keskin javob beradi, Anvarni yo‘lga soladi, uni kurash maydoniga qaytaradi. A.Qodiriyy bu romanda ham o‘z maslagiga sodiq qoldi: hayot haqiqati, milliy ruh asar qatlariga shu



qadar singdirib yuborilganki, hokim sho‘rolar mafkurasining tazyiqi kitobxon e’tiboridan chetda qoladi. Bu yozuvching ulkan mohorati natijasidir.

Abdulla Qodiriy 1934-yilda zamonaviy mavzuda-qishloq ahli, dehqonlar hayoti haqida o‘ziga xos “Obid ketmon” qissasini yaratdi. Yozuvchi bu asarida o‘zigacha rus adabiyotida (masalan, M.Sholohovning “Ochilgan qo‘riq” romani) kollektiv xo‘jalik hayotini, quloqlar va batraklar o‘rtasidagi keskin kurashlarni aks ettiruvchi asarlardan andaza olmadi. Aksincha, o‘zbek dehqoni, ayniqsa, o‘rta hol dehqonlar ruhiyatini to‘laqonli tasvirlovchi obrazlar yaratdi. Bu asarni 1930-yillar vulgar sotsiologizmi bilan qurollargan adabiy tanqidchilik mafkuraviy buzuvchi asar sifatida baholadi.

O‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi g‘oyat boy va sarmazmun. Atoqli so‘z san’atkorining ijodini ilmiy o‘rganish u hayotligidayoq boshlangan. Vaqt o‘tishi bilan Abdulla Qodiriy ijodi yanada salmoq va yangicha mazmun kashf etdi. Adib shaxsiga qiziqish ortdi. Habibulla Qodiriy o‘zining “Otam haqida” asarida Abdulla Qodiriy hayoti, asarlarining yozilish tarixi haqida maroq bilan hikoya qiladi. Muallif faqatgina otasi haqida ma’lumot berib qo‘ya qolmay, balki yigirmanchi-o‘ttizinchi yillarda yashab ijod etgan adiblar, olimlar haqida ham, Abdulla Qodiriyning rus yozuvchilari bilan do‘stona munosabatlari haqida ham so‘z yuritadi. H.Qodiriyning bu asari o‘sha davr adabiyotini, madaniy hayotini o‘rganishdagi qimmatli manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
2. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent. 2004.
3. Milliy uyg‘onish va o‘zbek filologiyasi masalalari. Toshkent .“Universitet” 1993.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. Toshkent. 2002.
5. Normatov U.Qodiriy bog‘i. Toshkent .1994.
6. Qodiriy H. Otam haqida. Toshkent.1983.
7. Qo‘shchanov M. O‘zbekning o‘zligi. Toshkent. 1994.
8. Karim B. Abdulla Qodiriy.Toshkent .2000.
9. Karimov Sh. Dillardan dillarga. Toshkent .1980.
10. Qodiriy A.Kichik asarlar. Toshkent. 1969.



Мавзу: Рақамли идентификация - хавфсиз идентификаторни аутентификация қилиш ва текшириш тизимларини яратиш

Сергели тумани ички ишлар ходими **Асрор Комилович Худойбердиев**

Рақамли идентификация хизматга рўйхатдан ўтиш ёки онлайнда кимлигини исботлашнинг осон йўлини таклиф этади. Бундан ҳам муҳими, ID хужжатларига эга бўлмаган шахсдан бир миллиард одам учун рақамли идентификация ҳақиқий шахсни тасдиқловчи хужжатга эга бўлиш йўлини таклиф қилади. Кўпчилик учун рақамли идентификация асосий молиявий хизматлардан фойдаланиш ва уларни ва уларнинг оилаларини молиявий аҳволини яхшилошга ёрдам берадиган биринчи қадамдир.

Идентификация асослари

Кўпчилигимиз шахсини тасдиқловчи расмий хужжатларни одатий ҳол деб ҳисоблаймиз, аммо дунёнинг баъзи қисмларида шахсга эга бўлиш ғояси катта натижа ҳисобланади. Идентификация банк ҳисобини очиш, овоз бериш, машина ҳайдаш, иш бошлаш, тиббий ва давлат хизматларини олиш, самолётда учиш, онлайн бозорларда катнашиш ва ҳатто бир марта тугма босиш орқали маҳсулот ва хизматларни сотиб олиш қобилиятини очадиган асосий калитдир.

Самарали идентификация тизимлари замонавий, фаолият юритувчи жамиятнинг асосий элементи дир. Улар маҳсулот ва хизматлар керакли шахсга етказилишини таъминлаш учун ташкилотлар ва шахслар ўртасида ишончли ўрнатишга ёрдам беради. Ишончли идентификация тизими фирибгарлик хавфини камайтириши ва турли даражадаги хизматларга киришни самарали бошқариши мумкин.

Коррупция ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш учун ташкилотлар миждозингизни билиш (KYC) ва пул ювишга қарши кураш (AML) қодалари каби мувофиқлик талабларига жавоб берадиган идентификация тизимларини талаб қилади. Бу талабларни камайтириб бўлмайди; идентификация қодалари жиноятчиларга қарши курашда асосий ғовдир, чунки фирибгарлар пул ювишда кимлигини яширишга ҳаракат қилишади.

Турли хил фойдаланиш ҳолатлари учун рақамли идентификация

Техник жиҳатдан, ISO/IEC 24760-1 стандарти идентификацияни “субъектга тегишли атрибутлар тўплами” сифатида белгилайди. Шундай қилиб, рақамли идентификация объектга қайси рақамли атрибутлар тўпламини киритиш кераклигини аниқлайди.

Катта маълумотлар даврида одамлар ва уларнинг рақамли фаолияти ҳақида жуда кўп маълумотлар тўпланади. Қайси маълумотлар тўплами ишончли мустаҳкамлаш учун энг самарали ҳисобланади? Юқори хавфсизликни таклиф қиладими? Шахсий идентификация қилинадиган маълумотларни (PII) ҳимоя қиладими? Хатарларни камайтиришнинг самарали даражаларини тақдим этадими? Мувофиқликни таъминлайсизми? Узлуксиз бортга кириш тажрибасини тақдим этадими?



Битта фойдаланиш ҳолати йўқ, шунинг учун битта жавоб йўқ; Турли хил маълумотлар тўпламлари турли хил келишувларни таклиф қилади ва улар ҳар бир тўплам қийматини қандай мувозанатлаштирганини томонларнинг ўзи аниқлаши керак.

Бу ишлайдиган рақамли идентификация тизимини яратиш мумкин эмас дегани эмас. Аммо универсал рақамли идентификация мослашувчан бўлиши, самарали хавфсизлик даражасини таклиф қилиши, ишончли бўлиши ва шахсга ўз маълумотларини муайян назорат қилиш имконини бериши керак.

Ишончли бизнесни ишончли амалга ошириш учун тегишли даражадаги ишонч ва кафолатни таъминлаш учун рақамли идентификация ечими бир нечта саволларга жавоб бериши керак:

Глобал идентификация тизимлари

Дунё рақамли бўлиб бормоқда; IDC маълумотларига кўра, 2022 йилга келиб дунё ялпи ички маҳсулотининг 60 фоизи рақамлаштирилади. Жиноий даромадларни легаллаштириш, терроризмни молиялаштириш, фирибгарлик ва бошқа молиявий жиноятлар таҳдидига қарши туриш учун рақамли идентификация тизимлари худди шундай хавфсиз, хавфсиз ва ишончли ишлаши керак. Йўриқномада айтилганидек, рақамли идентификация "жисмоний шахсларни аниқлашнинг ишончилиги, хавфсизлиги, махфийлиги ва қулайлигини **яхшилаш** учун катта ваъда беради".

Дунё бўйлаб ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг турли босқичларида кўплаб рақамли идентификация тизимлари мавжуд. Ушбу тизимлар ҳақиқий натижаларга эришганлиги сабабли, моделар, тизимлар ва оммавий иловалар натижаларни яхшилаш учун ўрганиши ва мослашиши мумкин.

eIDAS бу- фуқаролар, бизнес ва давлат органлари ўртасида хавфсиз электрон ҳамкорлик учун умумий асосни таъминлаш орқали ички бозорда электрон транзакцияларга бўлган ишончни оширишга интилади ва шу билан давлат ва хусусий онлайн хизматлар, электрон бизнес ва электрон тижорат самарадорлигини оширадиган Европа иттифоқ.

eIDAS интернетда ишончни мустаҳкамлаш ва Европа Иттифоқи бўйлаб ишлайдиган рақамли идентификация тизимини яратиш бўйича 77 та мақсадни санаб ўтади. Регламент давлат хизматларига нисбатан қўлланилади ва аъзо давлатлардан бошқа аъзо давлатларнинг электрон идентификация тизимларини қабул қилишларини талаб қилади. Тегишли рақамли идентификация тизимини яратиш машаққатли ва мураккаб вазифадир. Масалан, eIDAS мақсадларга эришиш учун 52 та хужжатини назарда тутади.

Pan-Kanada ишонч доираси

Канадада, 15.09.2020 йилда Канаданинг Digital ID ва Аутентификация Кенгаши (DIACC) Pan-Canadian Trust Framework™ (PCTF)ни ишга туширди, бу "корхоналар ва ҳукуматларга ёрдам берадиган воситалар ва хизматларни ишлаб чиқишда ёрдам бериш учун мўлжалланган қоидалар ва воситалар тўплами. Муайян транзакция ёки муайян операциялар тўпламига оид текширилиши керак бўлган маълумотлар.

Aadhaar

2016 йилда Жаҳон банкининг собиқ бош иқтисодчиси Пол Ромер **Aadhaar** - Ҳиндистоннинг миллий идентификация тизимини энг мураккаб ИД дастурлаш тили деб атади. **Aadhaar** дунёдаги энг географик, маданий ва этник жиҳатдан хилма-хил



минтақалардан бирида миллиарддан ортиқ одамни қамраб олади. У ишга туширилганига ўн йил бўлиб, Ҳиндистоннинг 1,4 миллиард (тахминан) аҳолисининг 89% га яқини Aadhaar картасига эга бўлди. Ҳинд океани бўйида жойлашган порт шаҳарларидан денгиз сатҳидан 4500 метр баландликда жойлашган Ҳимолой қишлоқларигача Aadhaar Ҳиндистонда энг кўп ишлатиладиган шахсни тасдиқловчи ҳужжатга айланди.

Рақамли идентификацияни такомиллаштириш Тўғрисидаги 2020 йилги қонун

Ҳозирда АҚШда рақамли идентификаторнинг миллий стратегияси мавжуд бўлмаса-да, “жисмоний шахслар, давлат ташкилотлари ва корхоналар ўртасидаги транзакцияларни қўллаб-қувватловчи ва ҳимоя қилувчи рақамли идентификация ечимларининг хавфсизлиги, ишончлилиги, махфийлиги ва қулайлигини ошириш ва бу америкаликларга онлайнда кимлигини исботлаш имконини беради.

Рақамли идентификация тизимларининг ҳаммаси ҳам етакчи деб ҳисобланган мамлакатлардан мавжуд эмас. 190.000 кишилиқ Тинч океанидаги кичик орол давлати Самоа миллий рақамли идентификация тизимини режалаштирмоқда. Эстония 2001 йилдан бери ўзининг миллий ID картасида рақамли идентификация қилиш имкониятига эга. Ҳозирда электрон идентификаторнинг баъзи шакллари таклиф қилувчи 60 та турли мамлакатлар мавжуд.

Тегишли ишонч даражалари

Янги идентификация тизимларини қабул қилиш рақамли идентификациядан фойдаланишни ривожлантиришга ёрдам беради ва юрисдикциялар ичида аниқликни таклиф қилса-да, бошқа фикрларга трансчегаравий бизнес, саёҳат, тўловлар ва бошқа халқаро идентификациядан фойдаланиш ҳолатлари киради.

Фойдаланиш ҳолатига қараб, ушбу техник стандартлар нозик маълумотлар билан ишлаш учун тартибга солинадиган тармоқлар томонидан талаб қилинадиган юқори стандартларга жавоб берадиган юқори даражадаги ишонч даражасини таклиф қилиши мумкин.

FATF молиявий институтларга таваккалчиликка асосланган ёндашувни қўллашни тавсия қилганидек, Мижозларни текшириш (CDD) рақамли идентификатор тизимлари учун “тегишли ишонччилик даражасини” аниқлашни талаб қилади :

- Тизим технологияси, архитектураси ва бошқаруви ишонччилик ва мустақиллик нуқтаи назаридан қандай даражадаги ишонччи таъминлайди?
- Кафолат даражаси жиной даромадларни легаллаштириш, терроризмни молиялаштириш, фирибгарлик ва бошқа хавфлар хавфи даражасига мос келадими?

Турли хил фойдаланиш ҳолатлари ва атрибутларга ўрнатилган қийматлар (хавфсизлик ва махфийлик, индивидуал куч ва марказий бошқарув) билан битта катта идентификация тизимсига эга бўлиш амалий кўринмайди.

eIDAS ортидаги Европа Иттифоқи давлатларининг барча ёрдами билан ҳам, ҳозирги вақтда у фақат давлат ташкилотларини қамраб олади. Уни барча хусусий компанияларни қамраб олиш учун кенгайтириш ишлари давом этмоқда.

Рақамли идентификация тармоқлари

Битта рақамли идентификация тизимига эришиб бўлмайдиган бўлса-да, амалда бу унча муҳим эмас. Созланиши, таржима қилиниши, мослаштирилиши ва



ҳисобланиши мумкин бўлган рақамли маълумотлар билан рақамли тизимлар текшириш ва аутентификацияни аниқлаш учун автоматик равишда бир-бири билан боғланиши мумкин.

Тизимлар турли шартлар, сценарийлар, талаблар ва человларни ҳисобга олсак, мақсад бир хил бўлади - шахсларни ўзлари хоҳлаган ва керакли хизматлар ва имкониятларда иштирок этишлари учун самарали текширадиган идентификация тизими.

Рақамли идентификация тармоқлари модели рақамли кириш учун тўсиқларни йўқ қилмоқда. Идентификация тармоғи - бу шахснинг ўзига хос атрибутлари ва хавф профилидан қатъий назар, кимлигини аниқлаш учун биргаликда ишлайдиган юзлаб маълумотлар манбалари, текшириш жараёнлари ва воситаларининг бозори. Бир-бирига боғланган рақамли идентификация тармоқлари глобал текшириш тармоғини яратиш имконига эга-Жаҳон иқтисодий форуми (WEF) бунини "ҳақиқий трансформацион рақамли идентификация тизими" деб аташи мумкин.

Рақамли идентификация тармоғи индивидуал рақамли идентификация хизматлари қила олмайдиган бўшлиқни тўлдирди. Ушбу бозор ёндашуви корхоналарга ўзларининг барча идентификатор хавфларини ҳар томонлама кўриб чиқиш ва ишончни таъминлаш ва ишончни мустаҳкамлаш учун зарур бўлган ҳар қандай текшириш қатламларини қўшиш имконини беради. Корхоналар тармоқдан КҮС талабларини қондириш ва онлайн ишончни мустаҳкамлаш учун керакли текшириш усулларига кириш учун фойдаланиши мумкин.

Рақамли идентификация тармоғидаги ҳар ким идентификаторни чиқаради ёки қабул қилади ва фойдаланувчилар тармоқдаги қайси контрагентларга ишонишни танлашади. Бирлашганда, бу тармоқлар идентификаторни текшириш учун глобал, ўзаро ишлайдиган тизимни яратади.

Идентификация тармоғи инфратузилмаси хавфсиз транзакциялар учун зарур бўлган барча текшириш усуллари ва маълумотлар манбаларини ўз ичига олади. Ҳар сафар компания мижоз ёки бизнес субъектини текширмоқчи бўлганида, тармоқ компаниянинг хавф-хатарларга чидамлилиги ва иш жараёни асосида текширишнинг қийин ишини бажаради. Шу тарзда, идентификация тармоғи шахснинг ўзи айтганидек эканлигига ишончининг бир неча даражасини таклиф қилиши мумкин.

Рақамли идентификация ваъдаси истемолчилар учун ҳам, бизнес учун ҳам фойдаланиш учун қулайдир. Бу хавфсиз бўлиб, фақат қонуний фойдаланувчиларга муайян хизматдан фойдаланиш имконини беради. Бу мувофиқликни таъминлайди. Бу бутун дунё бўйлаб онлайн ишончни мустаҳкамлайди.

Ҳақиқат шундаки, рақамли идентификациянинг идеал ҳолати сиз ўйлаганингиздан ҳам яқинроқ. Ақлли компаниялар ҳозир уни қурмоқда. Кўп ўтмай, барча глобал фуқаролар рақамли идентификациядан фойдаланиш имкониятига эга бўладилар ва биз барчамиз келажақда тақдим этадиган барча имкониятлардан фойдалана оламиз.



Ruhiy zo‘riqish va uning talaffuz jarayoniga ta’siri

Azimov Akbarjon Niyozidin o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi

kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada insonlar orasida tez-tez uchrab turadigan ruhiy zo‘riqishlar va ularning talaffuz jarayoniga ta’siri masalasi hamda talaffuz buzilishlarining lingvopsixologik asoslari haqida fikrlar bildirildi.

Kalit so‘zlar: ruhiy zo‘riqishlar, talaffuz jarayoni, nutq a’zolari, fonetik hodisalar.

Nutq odamlarning jamiyatdagi asosiy aloqa qurolidir. Nutq bo‘lmasa inson jamiyatdagi axborotlarni qabul qilish va ularni qayta ishlab, uzatish vazifasini bajara olmaydi. Nutqning har ikkala ko‘rinishi ham og‘zaki va yozma nutq inson hayotida juda ham ahamiyatli hisoblanadi. Masalan: yozma nutq orqali inson o‘zidan oldingi ajdodlarning qanday yashaganligi, ularning o‘y-fikrlarini bilish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Bundan tashqari nutq orqali insonning ongi, shaxsiy tajribasi rivojlanib boradi. Aloqa aralashuv vositasi sifatida boshqa odamlarning bilim-tajribalari bilan boyib boradi, hamda kuzatuv va nutqdan tashqarida bo‘lgan boshqa holatlarga qaraganda insonga o‘zini o‘rab turgan olam haqida bilimlarini egallashga katta yordam beradi. Dunyo tilshunoslarining fikri nutqning yaratilishi mexanizmini, bolalar nutqining shakllanish jarayonini, turli nutqiy vaziyatda nutqni so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda o‘rganish, nutqning axborot almashish vazifasini o‘rganish kabi masalalar psixolingivistikaning obykti degan nuqtada kesishadi va umumiylik kasb etadi¹¹. Psixolingivistikaning obykti insonning nutqiy faoliyat jarayoni va nutq birliklaridir. Psixolingivistika ma’lum bir sharoitda biror axborotni nutq birliklari yordamida tinglovchiga yetkazishni, nutq bo‘lagida

¹¹ Azimov Akbarjon. The importance of tongue twisters in the development of children's speech. International scientific research journal. Volume. Issue 2 2, Feb., 2022



soʻzlovchining ruhiyatidagi oʻzgarishlarning aks etishini hamda tinglovchiga taʼsiri masalalarini oʻrganadi.

Nutq nuqsonlari – bu nutq apparati hamda bosh miyaning ayrim funksiyalarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan holatdir. Shuning uchun tilshunoslikda nutq bilan bogʻliq muammolar ikki tomonlama yaʼni bir tomondan tilshunoslik va psixolingivistika hamda ikkinchi tomondan tilshunoslik va neyroolingivistikaning kesishgan chorrahasida oʻrganiladigan soha hisoblanadi. Mazkur sohada nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekanligi, bosh miya kasallanishining nutqiy faoliyatga taʼsiri masalalarini oʻrganadi¹². Bu yoʻnalish asosan nutqning buzilish omillarini oʻrganishga xoslangan boʻlib, insonlardagi nutq buzilishlarini keltirib chiqargan sabablarni tahlil qiladi. Mazkur yoʻnalishda tilshunoslikda koʻplab olimlar katta samarali mehnat qilganlar. A.A.Leontev, A.R.Luriya, E.S.Beyn, O.S.Vinogradova kabi tilshunoslikning yirik vakillari insonlardagi nutq buzilishlarining omillarini oʻrganishga katta xissa qoʻshgan¹³.

Inson olamni oʻzining ongida aks ettiradi. Olamning inson ongida aks etishi sezgi organlari yordamida amalga oshadi. Sezgi aʼzolari olam haqida muayyan informatsiyalarni inson miyasiga uzatadi. Miya mazkur axborotlarni umumlashtirib oʻzida aks ettiradi. Mazkur jarayon yaʼni olamning aks etishi markaziy nerv sistemasi orqali yuzaga chiqadi. Maʼlumki inson nutqi 2-5 yoshgacha intensiv rivojlana boshlaydi. Olimlarning tadqiqotiga koʻra 3 yoshgacha boʻlgan bola taxminan 300-700 soʻzni toʻgʻri talaffuz qila oladi va 4 yoshga kelib murakkab jumlar yordamida gaplar hosil qila oladi. Nutqning rivojlanishi tashqi va ichki omillarga bogʻliq. Odatda kichik bolalar ota-onalariga taqlid qiladilar hamda ularning nutq uslublarini egallab boradilar. Soʻzlarni yoki tovushlarni talaffuz qilish vaqtida odamda turli xil organlar, yaʼni miyaning markazlari, asab yoʻllari, nafas olish mushaklari, til va yuz mushaklari ishtirok etadi. Voyaga yetgan odam va bolaning normal holatdagi nutqi har bir harfning aniq va tushunarli talaffuzi sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, odamning suhbat silliq va ritmik boʻlishi kerak. Agar nutq noaniq va tushunarsiz boʻlsa, demak bu oʻrinda

¹² Azimov Akbarjon. The relationship between language and society. International scientific research journal. Volume. Issue 9, Sep., 2021

¹³ Azimov Akbarjon Niyozidin oʻgʻli. Tez aytishlar fonetik trenajyor sifatida. Science and innovation International scientific journal volume 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337



uning buzilishi haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda duduqlanish, alohida harflarni talaffuz qila olmaslik, soqovlik va boshqalar kabi nutqdagi nuqsonlar ajralib turadi.

Nutq buzilishlarini keltirib chiqaridigan yana bir holat bu – insonlar ruhiyatidagi turli xil kasalliklar bilan bog‘liqdir. Inson ruhiyatida yuzaga kelgan zo‘riqishlar bevosita nutq hosil qilish jarayoniga keskin ta‘sir o‘tkazadi. Ruhiiy zo‘riqishning stress, depressiya kabi turlari insonlar orasida juda ko‘p tarqalgan. Mazkur holatlar bevosita inson nutqiga ham katta ta‘sir o‘tkazadi. Yuqorida kichik yoshli bola 2-5 yosh oralig‘ida nutqiy jarayonda o‘rtacha 500ta so‘zdan unumli foydalana olishi va bu normal holat hisoblanishini aytgan edik. Ammo kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitdan hamda oila a‘zolari yoki boshqa ta‘sirlar natijasida yuzaga kelgan ruhiy zo‘riqishlar natijasida uning nutq qobilayati zarur yetishi mumkin. Yana bir jihat ko‘p hollarda kichik bolalardagi nutqiy buzilishlar irsiyat bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Mutaxassislar kichik yoshdagi bolalarning nutqidagi nuqsonlarni irsiyat bilan bog‘lab o‘rganar ekanlar ularni bevosita bolaning ona qornida rivojlanish davridagi turli xil ta‘sirlarga uchrashi bilan belgilaydilar. Nutq nuqsonlarni belgilashda birinchi o‘rinda bolaning ruhiy, aqliy hamda eshitish idroki aniqlanib olinadi. Mazkur tahlil natijasida nutq nuqsonlari o‘zining darajasiga qarab og‘ir yoki yengil guruhlarga bo‘linadi. Nutq buzilishi quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi: Dislaliya, dizartiriya, alaliya, afaziya, rinolaliya, duduqlanish.

Dislaliya – bu nutq apparati a‘zolarining normal innervatsiyasida yuzaga kelgan logopatsiya hisoblanib, asosan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ba‘zan aqliy idrok rivojlanmaganligi bilan namoyon bo‘ladigan yengil nutq nuqsoni. **Dizartiriya** – bu nutq apparati a‘zolari innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og‘ir nutq nuqsonidir. **Alaliya** – bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og‘ir nutq nuqsoni bo‘lib, bu tashxis eshitishi va zakovati me‘yorda bo‘lgan shaxslarga qo‘yiladi.

Kichik yoshdagi bolalar nutqida uchraydigan turli xil nuqsonlarni bartaraf etishda, avvalo, ularning psixik holatiga katta e‘tibor berish zarur. Chunki mazkur omil tashxis qo‘yishda eng muhim omil hisoblanadi. Uning idrok qilish faolligi hamda zehning holatini



aniqlash, ko‘rib fikrlash qobiliyati, eshitib fikrlash qobiliyatining darajasini aniqlash mazkur nutq bilan bog‘liq nuqsonlarni aniqlashda mutaxassisga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar Ijild. – Toshkent. Akademnashr 2012.
2. R. Shomahmudova va bosh. Bolalar nutqida nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – Toshkent. O‘qituvchi. 1993.
3. Azimov Akbarjon. The importance of tongue twisters in the development of children's speech. International scientific research journal. Volume. Issue 2 2, Feb., 2022.
4. Azimov Akbarjon. The relationship between language and society. International scientific research journal. Volume. Issue 9, Sep., 2021
5. Azimov Akbarjon Niyozidin o‘g‘li. Tez aytishlar fonetik trenajyor sifatida. Science and innovation International scientific journal volume 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337



ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ZARURIYATI

O'zR IIV Akademiyasi "O'zbek tili va xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi

Axmedova Gulnoza Atanazarovna

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida davlat tilida ish yuritish zaruriyati tizimida ish yuritish asoslari, hujjat turlari, barcha tuzilmalar, hozirgi paytda hokimiyatning barcha sohalari organlari oldida turgan muammolar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar:

Ichki ishlar, organ, faoliyat, davlat tilida, ish yuritish, asoslari, hujjat turlari, rekvizitlar, lotin yozuvi, adabiy tili me'yorlari.

Ish yuritish – hujjatlashtirishni ta'minlaydigan va rasmiy hujjatlar bilan ishlashni uyushtiradigan faoliyat sohasi. Hujjatlashtirish – axborotni belgilangan qoidalarga binoan turli vositalarga yozish.

Hujjat – aynan o'xshatish (identifikasiyalash) imkonini beradigan belgilar (rekvizitlar) bilan moddiy vositaga qayd etilgan axborot. Hujjat aylanmasi – tashkilotda hujjatlarni tuzish yoki olish paytidan boshlab to ijro etish yoki jo'natishgacha bo'lgan jarayon. Axborot boshqaruvning asosidir. Davlat boshqaruvi tizimida barcha tuzilmalar va mansabdor shaxslar o'zaro axborot oqimlari bilan bog'lanib, yaxlit kommunikatsiya tarmog'ini hosil qiladi. Bu tarmoqda davlat boshqaruvining har bir organi kommunikatsiya tarmog'ining bir bog'lamidan iborat bo'lib, ko'pgina manbalardan keladigan axborot oqimlari aynan shu bog'lam orqali o'tadi. Mazkur axborot oqimlari o'zining mazmuni, jadalligi, to'g'ri yoki noto'g'riligi, vaqt tartibotiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.



O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish hamda davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash borasida Ichki ishlar vazirligi tomonidan qator vazifalar amalga oshirib kelinmoqda.

Har qanday boshqaruv organi, vazirlik yoki boshqarma yoxud kichik bir idora bo'lmasin, uning faoliyati asosini axborot olish, uni ishlash, tegishli qaror qabul qilish, hamda ijrochilarga yetkazish, shuningdek, ijroni tashkil etish, nazorat qilish va xulosa chiqarish kabilar tashkil etadi. Shunday qilib, moddiy vositada qayd etilgan axborot boshqaruv organlari faoliyatining asosiy o'zagi ayni vaqtda uning asosiy mahsuloti hisoblanadi. Shuningdek, u boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish usulidir. Boshqaruv va uning barcha bo'g'inlari faoliyatining sifati va samaradorligi axborot oqimlarining tezkorligiga, barqarorligiga va maqbulligiga bog'liqdir. Boshqacha aytganda axborot oqimlari bamisoli qon tomirlari tizimi kabi boshqaruv organizmini oziqlantirib turadi.

Xususan, davlat tiliga doir qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish, targ'ib qilish, xodimlarga davlat tilini chuqur o'rganishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi vazifalar ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda bir qator tarkibiy va hududiy ichki ishlar organlarida monitoring o'tkazildi. O'rganishlar jarayonida, IIV Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Toshkent shahar IIBB, poytaxtning Olmazor va Mirzo Ulug'bek tumani Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bo'yicha belgilangan talablar asosida faoliyat tashkil etilganligi kuzatildi.

Tizimda ish yuritishni davlat tilida tashkil etish va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish bo'yicha ichki ishlar organlarining tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalari boshliqlari shaxsan mas'ul ekanliklari qat'iy belgilangan bo'lsada, ayrim ichki ishlar organlarida xato va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. O'rganishlar tahlillari asosida kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar belgilab olindi. Jumladan, ichki ishlar organlari ma'muriy hududidagi barcha tashqi yozuvlar, lavhalar,



e'lonlar va ko'rgazmali boshqa axborot matnlarining davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, lotin yozuviga asoslangan o'zbek imlosida yozilishi zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan “Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilishi bo'yicha daraja sertifikatini berish tartibi to'g'risida”gi nizom asosida, rahbarlik lavozimlariga yangi tayinlanayotgan nomzodlarning sinov topshirib borishlari izchil yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 aprel` kunidagi 5050-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish kontsepsiyasi”ga ko'ra, “Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!” degan g'oya asosida yangi tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ko'rgazmali targ'ibot ishlarida o'zbek tilini ulug'lovchi shiorlar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar aks ettirilgan tasviriy targ'ibot vositalaridan keng foydalanish belgilandi.

O'zbek adabiy tili me'yorlari, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari, rasmiy hujjatlar va ularni yozish bo'yicha nazariy hamda amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida, Vazirlik Akademiyasi hamda Malaka oshirish instituti professor-o'qituvchilarini jalb etgan holda, qisqa muddatli sayyor o'quv kurslarini tashkil etish, tarqatma targ'ibot materiallari, buklet va eslatmalar tayyorlash rejalashtirildi.

Ichki ishlar organlarining tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'linmalarida ish yuritishni davlat tilida tashkil etish va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2008.-40 b.
2. “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish tartib-taomillari turlari qisqartirilganligi hamda soddalashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 4 apreldagi O'RQ-28-son



Qonuni.

3. “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlar soni qisqartirilganligi hamda tekshirishlar tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining 2006 yil 23 martdagi O‘RQ-26-son Qonuni.

4. O‘zbekiston R



Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini tez va oson o'rgatishning samarali usullari

Ilmiy rahbar: Yuldasheva.F.F.

ЎzDJTU katta o'qituvchisi

Muallif: Sattarova.G.F.

ЎzDJTU 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini tez va oson o'rgatishning samarali usullari hamda metodlari to'g'risida ma'lumot beriladi. Mazkur maqola maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflarda ingliz tilini zamonaviy axborot texnologiyalaridan va o'yin metodlaridan foydalangan holda mazmunl, qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Abstract: This article provides information on effective ways and methods of teaching English to young children quickly and easily. In this article, you can get acquainted with meaningful and interesting methods of teaching English in preschool education and primary classes using modern information technologies and game methods.

Аннотация: В данной статье представлена информация об эффективных способах и методах обучения детей младшего возраста английскому языку быстро и легко. В этой статье вы сможете ознакомиться с содержательными и интересными методиками обучения английскому языку в дошкольном образовании и начальных классах с использованием современных информационных технологий и игровых методов.

Kalit so'zlar : boshlang'ich ta'lim , qiziqarli o'yinlar , aqliy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar, multfilmlar, imo ishora usuli, topishmoqlar topish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Key words: elementary education, teaching English, interesting song, games, exercises, mental activity, practical exercises, gesture method, finding riddles, using visual aids.

Ключевые слова: начальное образование, обучение английскому языку, интересная песня, игры, упражнения, умственная деятельность, практические занятия, прием жестов, отгадывание загадок, использование наглядных пособий.умственная деятельность, практические занятия, прием жестов, отгадывание загадок, использование наглядных пособий

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish maqsadida



muhtaram prezidentimiz ko‘plab qarorlar qabul qildilar , " Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida " gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu bilan birga " Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi " tasdiqlandi . Bu qarorlarda maktabgacha ta'lim tizimi tarmog'ini yanada rivojlantirish, bollarni o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish va maktabgacha ta'lim muassalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash , bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash kabi masalalar aks etgan . Bugungi kunda ta'lim sohasini yanada rivojlantirish hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan, shu sababli kichik yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin , rasmlar , qo'shiq va she'rlardan , multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi . Chunki ulardagi asosiy tushuncha miyasida rasmi holda tasvirlanadi . Bu esa o'z navbatida bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga ko'ra tasvirlashni talab etadi . Maktabgacha ta'limda hamda boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan bolalarning psixikasi qiziqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan . Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko'p e'tibor berishadi. Shuning uchun ustoz va murabbiylar ko'proq o'yin metodlaridan foydalanishi samarali usul hisoblanadi.

Biz yashayotgan hozirgi zamonaviy hayotimizda nafaqat maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Sababi iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm- fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir. Chet tillar o'qitish metodikasining atoqli namoyandalaridan Garvard universiteti professori Uilga M. Rivers fikricha, savodli bo'lish — o'qish va yozuvni bilish, degan ma'noni anglatadi.[1 Wilga M. Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. — Chicago and London: The University of Chicago Press, 1981, p]. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liqdir. Olimlar va psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik mavzulani o'rganishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki bosqichdayoq qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- harakatlar, amaliy mashg'ulotlar masalan: turli xil oziq-ovqatlarni va mevalarni tatib ko'rish, hidlab ko'rish. Bu o'yin orqali bolajonlardan inglizcha ma'lumotlar berishini so'rash lozim. Murabbiylar banan mevasini tatib ko'rish jarayonida uning rangi sariq (yellow), ta'mi shirin (tasty), shakli uzunchoq (oblong) hidi xushbo'y (fragrant) kabi ma'lumotlarni so'raydi hamda bu usul esda qolish uchun samarali usul hisoblanadi.



- ob'ektlarga ishora qilish; Bu jarayonda o'qituvchi xonadagi buyumlardan foydalangan holda savollar beriladi. What is it? (Bu nima?) This is a apple (Bu olma), This is a table (Bu stol).

- qo'g'irchoq teatri sahnalari;

- tasvirlar; doskadagi chizmalari;

- ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;

- imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali; O'qituvchi bolaga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel(come here), kitobni och(open the book), turing(stand up), doskaga qarang(look at the blackboard) kabi gaplarda imo- ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo'ladi ;

- multfilmlar tomosha qilish ; Bolalar inglizcha multfilmlarni to'liq tushunmasliklari mumkin. Ammo qiziqarli multfilm qahramonlari nomlari, ular ishlatadigan jumlar tezda yodida qoladi. Chunki bolalar qiziquvchan va taqlidga moyil bo'lishadi;

- ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;

- topishmoqlar; Bolalar topishmoqlarning javobini topishga qiziqishadi. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytsada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so'zlarni tez o'rganishadi;

- ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish. Masalan:eshik(door), kitob(book), stol(table), doska(blackboard), oyna(window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va amliyotda ko'p qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

Shunday ekan, bunday usuldan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi. " Chet til materialini (lisoniy birliklarni) nutqda o'zlashtirish chog'ida fikran umumlashtirib borish metodikada ishlab chiqilgan masaladir".[Д. Д. Джалалов, Г. И. Стравчинская. Книга для учителя к учебнику английского языка для VI класса узбекской школы. —Ташкент: Укитувчи, 1973 (va keyingi nashrlari). — 23—27-betlar]. Maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik yoshdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda ular qoidalarni tushuntirishga tayanmaydilar, shu sababli o'yin metodlaridan foydalanish ancha samaraliroq. Mohiyat oddiy: o'qituvchi o'yinlar o'tkazadi, ular davomida bolalar til ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda,kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalaridan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy



jihaddan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tildan o'rganadilar. „Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch tildan egasidir“. Ushbu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi: ona tili, ikkinchi tildan va chet tildan. [Jalolov J. Chet tildan o'qitish metodikasi. – Toshkent., 2012: – 4 -bet.] Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi darkor. Chunonchi, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy ham ko'plab xorijiy tillarni mukammal bilgan, bu tillarda bemalol gaplasha olgan hamda shu tillarda ijod qilgan. Bunday imkoniyat allomaning dunyo ilm- fanini o'rganishga, buyuk ishlarni amalga oshirishiga turtki bo'lgan. Zero, Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Tildan bilgan — el biladi».

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 30 - sentabrdagi " Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida " gi PQ - 3955 - sonli qarori .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 8 - maydagi " O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'riida " gi PQ - 4312 - sonli qarori
3. Jalolov J. Chet tildan o'qitish metodikasi. – Toshkent., 2012: – 4 -bet.
4. Wilga M. Rivers. Teaching Foreign-Language Skills. 2nd ed. —Chicago and London: The University of Chicago Press, 1981, p.291.
5. Д. Д. Джалалов, Г. И. Стравчинская. Книга для учителя к учебнику английского языка для VI класса узбекской школы. — Ташкент: Укитувчи, 1973 (va keyingi nashrlari). — 23—27-betlar.



**Munisa Nazirova Mirzakamalovna. Head teacher
of English department of academic lyceum under
TTPU**

Abstract

Communication is the act of interacting and exchanging ideas with other people. There are two primary forms of communication: verbal and nonverbal. With verbal communication, people express their thoughts, ideas, and feelings through spoken or written language. Nonverbal communication uses other methods, such as body language including facial expressions, gestures, and more. We are going to discuss both of these forms of communication to help you understand them better.

Keywords: Method of expression and perception, communication, approach to language.

INTRODUCTION

What is Verbal Communication

People use verbal communication to express themselves in many ways during discussions, speeches, and everyday conversations. Just how effective this style of communication is can vary. It will depend on the volume of your voice, the tone you use, the clarity of your speech, and the caliber of the words you use. You'll probably get some idea of how effective your communication is through the feedback you receive.

You can help improve the effectiveness of your communication by considering your target audience and how you can adjust your message to help them understand you. With verbal communication, you have a lot of control over adapting your message if you feel it is not effective.

In order to do this, you should first ensure that you have expressed your intended message. It's possible for the people to whom you are trying to communicate to misunderstand your words or the intention behind those words.



Whether or not your communication is effective depends on the listener as well as yourself, and you can't control the listener—but you can try to make your message as clear as possible. To do this, you also need to consider nonverbal communication.

Nonverbal Communication

Nonverbal communication is a way of communicating without using words. Although nonverbal communication can emphasize spoken words, it can also contradict them.

The three main aspects of nonverbal communication are tone of voice, body language, and eye contact, each of which has an impact on how people receive your message.

- **Tone of Voice:** The volume, pitch, and pace of your voice displays your feelings. It can help other people determine whether you're upset, confident, angry, etc.
- **Body Language:** Body language is probably the clearest type of nonverbal communication. It can tell a person a lot about how you feel. If someone sees that your arms are folded while speaking to you, they will likely feel you are not very receptive to what they have to say, whereas if you face the speaker with your arms at your sides, you will appear more interested.
- **Eye Contact:** Making eye contact lets a speaker know you are interested in their message. It can also help you stay engaged in the conversation and better understand the speaker.

Do these verbal and nonverbal communication examples make sense to you?

Improve Your Nonverbal Communication Skills

Nonverbal communication skills are a crucial part of articulating your message. People often rely primarily on nonverbal cues to derive the meaning of the message. This makes it vital that you work on improving your nonverbal communication skills.

Conclusion

Communication skills are critical in all aspects of life. Improving your communication skills requires understanding the differences between verbal and nonverbal communication. Simply understanding cues such as maintaining eye contact and using body language that shows you are interested in what the speaker has to say can go a long way toward achieving effective communication.

REFERENCES

1. DOCUMENT TRANSLATION, AUDIO TRANSCRIPTION, & PHONE INTERPRETATION. 2021. 5 Big Obstacles to Learning a New Language - DOCUMENT TRANSLATION, AUDIO TRANSCRIPTION, & PHONE



INTERPRETATION. [online] Available at:

<<https://www.dtstranslates.com/globalcommunicationblog/5-obstacles-learning-new-language/>> [Accessed 13 November 2021].

2. Reading Rockets. 2021. Motivation: The Key to Academic Success. [online] Available at: <<https://www.readingrockets.org/article/motivation-key-academic-success>> [Accessed 13 November 2021].
3. Cerdán, A. and Cerdán, A., 2021. Важность мотивации: её суть, роль в учебном процессе и 10 способов повышения - CogniFit. [online] CogniFit.
4. Harmer, J. (2015). New York: Pearson.
5. Savitskaya, T. (n.d). *Discussing the question of teaching formal grammar in ESL learning.*



Styles of Communication

**Munisa Nazirova Mirzakamalovna. Head teacher
of English department of academic lyceum under
TTPU**

Abstract

Social Development

Good communication expresses one's thoughts and emotions clearly, which is essential for a successful career and happy family life. But with passive communication, one rarely communicates their thoughts effectively. In this article, we are going to explain what passive communication is, how to tell if you are a passive communicator, and the consequences of this communication style.

Keywords: Passive and active method, communication, approach to language.

INTRODUCTION

There are three primary styles of communication: aggressive, passive, and assertive. People with an aggressive communication style tend to express their desires or opinions with little concern for others, whereas people with a passive communication style are reluctant to express themselves verbally at all and will often defer to others. The best style of communication is assertive. With this style, you can let others know what you think or want while still showing respect for their wants and needs.

What is Passive Communication?

Passive communication is a style of communication in which people don't make their needs, wants, or opinions known. In this style of communication, people actively avoid stating what they think and defer to what other people want even when it is detrimental to them.

Consequences of Being a Passive Communicator



People often like to be around passive communicators at first because passive communicators seem kind and caring. However, this style of communication does not tend to work out well in the long run.

Passive communicators tend not to stand up for their rights, which can lead to frustration on their part. In response to this frustration, these people are prone to outbursts or complaints, both of which tend to damage relationships at work and home. This also decreases their chances of being given more responsibility at work because they do not seem ready to take it on.

Always giving in to other's wants and needs can also result in low self-esteem and a poor sense of self-worth. It can lead to anxiety and depression as the passive communicator's needs are continually unmet.

How to Tell if You Are a Passive Communicator

If you do have a passive communication style, it does not mean you are a bad person or that you are going to be a failure. It *does* mean you may need to put in a bit more effort to improve your communication skills so that you can express your own thoughts and ensure your needs are met while getting along with others.

If you tend to avoid clearly expressing your views or if you find yourself speaking quietly or apologetically, you may have a passive communication style. If you avoid stating your beliefs just to avoid conflict or to make other people happy, that is also a sign of passive communication.

Body language can also provide some clues. Passive communicators often slouch and avoid eye contact with others. These behaviors indicate low [self-confidence](#) and insecurity, which are common in people with a passive communication style.

SUGGESTION

Finally, If you do discover you have a passive communication style, you may be able to improve by learning more about effective communication and practicing assertive communication skills. If you need assistance in this practice, we at the Social Skills Center can help you learn effective communication skills to express your feelings assertively.

If your passive communication style has left you feeling helpless and unable to assert your feelings, if you feel pushed around by others and powerless to stop it—don't lose hope. Seeking help to change the way you communicate is easier than you think. Once you start using an active communication style, you will find yourself and the people you communicate with beginning to feel more happy and comfortable.



REFERENCES

1. DOCUMENT TRANSLATION, AUDIO TRANSCRIPTION, & PHONE INTERPRETATION. 2021. 5 Big Obstacles to Learning a New Language - DOCUMENT TRANSLATION, AUDIO TRANSCRIPTION, & PHONE INTERPRETATION. [online] Available at: <<https://www.dtstranslates.com/globalcommunicationblog/5-obstacles-learning-new-language/>> [Accessed 13 November 2021].
2. Reading Rockets. 2021. Motivation: The Key to Academic Success. [online] Available at: <<https://www.readingrockets.org/article/motivation-key-academic-success>> [Accessed 13 November 2021].
3. Cerdán, A. and Cerdán, A., 2021. Важность мотивации: её суть, роль в учебном процессе и 10 способов повышения - CogniFit. [online] CogniFit.
4. Harmer, J. (2015). New York: Pearson.
5. Savitskaya, T. (n.d). *Discussing the question of teaching formal grammar in ESL learning.*



**Munisa Nazirova Mirzakamalovna. Head teacher
of English department of academic lyceum under
TTPU**

Abstract

Much vocabulary is learned without formal teaching. We gain words from conversation, observation, television/media, and reading. However, research shows that explicitly teaching vocabulary can measurably improve reading comprehension — if we teach the right words well enough. Here are five key principles to effective vocabulary instruction.

Keywords: Language learning, English, Grammar, Students' Writing

INTRODUCTION

Effective vocabulary teaching has five key principles.

1. Focus on rich meanings, not just dictionary definitions.

Too often vocabulary instruction is no more than kids copying definitions from the dictionary. But researchers have identified a number of instructional approaches that outdo any learning that may accrue from copying definitions.

One of those key principles is that students work with more extensive or complex definitions or explanations of word meanings. Encourage the encyclopedia explanation over the dictionary meanings.

When I teach vocabulary, I often have the kids engage in trying to provide several different versions of a word's definition.

1. Dictionary definition
2. Synonyms for the word
3. Antonyms (if there are any)
4. Part of speech



5. Classification (what semantic group does it belong to, like tools or ways of talking)
6. Comparison (it is like____, but different because_____)

By the time you've come up with nine different explanations of a word you are more likely to remember it (and, of course, we can do more than just these nine if we want to get into analogies, part-whole relationships, and the like).

2. Emphasize the connections among words.

Many vocabulary programs introduce words by category, such as focusing on words from health and medicine or about transportation, including some that have research showing that they can be effective. However, direct research specifically on this aspect of teaching, suggest that word learning goes slower and without evident later advantage from the extra work that mastering these words entails needed to master these sets of words. And, yet, evidence reveals that the lexicons in our heads are organized in various networks, not like dictionaries. When you remember a word, you draw from memory a plethora of related ideas—attributes, functions, and synonyms related to that word.

Start thinking diesel trucks and words like wheel, tire, dump truck, gasoline, and highway will not be far behind.

There are circumstances in which it is necessary to simultaneously introduce collections of closely related words that may require fine or subtle distinctions, such as when kids are learning about the structure of cells or atoms. I'll give that a pass, since such introductions are likely to be accompanied by a much deeper dive into the underlying concepts in such cases.

I also think it is quite reasonable when teaching words to get kids thinking about words about that concept that they may already have mastered. Linking a new word to a concept, is very different than trying to learn and link a whole collection of words.

I would avoid introducing together *plethora*, *dearth*, *scarcity*, *cornucopia*, *shortage*, *plenty*, *sufficient*, *abundant*, and *liberal* as some programs do. Collect such words over time as they are learned and then later you can have kids comparing the ideas or fitting them into continuum or network.

One teacher I know has her students classifying the vocabulary each week in bulletin board folders, and when a folder accumulates several related words, they revisit them as a set.

3. Promote usage of the words.

It is not enough that kids study word meanings, but they have to learn to use these words in their reading, writing, speaking, and listening. Instruction should create opportunities for kids to use words in all of these ways.



For instance, that rich vocabulary assignment that was described earlier can be done by groups of kids working together to come up with those multiple definitions. That kind of cooperation requires that kids talk with each other about the words. Additionally, I often assign small numbers of words to each group and then have them get together to teach each other the words that their groups studied... more speaking and listening.

One might reward kids for using the studied vocabulary in their writing — or that can be required in various ways.

Isabel Beck and Moddy McKeown came up with the idea of “word wizards,” which gave kids extra points in vocabulary if they could bring in evidence that they had confronted or used the words of interest. Kids get very turned on if they run across some of the vocabulary when watching television or playing their favorite computer game.

METHODOLOGY

4. Review is important.

It can be hard to retain vocabulary if you don't get a lot of opportunity to use it. We may teach vocabulary because certain words were prominent in the texts, we were reading this week, but then kids might not see them for a long time.

There are many ways to deal with vocabulary, such as having one day a week when you only work with words that have been taught (and supposedly learned) in the past — or perhaps entire weeks might be devoted to this throughout the year.

I'm a fan of including words from past weeks on vocabulary quizzes and for the use of vocabulary notebooks to help punch up kids' writing during revision.

Another way of ensuring the words stick, is to see how many additional words students can construct morphologically, adding prefixes or suffixes or altering parts of speech and so on. I've written about some of the important work being done on morphology by Peter and Jeffrey Bowers before (and you can search for that on my site or on Google).

5. Involve students in identifying some of the words to be studied.

I noted earlier that much vocabulary learning is incidental and, therefore, largely out of the province of schools. However, not all kids are equally good at such learning and even for those who it is easier, it can still be a tough slog requiring many experiences with a word to get it to stick.

SUGGESTION

One thing that we can do to help develop a “word consciousness” among our students is to involve them in identifying unknown words from their own reading — and to include these in your classroom curriculum. When readers get used to noticing their lack of



knowledge of particular words, they will be more likely to try to resolve those gaps when reading. Kids will also be more motivated if they have some say so over the curriculum as well.

REFERENCES

- Alfaki, I. M. (2015). University Students' English Writing Problems: Diagnosis and Remedy. *International Journal of English Language Teaching*, 3(3), 40–52.
- Azar, B. S. (2007). *Grammar-Based Teaching : A Practitioner ' s Perspective*. TESL-EJ
- London: Longman Halliday, M. A. K. (1994). *An introduction to functional grammar* (2nd ed.).
- London: Edward Arnold. Harmer, Jeremy. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Essex: Pearson Education Limited. Krashen. S. (1982).



MATEMATIKA DARSLARINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Amanbayev Azamat Qaxramon o'g'li,
Xo'jaboyeva Sadoqat Abduraxmonovna
Xorazm viloyati Urganch shahri
8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya: Maqolada matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari xususida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: maktab, ta'lim-tarbiya, interfaol, oʻqituvchi, oʻquvchi, ma'naviy- ahloqiy tarbiya dars, metod...

THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING MATHEMATICS

Amanbayev Azamat Son of Kahramon,
Khojabayeva Sadokat Abdurakhmonovna

Urganch city,
Khorezm region
General secondary
school No. 8

Annotation: The article discusses the possibilities and advantages of using interactive methods in mathematics lessons.

Key words: school, education, interactive, teacher, pupil, spiritual-moral education, lesson, method.

Bugungi kunda mamlakatimizda boʻlayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim- tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar "Milliy dastur"imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun oʻqituvchisini yanada koʻproq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega boʻlishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta oʻrgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur koʻlamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bogʻliqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulugʻ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bogʻliqdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab



voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim

jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Bunda uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Ta'lim jarayoni o'quv materialini mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi.

Aynan darsning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish, hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.



Fizika sohasida malakali qadrlar tayyorlashning innovatsion texnologiyalar. Xorazm viloyat Urganch shahar 8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabning fizika fani o'qituvchisi Xojaboyeva Sadoqat Abduraxmonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fizika fanining o'qitish ishlatiladigan zamonaviy metodlar hamda Fizika sohasida malakali qadrlar tayyorlashning innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Fizika, zamonaviy kompyuter texnologiyalar, innovatsion metodlar, interfaol metodlar, atom fizikasi.

Fizika (grekcha — „tabiiy“, (physis) — „tabiat“) tabiiy borliq haqidagi fan bo'lib, tabiatning eng keng tarqalgan qonunlari, modda, uning tuzilishi, harakati va o'zgarish qoidalarini o'rganadi. Fizika bu tabiiy fandır, lekin undagi qonuniyatlar va hisob-kitoblar aniqlikka asoslangan. U quyidagi asosiy qismlardan iborat:

Klassik mexanika

Elektrodinamika va klassik maydon nazariyasi

Kvant mexanikasi

Statistik fizika va Termodinamika

Optika va Spektroskopiya

Molekulyar fizika

Atom fizikasi

Kvant maydonlar nazariyasi

Gravitatsiya va Kosmologiya

Kalibrlangan maydonlar va Supersimmetriya.

Fizika fani eksperimental va nazariy fizikaga bo'linadi. Eksperimental fizika tajribalar asosida yangi ma'lumotlar oladi va qabul qilingan qonunlarni tekshiradi. Nazariy fizika tabiat qonunlarini ta'riflaydi, o'rganiladigan hodisalarni tushuntiradi va yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldindan aytib beradi.[1]

O'rganilayotgan ob'yektlar va materiallarning harakat shakllariga qarab, fizika fani bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, atom va molekulyar fizikasi, gaz va suyuqliklar fizikasi, qattiq jismlar fizikasi, plazma fizikasi bo'limlaridan tashkil topgan. O'rganilayotgan jarayonlarga va materiyaning harakat shakllariga qarab, fizika moddiy nuqta va qattiq jism mexanikasi, termodinamika va statistik fizika, elektrodinamika, kvant mexanika, maydon kvant nazariyasini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy fizika, shuningdek, kvant fizikasi deb ham ataladi. 1900 yilda kvant nazariyasi va 1905 yilda nisbiylik nazariyasi, 20-asrdan boshlab yorug'likning qanday tarqalishi haqida noma'lum narsa hal qilindi va bugungi kunda zamonaviy fizika sifatida



biz biladigan narsalar paydo bo'ldi. Klassik yoki Nyuton fizikasi tug'ilishi paytida yorug'lik zarracha yoki to'lqinmi degan bahslar mustahkam poydevor topa olmadi. 1900 yilda Maks Plank (1858-1947) kvant atamasini kiritdi (kvant qorong'u tanada joylashgan nurlanishni tushuntirish va o'lchash uchun zarrachadagi minimal energiya sifatida). Fizik Maks Plank yorug'lik energiya paketlarida tarqalishini va har bir paketning energiyasi Plank konstantasida aniqlangan to'lqin uzunligiga teskari proporsional deb da'vo qildi. Boshqa tomondan, Albert Eynshteyn 1905 yilda o'z nisbiylik nazariyasi bilan vaqt va makon nisbiy ekanligini ta'kidlab, yorug'lik tezligi tabiatning asosiy doimiysi ekanligini ta'kidlaydi. Shu tarzda, Eynshteyn Plankning yorug'likning energiya zarralari sifatida tarqalishi haqidagi g'oyasini kuchaytiradi va bu zarralar har doim yorug'lik tezligida harakatlanadigan fotonlar ekanligini tasdiqlaydi. Fotonlar yorug'lik tezligida harakatlanishi uchun ularning massasi har doim 0 ga teng bo'ladi, chunki agar zarracha massiv bo'lsa, harakat qilish uchun cheksiz energiya kerak bo'ladi, chunki Nyutonning klassik fizikaning birinchi qonuni tomonidan e'lon qilingan. Shuning uchun faqat massasiz zarracha yorug'lik tezligida harakatlanishi va cheksiz energiyaga ega bo'lishi, shu bilan elektromagnit maydon kvantini belgilashi mumkin. Kvant mexanikasi deb ham ataladigan zamonaviy fizikaning asosiy postulati shuni ko'rsatadiki, materiyani tashkil etuvchi elementar zarrachalar to'lqin va zarracha xususiyatlariga ega. To'lqin-zarrachalar ikkilikligi shu tarzda tabiatning atom darajasidagi asosiy xossasi bo'lib, zamonaviy fizikaning asoslarini belgilaydi, atom va subatomik darajadagi xatti-harakatlarini, xususiyatlarini va nurlanishini o'rganish sifatida tushuniladi. nafaqat kundalik narsalar, klassik fizikani o'rganish sohasi.[3] O'qitish texnologiyasi – o'qitishning maqsadiga yetish uchun tanlab olingan metodlarni, vositalarni turli shaklda qo'llash, boshqacha aytganda, talabalarga bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirishning unumli yo'lini ifodalaydi. Bunda xom-ashyo -talaba hisoblanadi. Uni ishlatish – o'qitish jarayonini tashkil qilish.[2]

Bugungi kun fizika o'qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta'limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o'qitish amaliyotida qo'llashdir. Fizika o'qituvchisi o'quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishilsin. O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak. Darsni yangi pedagogik texnologiyalar:

- axborot vositalaridan foydalanib;
- ko'rgazmali qurollari yordamida;
- interfaol metodlarni qo'llash orqali;

va h.k.lardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi.[3] O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi. An'anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyati, bilimni nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash fizika fani



o'qituvchidan katta pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida o'quvchilarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi va shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan. Shu tajriba asosini tashkil qiluvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib, bu metodlarni dars jarayoniga qo'llay bilish bugungi zamon fizika o'qituvchisi zimmasiga yuklatilgan yuksak vazifadir. Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natija(samara)ning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to'g'ri baholay olishiga bog'liqdir. Har bir o'tiladigan darsda ta'limning aniq maqsadining belgilanishi o'qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo'yicha o'qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Fizika fan sifatida o'tilgan vaqtdan boshlab fanning ma'lumotlar bazasi ko'payib katta hajmni tashkil etmoqda va u yuqori tezlikda yil sayin boyib boryapti. Shu sababdan fizikani o'tish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma'lumotlar hajmini miqdoriy o'lchamga keltirish zarur. Ta'lim tizimida multimediali elektron o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar virtual laboratoriya ishlari, har hil animatsion dasturlar slaydlar yaratishda kerak bo'ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Ta'lim tizimida yuqorida keltirilgan dasturlarda tayyor modellar mavjud bo'lib bunda foydalanuvchi boshlang'ich parametrlarni kiritib bir necha turkum ishlarni (laboratoriya, yong'in xavfsizligi masalalarini tahlil qilishda, taqdimot ma'ruzalarida animatsiyalar) dan keng foydalanishi mumkin.[4] Fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradigan dasturlariga: MatCad, MatLab, Maple, Crocodile, Physics, Electronics Workbench va boshqa dastur paketlarini misol keltirish mumkin. Axborot texnologiyalarning imkoniyatidan foydalangan holda kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida foydalanish o'zining samarasini beradi. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish uchun axborot texnologiyada fizik bilimlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, modellashtirishning o'ziga xos muhim tomonlari shundaki, turli xil asboblari tayyorlash shart emas, hodisalarni jonli va tabiiy ko'rinishda tasvirlash, tajribani oz fursat ichida istal-gan paytda takrorlash, kuzatish qiyin bo'lgan va umuman kuzatilishi mumkin bo'lmagan jarayonlarni ham namoyish eta olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kompyuter dasturini qo'llash orqali o'tilgan mashg'ulotlar oddiy mashg'ulotlardan ko'ra yaxshiroq samara beradi.

Xulosa:

Fizika fanini o'qitishda kompyuter dasturlaridan foydalangan holda, animatsiyali mashg'ulotlar olib borish o'qituvchi va tinglovchiga qulaylik yaratib, fizik jarayonlarning yuz berish mexanizmlari va bosqichlarini tushunib yetishda yaxshi samara beradi. Fizik jarayonlar mexanizmlarini, ularni ma'ruza, amaliy va ayniqsa tajriba mashg'ulotlarida namoyish etish va bu holatlarni kompyuter texnologiyalariga tayangan holda olib borish o'qitish jarayonida tinglovchilarga bilim berish va fan asoslariga doir ko'nikmalar hosil qilish samaradorligini oshiruvchi omillari bo'lib hisoblanadi. Fizika fanini o'qitish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarini idrok etishga olib keladi, mavzuni o'rganishga qiziqishni uyg'otadi, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini yaxshilaydi. Kompyuter materiallari o'qituvchini to'ldirishi, yangilanishi,



turmush tarzi bo'lishi mumkin bo'lgan yagona o'quv vositalarining zarur bir qismidir. An'anaviy ta'lim bilan solishtirganda innovatsion texnologiyalarni birlashtirishning afzalliklari xilma-xil. Ularga, bilimlarni samarali sinovdan o'tkazishdan tashqari, ishlab chiqarish va mantiqiy fikrlashdan va boshqalarni sinab ko'rish va boshqalarga tegishli, uslubiy shakllarning xilma-xilligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'quv jarayoniga kompyuter texnologiyasini birlashtirish, siz quyidagilarni ta'minlashingiz mumkin:

Kompyuter bilan aloqaning o'ziga xos xususiyatlari va ixtisoslashtirilgan dasturlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari tufayli konstruktiv, algoritmik fikrlash;

Aqlli o'quv tizimlari va modellashtirish dasturlari o'rtasida vazifalarni bajaradigan reproduktiv faoliyatning mazmunini o'zgartirib ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

Shu kabi metodlardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo`rayev. M —Fizika o`qitish metodikasi Toshkent:. —Abu matbuot konsalt 2015.
2. Jo'raev O.B. Molekulyar fizika. - Samarqand: SamDU, 2004.
3. Mirzaxmedov B.M. va bosliq. Fizika fanini o'qitish metodikasi.-T.. 2010.
4. Baydayev .A —Klassik statistik fizika– T:. Iqtisod moliya, 2003



АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ (Актуальные проблемы современной лингвистики)

БухМТИ Самандарова Д.И кафедрa русского языка и литературы

Ключевые слова: метод, перевод, язык, информация, коммуникативный, проблема специфика, формирование, методика, аспект.

Аннотация. Перевод как специфический прием может быть использован при различных условиях, формах и профилях обучения в языковой среде и вне её, при обучении филологов и нефилологов, при различных системах обучения, отличающихся конечными целями (репродуктивный и продуктивный билингвизм). Перевод обеспечивает осмысление глобально предъявляемой информации на изучаемом языке посредством родного.

Key words: method, translation, language, information, communicative, problem specificity, formation, methodology, aspect.

Annotation. Translation as a specific technique can be used under various conditions, forms and profiles of learning in the language environment and outside it, when teaching philologists and non-philologists, with different learning systems that differ in ultimate goals (reproductive and productive bilingualism). Translation provides comprehension of globally presented information in the target language through the native language.

Kalit so'zlar: usul, tarjima, til, axborot, kommunikativ, muammoning o'ziga xosligi, shakllanish, metodika, aspekt.

Annotatsiya. Tarjima o'ziga xos uslub sifatida til muhitida va undan tashqarida o'rganishning turli sharoitlari, shakllari va profillarida, filologlar va filolog bo'lmaganlar uchun, pirovard maqsadlarda (reproduktiv va mahsuldor ikki tillilik) bir-biridan farq qiluvchi turli xil ta'lim tizimlari bilan ta'lim berishda qo'llanilishi mumkin. Tarjima global miqyosda taqdim etilgan ma'lumotni maqsadli tilda ona tili orqali tushunishni ta'minlaydi.

Перевод есть лингвистический процесс в ходе которого при порождении текста реализуются объективные семантико-стилистические соответствия. Переводчик должен обладать развитой переводческой интуицией, в основе которой лежит навыки переключения с одного языка на другой. Формирование этих навыков осуществляется в рамках определенной темы на основе объединения аналогичных семантических подсистем языка перевода и языка оригинала.



Проблема совершенствования процесса обучения русскому языку в высших учебных заведениях сложна и многоаспектна, она связана с решением вопросов подготовки квалифицированного преподавателя с одной стороны, и определением содержания форм методов и средств обучения с другой.

Одним из аспектов работы со студентами на продвинутом этапе обучения русскому языку является профессиональный перевод. Перевод является сложным видом речевой деятельности для студентов изучающих русский язык.

Перевод как вид языковой деятельности есть сознательный процесс перекодирования сообщения на исходном языке – языке перевода. В основе перекодирования лежит целенаправленный выбор языковых средств.

Не следует также забывать, что студенты нефилологи имеют лишь поверхностное представление о теории общего и частного перевода, слабо знакомы со способом сопоставления языкового материала. Их необходимо ввести в курс проблем чисто профессионального характера. Этим задачам служат лекции на такие темы:

- перевод как объект лингвистического исследования;
- способы и приёмы перевода;
- особенности общественно-политического стиля речи в сопоставительном плане;
- особенности научного и делового стиля речи в сопоставительном плане и т.д.

Обучение русскому языку имеет свою специфику, отличную от специфики преподавания родного языка. При преподавании родного языка деление коммуникативных приемов на характеризованные и нехарактеризованные играет второстепенную роль. При обучении родному языку выбор коммуникативных приемов в зависимости от учебных целей определяется одной только коммуникативной спецификой, значимостью коммуникативных приемов для конкретных целей данной формы преподавания. При обучении же русскому языку к коммуникативной значимости прибавляется чисто языковой момент-необходимость овладеть системой чужого языка, в частности теми его элементами, которые отличны



от родного языка студентов. Вот на этом этапе перевод используется на всех стадиях работы под языковым материалом: при введении, закреплении, тренировке, а также при контроле знаний и умений студентов. Сопоставление структур изучаемого языка с родным, реализуемое в форме перевода, на этом этапе особенно важно, поскольку служит отправной точкой формирования языкового сознания. Сопоставление создает у студентов представление о структурной специфике изучаемого языка, дает преподавателю возможность учесть действительные трудности в русском языке для студентов, устанавливает истинную причину ошибок и тем самым делает процесс учения и обучения целенаправленным.

Перевод по совокупности функциональных характеристик и требований к уровню адекватности может быть подразделен на профессиональный и учебный. Профессиональный перевод является самостоятельным и главным предметом обучения при подготовке переводчиков-профессионалов. Подготовка профессиональных переводчиков включает знания в области теории перевода и сопоставительной грамматики, а также формирование навыков и умений в различных видах и формах перевода (при том, что специализация может осуществляться по какому-либо одному виду перевода, например по устному синхронному переводу).

Учебный перевод – средство формирования коммуникативной компетенции. Далее, перевод, умело и целенаправленно используемый в учебном процессе, может показаться эффективным методическим приемом превращающим стихийный неосознанный перенос в перенос осознанный, управляемый.

Практика показывает, что перевод с родного языка на русский относится к числу наиболее трудных и в то же время самых полезных видов творческих упражнений. Он активизирует все знания студентов, заставляет их использовать приобретенные языковые сведения. Например: - упражнения на развитие и совершенствование навыков в различных видах речевой деятельности;

- аудирование: перевод под диктовку преподавателя;

- говорение: (подготовительные задания) составления предложений по словам, структурам, трудным для носителей данного языка;



- чтение: передача основной информации на языке перевода после чтения текста на языке оригинала, для включения в текст перевода (расширение информации текста: устное аннотирование текста, прочитанного на русском языке);

- письмо: полный перевод, реферативный перевод текста с элементами оценки аннотации к тексту. Для развития навыка письменного перевода следует научить студентов делению текста на речевые сегменты, содержащие основную информацию. Это поможет студентам в логической последовательности передать его содержание с использованием средств организации связного текста, соответствующих смысловым отношениям между частями информации.

Необходимые пояснения даются также и на практических занятиях. Преподаватели должны восполнить имеющиеся проблемы в обучении, что поможет студентам успешнее заниматься переводом. В аудитории выполняются устные предтекстовые задания лингвометодического и переводческого характера, устный перевод текста с листа и с предварительной подготовкой, а также редактирование письменного перевода, выполненного в форме домашнего задания: обобщение информации двух и более текстов, расширение информации письменного текста дополнительными данными, воспринятыми со слуха. Следует подчеркнуть, что переводить – это не значит приводить к каждому слову оригинала соответствующий эквивалент на другом языке, взятый из словаря. Необходимо прежде всего понять и вникнуть в смысл всей переводимой фразы, а затем воссоздать этот смысл на языке перевода, в соответствие с нормами этого языка.

Перевод по совокупности функциональных характеристик и требований к уровню адекватности может быть подразделен на профессиональный и учебный. Профессиональный перевод является самостоятельным и главным предметом обучения при подготовке переводчиков-профессионалов. Подготовка профессиональных переводчиков включает знания в области теории перевода и сопоставительной грамматики, а также формирование навыков и умений в различных видах и формах перевода (при том, что специализация может осуществляться по какому-либо одному виду перевода, например по устному синхронному переводу).



При обучении родному языку выбор коммуникативных приемов в зависимости от учебных целей определяется одной только коммуникативной спецификой, значимостью коммуникативных приемов для конкретных целей данной формы преподавания. При обучении же русскому языку к коммуникативной значимости прибавляется чисто языковой момент-необходимость овладеть системой чужого языка, в частности теми его элементами, которые отличны от родного языка студентов. Вот на этом этапе перевод используется на всех стадиях работы под языковым материалом: при введении, закреплении, тренировке, а также при контроле знаний и умений студентов.

Литература:

1. Андриенко Е. В. Педагогический профессионализм. Монография.- Новосибирск: “НГПУ”, 2011
2. Артамонова Е. И. Модернизация педагогического образования России в условиях XXI века // Язык и актуальные проблемы образования. Научные труды IV Международной научно-практической конференции 18 января 2019 г., - М: “НИУ МГОУ”, 2019
3. Асадов Ю. О структурной сущности новой педагогической технологии.-Т:2009
4. Выразительные средства языка: учебное пособие. - М: “Академия”, 2009
5. Герасименко Н. А. Русский языка как основа преподавания в России.-М: “Педагогическое образование и наука”, 2019. С-1
6. Русский язык и культура общения для нефилологов: учебное пособие. - Саратов, 1998
7. Щукин А. Н. Методика обучения русскому языку как иностранному. - М, 1990



O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

Yuristlar malakasini oshirish markazi mas’ul xodimi

Tolipova Mohlaroyim Abdurasul qizi

MILLAT QUDRATI – UNING TILI VA YOZUVIGA HURMATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va yozuvning millat taqdiriga aloqasi, uning qudratini belgilovchi muhim vosita sifatidagi ahamiyati to‘g‘risida mulohaza yuritilgan. Tilning mavqeyini oshirishga to‘siq bo‘ladigan omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: til, yozuv, xalq madaniyati, millat qudrati, davlat tili, imlo.

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, hozirgi kunda ushbu til yer yuzi aholisining qariyb 50 milliondan ko‘prog‘i uchun asosiy muloqot vositasidir. Shunday ekan, tilimizning mavqeyiga qaratiladigan e‘tibor ertangi avlodning kelajagi haqida qayg‘urishimizning muhim asosi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqei va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanilishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu fikrimizning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: “Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqclariga quloq tutsin”. Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyati, azaliy qadriyatlarini, shuningdek, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida e‘tibor qaratishi tabiiy.

Rivojlangan davlatlarning xalqi o‘z tillariga va yozuviga chuqur hurmatda bo‘lgani bois hech bir istisnosiz dunyo hamjamiyatida nufuzini mustahkamlab oldi. Bu xalqning Vataniga bo‘lgan sadoqati, millatning dil birdamligi nishonasidir. Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyati, azaliy qadriyatlarini, shuningdek, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor vazifa sifatida e‘tibor qaratishi tabiiy.



Millat taqdirini hal qiluvchi tilimizning bebaho qadriyat ekanligini kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish katta avlod uchun ham farz, ham qarzdir. Milliy tilimizning mavqeyi va sofligini saqlash, e'zozlash, o'zbek tilining davlat tili sifatida, eng avvalo, mamlakatimizda, qolaversa, dunyo miqyosida nufuzi, obro'yini oshirish xalq vakillarining xolis niyatiga bog'liq.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosidagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligini nishonlash arafasida 2019-yil 21-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonga muvofiq Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, shuningdek, hukumat qarori bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, muassasa va boshqa tashkilotlarda qonun hujjatlaritga rioya etilishi, o'zbek tilini rivojlantirishni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi.

Bizning shonli o'tmishimizdan hikoya qilguvchi qadimiy bitiklarimiz bor. Afsuski, ular moziy talato'plari bois o'z joylarini boshqa imlolarga bo'shatib berishlariga to'g'ri kelgan. Ming yildan ziyod vaqt davomida arab, keyin esa lotin va kirill yozuvlaridan foydalandik. Garchi ona tilimiz boshqa xalqlarning «imloviy libosi»ni kiygan bo'lsa-da, o'z ziynatini yo'qotmadi, ruhini asrab qoldi.

Yozuvning paydo bo'lishi kishilik jamiyati yaratgan eng yirik madaniy kashfiyot hisoblanadi. Insoniyatning qo'lga kiritgan eng yirik davrga xos madaniy obidalar yig'indisi, fikriy natijalarning hozirgi davrga yetib kelishida yozuvning roli kattadir. Agar yozuv bo'lmaganda, qadimgi ajdodlarimizdan qolgan meros, ular yaratgan ijodiy yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan bo'lar edi. Yozuvning yaratilishi, unung takomillashtirilishi, jamiyat taraqqiyoti, eng muhimi adabiy tilning rivojlanishini tezlashtirish hisoblanadi. Agar yozuv bo'lmasa, til evolyutsiyasi to'grisida bizda hech qanday tasavvur bo'lmasligi mumkin edi. Faqat yozuv borligi uchungina, biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish sharafiga muayassar bo'lamiz. Ba'zi tillarning hanuzgacha yozuvi yo'q. Amerika qit'asi mahalliy



aholisining ko'pchilik tillarini bunga misol tariqasida ko'rsatish mumkin. Inqilobgacha Rossiyada yashovchi kam sonli millatlarning o'z yozuvlari yo'q edi.

Markaziy [Osiyodagi xalqlar](#), shu jumladan, o'zbek xalqi behad ko'hna yozuv madaniyatiga ega. Ular qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelganlar. Bu o'rinda so'g'd, O'rxun-Yenisev (runik), uyg'ur, arab yozuvlarini esga olish kifoya. Hozir dunyoda eng keng tarqalgan yozuv lotin yozuvidir, bu yozuvdan dunyo aholisining 30 foizi foydalanadi. Ana shulardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yilning 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Bugungi kunda bu ishlarning tadrijiy davomi sifatida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etishni yanada takomillashtirish bo'yicha amaldagi qonun hamda hukumat qarorlari yanada mustahkamlanmoqda.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, barcha davlat organlarida davlat tilida ish yuritish shart qilib qo'yildi. Davlat organlarida rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tilida ish yuritishni rivojlantirish bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy qilindi.

O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida 2020 yil 20 oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini



rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. 2020 yil 10 aprelda esa Davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni imzolanib, 21-oktabr - O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

Til va yozuvni millat qudrati sifatida e‘tirof etar ekanmiz, bir haqiqatga nazar tashlamasdan ilojimiz yo‘q. Turli savdo do‘konlari, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlari peshlavhalari, reklamalarda turli xil uslubiy g‘aliz, hattoki ta‘lim muassasalaridagi peshlavhalarda imloviy xatolarni ko‘rishimiz mumkin. Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga ma‘nosiga e‘tibor qaratmasdan xorijiy tillarda nom berish urfga kirib bormoqda. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining 20-moddasida “Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e‘lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimai berilishi mumkin”; 22-moddasida “Respublikaning ma‘muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi”, — deb qayd etilgan.

Taniqli rus tarixchisi A.P.Grigorev tadqiqotlarida XIII-XIV asrlarda Oltin O‘rdada so‘zlashuv va yozuv tili sifatida qipchoq lahjasi qo‘llanilgan bo‘lsa-da, rasmiy yozishmalar va adabiy matnlar chig‘atoy lahjasi, ya‘ni eski o‘zbek tilida yuritilganligini qayd etadi. Ko‘rinadiki, qadimdan o‘zbek tilida buyuk allomalarimiz nafaqat zavq-u shavq bilan ijod qilgan, balki rasmiy til sifatida ham millat tilining nufuzini saqlab qolishga harakat qilganlar. O‘z vataniga, millatiga bo‘lgan sadoqatini ona tili orqali ko‘rsatishga intilganlar, o‘z tili va yozuvi mustaqilligi, mustahkamligiga ega bo‘lgan davlat dunyo xalqlari nigohida turgan. Shu o‘rinda statistik ma‘lumotlarga e‘tibor qaratsak: dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma‘no va jozibadorligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olim, professor A. M. Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb bejiz ta‘kidlamagan edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, tilni sevish, uni ardoqlash millatni sevish va uni ardoqlash bilan teng hisoblanadi. Zotan, muhtaram Prezidentimiz aytib o‘tganlaridek: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom



va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qadrlashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”. Shundagina biz o‘zbek tilini rivojlantirishga va yozuvimizni millat qudratini namoyish etuvchi vosita sifatida buyuklashuviga ulkan hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent sh.,1995-yil 21-dekabr,167-i-son.
2. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent sh.,2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son.
3. Boymatova U., Sobirjonova D., Sagdieva S. Ish yuritish asoslari. O`quv qo`llanma. - T: TMI, 2004. 87 b.
4. www.ziyouz.com.



14-YANVAR VATAN HIMOYACHILARI KUNI. HARBIY VATANPARVARLIKNING MILLIY JIHLARI

Kojekeeva Kalka Baymurotovna

NMPI akademicheskij litsey

Annotatsiya: Maqolada vatanparvarlik tarbiyasi muammosi o‘zbek tarixining milliy va madaniy tajribasi prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi. Vatanparvarlik fenomeni Vatan manfaatlari yo‘lida o‘zining faol ijtimoiy ahamiyatiga ega, insonning anglashida mujassam etgan barcha makro xususiyatlarini rivojlanishining eng yuqori darajasiga asoslangan jamiyatning eng muhim, doimiy qadriyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, mustaqillik, davlat, tarix, milliy ong, milliy madaniyat.

KIRISH

Milliy mustaqillikni yanada mustaxkamlash, ajdod-avlodlar vorisligini ta‘minlash har bir xalq va har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyotini bardavonligini ta‘minlashning zaruriy talabidir.

Bu masala-siyosiy-huquqiy tabiatga ega va tarixiy ahamiyat kasb qiladi. Vatanparvarlik har bir mustaqil davlat va mustaqil davlat siyosatining ajralmas qismi va bugungi notinch zamonda esa ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Chunki, XX-asrning so‘ngiga kelib jahonda ikki qutbli jahon siyosiy tartibi garchi parchalanib ko‘p qutbli, ko‘p variantli, ilmiy tilda ifodalaganda sinergetik porodigmaga yo‘l ochilsa-da, yetakchi jahon dalatlarining dunyoda gegemonlik uchun ekspansionistik va kosmolitik siyosatining yo‘qqa chiqara olmaydi. Bugun jahon miqyosida gegemon bo‘lish, yetakchilik qilish ruhiyati ayrim ilg‘or davlatlarning ruhiyatini tark etmadi. Buni jahonning turli nuqtalarida kuzatilayotgan mintaqaviy va lokal nizolar, fuqarolik urushlari, turli “rangli inqiloblar” tasdiqlab turibdi.

ASOSIY QISM



O‘zbekiston jahon xalqlari kabi xalqaro bozor munosabatlariga kirdi. Bu jarayon kun va yil sayin chuqurlashib va kengayib bormoqda. Yuqori turmush darajasiga erishish, “odamlar kabi” farovon hayot kechirish har bir fuqaroning oliy orzusi. Mustaqillikning o‘tgan 30 yil davomida aholini, ayniqsa moddiy vama’naviy himoyaga muhtoj qatlamlariga nisbatan izchil, manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya siyosati qo‘llanildi. Bu ham vatanparvarlikning bir ko‘rinishidir. Quruq “Vatan” degan so‘z bilan inson qoniqmaydi “Vatan”-insonni inson sifatida yashashi uchun zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar mavjud bo‘lgan ijtimoiy makondir. Vatanparvarlik inson tomonidan o‘zi tug‘ilib-o‘sgan, ta’lim-tarbiyaolgan, orzulari ushaladigan joy, xududdir. Uni inson sevadi vaqadiraydi, uni boshqa yurtlarga almashmaydi, uni rivojiga hissa qo‘shadi, yuksaltiradi, uni ichki va tashqi buzg‘unchi kuchlardan asraydi, himoya qiladi, lozimbo‘lsa jonini fido qiladi. Vatanni inson ongidan ko‘radi, sevadi. Shu bois “Vatan” va “Ona” tushunchalari savodli, ma’rifatli insonlar uchun sinonim, ayni tushunchalardir. Buni tuyish uchun inson milliy o‘zligini anglashi lozim bo‘ladi. Vatanparvarlik siyosiy o‘zlikning anglash xodisasi bilan bog‘liq oliy tuyg‘udir.

Vatanparvarlik ham milliy va ham umuminsoniy darajada-ma’rifatlilik, savodlilik va onglilik ifodasidir. Vatanparvarlik manqurtlik, xotirasizlik emas. Vatanni tanish, his qilish onasini tanish, his etishga teng xodisadir. Vatanparvarlik dunyoviy tushunchadir. O‘zbekistonda 2017 yildan e’tiboran vatanparvarlik, xususan harbiy vatanparvarlik masalasiga e’tibor kuchaydi. Bu ishda Prezident Shavkat Mirziyoevning tashabbuslari salmoqlidir.

Tinch, barqaror zamonda jang maydonlarida emas harbiy musobaqalarda yoshlarimizning vatanparvarligi sinaladi. Bugun harbiy o‘yinlarda O‘zbek jamoalarining tank biatlari, maxsus xizmat soxalari, radioqidiruv va boshqa soxalardagi ko‘rsatkichlari quvonarli-xalqaro harbiy musobaqalarda faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqdalar. Bunday yutuqlar ortida zamonaviy kadrlar tanlash va tarbiyalashdek zahmatli mehnat yotadi.

Bu yutuqda harbiy qo‘mondonlikning hissasi katta, jahon harbiy soxasidagihar qanday o‘zgarish va yutuq e’tiborsiz qolmaydi, o‘z vaqtida, tezkor innovatsiya, modernizatsiya siyosati olib borilmaydi. Bugun jahon harbiy eksportlarining ma’lumotiga



O‘zbekiston Qurolli kuchlari Markaziy Osiyo mintaqasida yetarlijangovar salohiyatga ega yetakchi harbiy kuchdir.

U har qanday turdagi harbiy xurujga yetarli javob bera olishga qodir. O‘zbekharbiy xizmatchilari shu ona Vatan mustaqilligi, yurt osoyishtaligi, xalqimizni xotirjam yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishini erkin, xadiksiramay davomettirishi, mamlakatimizni farovonligi yo‘lida mehnat qilishining ishonchligaroviga aylanmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

1. Vatanparvarlik-ijtimoiy, tarixiy xodisadir. Uning tarixi davlat va jamiyat ilk shakllanish davrlari bilan bog‘liq. Inson jamiyatda yashaydi va ulg‘ayadi. O‘z jamiyatini himoya qilish, barqaror hayot kechirishini ta‘minlash, tashqi xavf-xatarlardan muxofaza qilish insondanmuayyan siysiy savodxonlikni talab qiladi. Shu sababdan bo‘lsa kerak bugungi siyosatshunoslik-politologiyaning “ota” laridan biri, qadimgi yunon mutafakkiriodamga ta‘rif berar ekan, uni “siysiy hayvon” yoki siyosiy mavjudod dedi. Buning ma‘nosi-agar inson boshqaril-masa u o‘z instinktlari olamida qolib ketadi. Insonni inson qilgan asosiy omil-jamiyatdir.

Qadimgi polislar – shahar, davlatlarda “jamiyat” va “davlat” tushunchalari sinonim hisoblangan. Shu bois “vatanparvarlik” deganda ayni vaqtda davlat va jamiyat hayotiga, taqdiriga aloqadorlik, mansublik, ijtimoiy mavjudlik tushuniladi.

2. Vatanparvarlik milliy va umuminsoniy qadriyatdir. Buning boisi- jamiyat ma‘naviyat va axloq talablari bilan bog‘liq umuminsoniy fazilat ekanligidir. Tarixdan vatanparvarlik namunalari ko‘p bo‘lgan Vatanparvarlik nafaqat ilmiy manbalarda, balki xalq og‘zaki ijodi, folklor, etnomadaniyatda ham ulug‘lanadi. San‘at ham vatanparvarlikni yuksak insoniy fazilat va qadriyattarzida aks ettiradi.

3. Vatanparvarlik insonda o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Vatanparvarlik inson o‘zligini anglashi bilan bog‘liq xodisa hisoblanadi. O‘zlikni anglash ko‘p bosqichli va ko‘p darajali xodisadir. Inson o‘zligini anglashning eng yuqori, eng oliy bosqichi – siyosiy o‘zlikni anglashdir. Biz taxlil qilayotgan vatanparvarlik ayni shu bosqich bilan insonni ijtimoiy ishlarga, Vatan ravnaqi va taqdiriga dahldorlik xissini tadqiq qilish bilan bog‘liq.

4. Vatanparvarlik insonni ilmiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy va diniysavodxonligi, uni rivojlanishi bilan bog‘liq. Shu bois vatanparvarlik qat‘iy vamuntazam ta‘lim va tarbiyani



taqazo etadi. Vatanparvarlikning aloxida ko‘rinishi – harbiy vatanparvarlik. Aynan harbiy vatanparvarlik dunyoqarashi, e’tiqodi va immuniteti bugungi yosh avlodni milliy mustaqillik moxiyatini, qadrini va ahamiyatini anglashga ko‘maklashadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saifnazarov I. “Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jihat- lari”, – T: “Mexnat”, 2017. – B. 32.

2. Davron Axmedov, Anvar Qodirov, Mavluda Burieva “Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi o‘z kuch-qudratimizga, xalqimizning xamjixatligiga va bukulmas irodasiga bog‘liq”. O‘quv uslubiy tavsiya. Ma’sul muxarrir R.Qobulov-yuridik fanlari doktori. Professor. – T.: TDYuI, 2015. – B. 48.

3. Umid Bekmuxammad. Harbiy hiylalar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2018 Qo‘chqorov V. Milliy o‘zlikni anglash. T.: “Akademiya”.

4. Ibroxim Xo‘jamurodov, Muqaddas Abduraimova. Siyosat, din va milliy o‘zlikni anglash. T.: O‘zRFA. 2014



TAEKVONDOCHILARNING DASTLABKI TAYYORGARLIK JARAYONIDA MASHG‘ULOT TUZILISHINING ASOSLARI

Muxamedova Muxlisa Shukur qizi

20/301 gurux Ozbekiston Milliy Universiteti

Taekvando va sport faoliyati Fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada taekvondochilarning dastlabki tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulot tuzilishining asoslari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ilmiy nazariy yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom avlod, taekvondo, texnik-taktik tayyorgarlik, musobaqa.

KIRISH

Yurtimizda faol rivojlanib kelayotgan sport turlaridan biri taekvondo hisoblanadi. Yosh taekvondochilar sport mahoratining muvaffaqiyatli takomillashuvini ta‘minlovchi yo‘llarni izlab topish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Sportchilarni ko‘p yillik tayyorlashning umumiy qabul qilingan konsepsiyasi, yangi shug‘ullanuvchidan to‘ xalqaro klassli usta darajasiga qadar tayyorlashni, rivojlanishining ma‘lum bir xususiyatlariga va yo‘llariga ega bo‘lgan murakkab, o‘ziga xos tizim sifatidagi ma‘lum qonuniyatlarga bo‘ysinadigan yagona jarayon sifatida tushunishni nazarda tutadi.

Ko‘pchilik sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki fikrimiz dalilidir. Har xil sport turlari bo‘yicha O‘zbekiston termajamoalari alohida jamoa sifatida Olimpiya, Osiyo o‘yinlarida va jahon chempionatlarida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Maqolaning maqsadi taekvondochilarning dastlabki tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulot tuzilishining asoslari to‘g‘risida ilmiy nazariy yoritib berishdan iborat. Sinovdan o‘tuvchilarning jismoniy tayyorgarliklari darajasi to‘g‘risida, muallif tomonidan maxsus yo‘riq-noma berilgan yordamchilarni jalb qilish bilan, tajribaning boshida va yakunida standart sharoitlarda jismoniy qobiliyatlarini testlash o‘tkazildi. Testlashdan oldin maxsus



qizib olish mashqi o‘tkazildi. Testlashda har bir sinovdan o‘tuvchiga sinov urinishlari berildi. Ikkita urinishlarda eng yaxshi natija qayta ishlashgakiritildi.

Testlarni tanlash va qo‘llash paytida I.V.Aulik., V.M.Zatsiorskiy., M.A.Godik tomonidan berilgan tavsiyalardan foydalanildi [2].

Nazorat va tajriba guruhleri yosh taekvondochilari tayyorgarliklarining (texnik, taktik) boshqa tomonlarini yakuniy darajalarini testlash, muallif tomonidan maxsus yo‘riqnomaga berilgan yordamchilarni jalb qilish bilan, tajribaning boshida va yakunida standart sharoitlarda o‘tkazildi.

Kompleks tayyorgarlik darajalarini aniqlash va taqqoslash, nazorat va tajriba guruhleri sportchilari o‘rtasida sparringlar jarayonida muallif tomonidan maxsus yo‘riqnomaga berilgan yordamchilarni jalb qilish bilan, tajribaning boshida va yakunida standart sharoitlarda amalga oshirildi.

Pedagogik tajriba tabiiy sharoitlarda o‘tkazildi. Tajribada dastlabki tayyorgarlik guruhi sportchilari ishtirok etishdi ($n=15$ – tajriba guruhi va $n=15$ – guruhi). Ushbu sportchilar, o‘qishning birinchi yilida tadqiqot muallifining rahbarligi ostida shug‘ullanishdi. Mashg‘ulot jarayoni sog‘lomlashtiruvchi va umumiy mustahkamlovchi harakterga ega bo‘ldi. Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marta 45 daq.dan o‘tkazildi. Umumiy tayyorgarlik mashqlari bilan harakatli o‘yinlarning nisbati 1:1 bo‘ldi (ushbu yoshda an’anaviy qo‘llaniladi).

Nazorat va tajriba guruhidagi sinovdan o‘tuvchilar yoshlari bo‘yicha analogik bo‘ldi, tajriba o‘tkazilgunicha jismoniy tayyorgarliklari ko‘rsatkchilarida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Nazorat guruhidagi yosh taekvondochilar qat’iy reglamentlangan mashqlar usuli rejimida bajariladigan umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mashqlarini, individual va jamoaviy harakatli o‘yinlarni o‘z ichiga olgan, umumiy qabul qilingan uslubiyat bo‘yicha shug‘ullanishdi. Umumiy tayyorgarlik bosqichida, qat’iy reglamentlangan mashqlar usuli rejimida bajariladigan umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mashqlari, individual va jamoaviy harakatli o‘yinlari quyidagi nisbatda: 45% – 45% – 10%, maxsus tayyorgarlik bosqichida quyidagi nisbatda: 35% – 50% – 15%, musobaqa bosqichida quyidagi nisbatda: 20% – 60% – 20% qo‘llanildi.



Tajriba guruhidagi yosh taekvondochilarda jismoniy, texnik-taktik tayyorgarliklarini maqsadga yo‘naltirilgan shakllantirish uchun pedagogik ta’sirlar tizimi qo‘llanildi, u, o‘z ichiga quyidagilarni olgan:

- 1) tayyorgarlikning umumlashtirilgan sifat modellari bilan mos ravishda shakllantirilgan jismoniy, texnik, taktik tayyorgarliklari bo‘yicha pedagogik vazifalar;
- 2) ularni xal qilish vositalari (umumiy tayyorgarlik mashqlari mashqlari, maxsus tayyorgarlik mashqlari, maxsus tayyorgarlik mashqlari, modifikatsiyalashtirilgan harakatli o‘yinlar) umumiy tayyorgarlik bosqichida quyidagi nisbatda: 45% - 33% - 22%, maxsus tayyorgarlik bosqichida quyidagi nisbatda: 33% - 22% - 45%, musobaqa bosqichida quyidagi nisbatda: 10% - 10% - 80% qo‘llanildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy nazariyalar, sport amaliyotida mavjud qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, tadqiqotning ilmiy tashkil etilganligi bilan tasdikdanadi. Qo‘llanilgan tadqiqot uslublari majmuasi tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos keladi, katta daliliy materiallarning yuqori darajadagi ishonchliligi, to‘g‘ri ishlab chiqilganligi, tahlil qilinganligi bilan izodlanadi. Olingan natijalarning to‘g‘riligi va ishonchliligi, aniq hamda tadqiqot va pedagogik uslublarning qo‘llanilganligi bilan ta’minlangan. Tadqiqot natijalarining sifat jihatdan ta’minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari qo‘llanilganligi bilan belgilanadi [4,6]. Ushbu sharoitlarda, hozirda ommaviy tusga ega bo‘lgan erta ixtisoslashuv, kun tartibiga bolalarning murakkab xujum va himoya harakatlarini amalga oshirishga kobilyatliligi bilan bog‘lik bo‘lgan muammolarni qo‘yadi, shu vaqtning o‘zida, ushbu yoshda, ularda ixtiyoriy diqqatni konsentratsiya qilishga qobiliyati ham savol tug‘diradi. Ushbu yoshda, harakatlanuvchi ob’ektga adekvat murakkab reaksiyani shakllantirish muammosi murakkab hisoblanadi, bu sport yakkakurashlarida o‘ta muhim. Shundan kelibchiqqan holda, yakkakurashlar bilan shug‘ullanishni boshlash uchun ushbu yosh ancha oddiy hisoblanadi, deb taxmin qilish mumkin.

Kompleks tayyorgarlikning, musobaqa faoliyatini modellashtiruvchi modifikatsiyalangan harakatli o‘yinlarning asosiy usuli sifatida musobaqalar o‘rniga kompleks tayyorgarlikni qo‘llash, yosh taekvondochilarning jismoniy va psixologik holatlariga zararkeltirmasdan, ularning kompleks tayyorgarliklarini maksimal mumkin



boʻlgan darajasini shakllantirishga imkon berishi toʻgʻrisidagi taxmindan kelibchiqqan holda, biz tomondan, kompleks tayyorgarlikni shakllantirilishi uchun ikkita asosiy yondashuv amalga oshirildi.

Birinchi yondashuv – tahliliy:

Ikkinchi yondashuv – kompleksli:

XULOSA VA MUNOZARA

Yosh taekvondochilarni dastlabki tayyorgarlik jarayonida trenirovka mashgʻulotini tuzishdaharakatli oʻyinlar, asosan kuch, koordinatsion va tezkorlik qobiliyatiga taʻsir qiladi, mashgʻulotning birinchi va ikkinchi qismlarida rejalashtirilgan boʻlishi kerak. Birinchi navbatda moslashuvchanlikni rivojlantirish darajasiga taʻsir qiladigan oʻyinlar, shuningdek, charchoq paydo boʻlishidan oldin, agar iloji boʻlsa, birinchi qismning oxirida yoki ikkinchisida rejalashtirilgan boʻlishi kerak. Buning sababi, taekvondo sportchilariga texnikalarni samarali bajarish uchun yuqori darajadagi moslashuvchanlikni rivojlantirish kerak.

Taekvondo sportchilarining musobaqa faoliyati samaradorligiga sezilarli taʻsir koʻrsatadigan mashqlar paytida paydo boʻlgan charchoq qanchalik kuchliroq boʻlsa, faol egiluvchanlik darajasi shunchalik past boʻladi, passivlik esa shunchalik yuqori boʻladi. Mashgʻulotning ikkinchi qismida asosan chidamlilik rivojlanish darajasiga taʻsir qiladigan oʻyinlar dan foydalanish kerak, chunki birinchi qism muammolarini hal qilish natijasida paydo boʻladigan charchoq mashgʻulot vaqtidan oqilona foydalanishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport tugʻrisida”gi Konini (Yangi tahrir). – T. “Xalq suzi”, 2015 yil 5 sentyabr;
2. Mixaylova M. V. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabda oʻqishga psixologik tayyorgarligini shakllantirish uchun oʻyin faoliyatidan foydalanish muammolari / M. V. Mixaylova // Taʻlim va tarbiyaning psixologik asoslari: 26-ilmiy



konferentsiya materiallari / ed. A. N. Nikolaeva / SPbGAFK ularni. P. F. Lesgaft. - 2010. - S. 85-88 b.

3. Muntyan V.S. Qo'l jangi uchun maxsus tayyorgarlikni optimallashtirish: Dissertatsiya avtoreferati. dis... samimiy. Fanlar. - X: KHDAFK, 2016. - 20 b.

4. Ozolin, N.G. Zamonaviy sport mashg'ulotlari tizimi / N.G. Ozolin. M.: Fizkultura i sport, 2010. 488 b.

5. Platonov V.N. Olimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlashning umumiy nazariyasi. - K .: "Olimpiya adabiyoti". 2017. - 584p.

6. Safonkin S. N. Taekvon-do / S. N. Safonkin; SPb GAFK im. P; F. Lesgaft. - Sankt-Peterburg, 2011. - 181 p.



ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МОЛИЯВИЙ ҚЎЛЛАБ ҚУВВАТЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ

*Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
Машиарипов Шерзод Рустамович 1-босқич магистрант
Тошкент давлат аграр университети
1-босқич талабаси Мынбаева Айгуль Утепбергеновна*

Аннотация: Мақолада асосан қишлоқ хўжалигини молиявий қўллаб қувватлаш ва унинг механизмини яратиш, қишлоқ хўжалиги соҳасида иқтисодий ислохотларни амалга ошириш жараёнлари ҳақида айтиб ўтилган

Калт сўзлар: қишлоқ хўжалиги, молиявий қўллаб қувватлаш, иқтисодий ислохот, тижорат, инвестор, сармоя, рақобат

Аннотация: В статье в основном говорится о финансовой поддержке сельского хозяйства и создании его механизма, проведении экономических реформ в аграрном секторе.

Ключевые слова: сельское хозяйство, финансовая поддержка, экономическая реформа, торговля, инвестор, инвестиции, конкуренция.

Abstract: The article mainly talks about financial support of agriculture and creation of its mechanism, implementation of economic reforms in the agricultural sector.

Keywords: agriculture, financial support, economic reform, trade, investor, investment, competition

Агросаноат мажмуада халқ хўжалигининг 80 га яқин соҳаси бевосита ёки билвосита ишлаб чиқариш ва айланишнинг турли босқичларида қатнашади. Қишлоқ хўжалиги саноати мажмуи бу учта асосий йўналишдан иборат бўлган мураккаб, кўп тармоқли саноатнинг иқтисодий тизими.

Биринчи соҳада қишлоқ хўжалиги саноати мажмуи учун ишлаб чиқариш воситалари яратилади (машинасозлик, минерал ўғитлар, таъмирлаш, қурилиш ва бошқалар). Ушбу сектор якуний маҳсулотнинг 10 фоизини, асосий воситаларнинг 15 фоизини ва ишчилар сонининг 20 фоизини ташкил қилади.

Иккинчи йўналиш қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини товар массасида ишлаб чиқаришга қаратилган. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари 60 та соҳага маҳсулот етказиб беради. Ҳар бир қишлоқ хўжалиги ишчиси яна 5 кишини ташқи иш билан таъминлайди. Ушбу соҳада тайёр маҳсулотнинг 50 фоизи ишлаб чиқарилади, асосий ишлаб чиқариш фондларининг 65 фоизи ва қишлоқ хўжалиги ишчилари сонининг 60 фоизи захирада тўпланган.

Бу, шунингдек, Ўзбекистон Қишлоқ хўжалиги сектори иқтисодиётида иқтисодий ислохотларни амалга оширишни тақозо этди. Қишлоқ хўжалигида энг юқори самарага эришиш усулларини излаш усулларини амалга ошириш масаласи доимо аграр савдонинг диққат марказида туради, чунки қишлоқ хўжалигини ишлаб



чиқариш билан боғлиқ муаммолар бошқа соҳалар ва жамиятнинг ижтимоий ҳолатида кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради.

Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлашнинг меъёрий ҳуқуқий асосларига эътибор қаратадиган бўлсак, бу соҳада Ўзбекистонда кенг қамровли ислохотлар амалга оширилмоқда. Шулардан таъкидлаш лозим бўлган ўзгариш Вазирлар Маҳкамаси томонидан Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш жамғармасининг ташкил қилинганлигидир. Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқаришни барқарор ривожлантириш, қишлоқ хўжалик экинлари ҳосилдорлигини ошириш, давлат хариди учун қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштиришнинг самарали тизимини шакллантириш, шунингдек қишлоқ хўжалик корхоналарини юқори унумли замонавий техникалар билан таъминлашни тубдан такомиллаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббусига кўра «Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш Жамғармаси» ташкил этилди.

Жамғарма зиммасига юклатилган вазифаларни ўз вақтида ижросини таъминлашда, пахта толасини экспорт ва ички истеъмолчиларга сотишдан тушадиган бўнак, шунингдек улар юзасидан якуний ҳисоб-китоб қилишдан тушадиган маблағлар, тасдиқланган прејскурантдаги улгуржи нархлардан юқори бўлган маблағлар, тегишли йил ҳосили пахта толасини сотиш якунлари бўйича-ижобий тафовутнинг тўлиқ миқдордаги якуний суммаси ҳамда ун ва дон маҳсулотларини сотиш ва қайта баҳолашдан, шунингдек маҳсулотлар экспортдан тушган валюта маблағларини эркин биржа савдолари орқали сотишдан тушадиган маблағлар-жамғарма маблағлари шакллантиришнинг асосий манбаси этиб белгиланди.

Бу жамғарманинг асосий вазифаларидан бири бу қишлоқ хўжалиги корхоналарининг ҳосилдорлигини ҳамда даромадлилигини оширишга кўмаклашиш ҳисобланади.

Шунингдек қишлоқ хўжалигига сармоянинг етишмаслиги кўплаб муаммоларни келтириб чиқариши, масалан, иқлим ўзгариши хавфи, маҳсулот ва хизматларнинг нотўғри етказиб берилиши, мавсумий ва узок муддатли молиявий талаблар, мулкчилик ҳуқуқларининг заиф томонлари ва сиёсий ёндашувларнинг чуқур аралашуви ҳам бунга мисол бўла олади. Қишлоқ хўжалик маҳсулотларига глобал талабнинг тез ўсиши маҳаллий актёрлар ва амалиётчиларни молиявий менеджмент ва рискларни бошқаришнинг янги механизмларини ишлаб чиқишга ундади. Бизнес инвесторлари озиқ-овқат соҳасидаги тенденция ўсиб бораётгани сабабли қишлоқ хўжалиги корхоналарини динамик ва даромадли деб ҳисоблашмоқда, бу эса бозорларда истиқболнинг ўсишини кўрсатмоқда. Аксарият тижорат инвесторлари фақат молиявий даромадга эътибор қаратгани учун, давлат рағбатлантириши ва қўллаб -қувватлаши, шунингдек, маҳаллий қишлоқ хўжалиги корхоналари жамоасининг кучли интеграциясига қаратилиши керак.

Хулоса қилиб айтганда давлат томонидан қўллаб -қувватлашнинг иқтисодий механизмини амалга оширишни қонуний қўллаб -қувватлаш ҳолати қишлоқ хўжалигининг ривожланишига бевосита таъсир қилади. Бизнингча, механизмнинг



асоси бўлган иқтисодий манфаатлар тизими бозор талабини қондира оладиган рақобатбардош таклифни шакллантиришга йўналтирилган бўлиши керак. Бундай ҳолда, давлат, хусусий тадбиркорлик ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг охириги истеъмолчиси манфаатлари мувозанатини кузатиш зарур ҳисобланади.

Дастур доирасида давлат томонидан қишлоқ хўжалигини қўллаб-қувватлашдан аввал «қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиси» мақомига риоя қилиш керак. Замонавий қонунчиликга кўра, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари бу ўз даромадларида қишлоқ хўжалигининг улуши йилига 70% дан кам бўлмаган ҳолда, маҳсулот сотадиган ташкилот, тадбиркорлар ҳисобланади. Халқаро амалиётда умуман қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ва тартибга солиш мақсадида бюджет маблағлари олувчиларини аниқлашда табақалаштирилган ёндашув ҳам қўлланилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Борхунов Н., Родионова О. Как повысить платежеспособный спрос на внутреннем продовольственном рынке России: размышления и расчеты // АПК: экономика, управление, № 9, 2013
2. Алферьев В. Рынок ресурсов для села в условиях членства России в ВТО//АПК: экономика, управление, № 1, 2013
3. Труба А., Клишина М. Государственное управление аграрным сектором требует совершенствования. АПК: экономика, управление, 02/2014.
4. Абулқосимов Ҳ., Ҳамроев О. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисод-Молия, 2014



TDSHU, “Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati”

yo’nalishi 1-bosqich magistranti

Nizamova Mohidil Maxmud qizi

ZAMONAVIY DAVRDA GENDER TENGLIGI KONSEPSIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqola gender tengligi hozirgi davrda dolzarb muammolardan biriga aylanayotganligi va konsepsiyalarning ahamiyati muhim ekanligiga ba’g’ishlanadi. Bugungi kunda gender tengligi uchun kurash bor ekan, gender tengligi tushunchasi nimani anglatishi va undan qanday foydalanish kerakligi haqida ham munozaralar bo’lib kelmoqda. Ba’zida shunga o’xshash tushunchalar bir-birining o’rnida ishlatiladi - bunday tushunchalarni barcha ham to’laqonli tushuna olmaydi. Gender tengligiga muqobil sifatida nisbatan tez-tez ishlatiladigan tushuncha gender tengligidir. Shuningdek, maqolaning asosiy maqsadi gender tengligi va gender o’rtasidagi farqni aniqlashdir. Ushbu maqolada genderni hisobga olish va genderni o’zida ifodalash tushunchalarini farqlash lozimligi va gender va jins tushunchalari genderlikni ta’minlashning asosiy tamoyillari haqida batafsil to’xtalib o’tamiz.

Ushbu tadqiqot ishida event va qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada turli ekspertlar, olimlar fikrlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolada gender tushunchasi qiyosiy-tarixiy usuli orqali tahlil qilinishi bilan birga, gender tengligining xalqaro tashkilotlardagi mavqei ham alohida yoritildi.

Tayanch so’z va iboralar: Gender, jins, konsepsiya, ayollar teng huquqligi, gender barqarorlik, identifikator, BMT, CEDAW, ayollar huquqlari konvensiyasi.

Аннотация: Данная статья посвящена тому факту, что гендерное равенство становится одной из актуальных проблем и важности концепций. Сегодня, когда идет борьба за гендерное равенство, также ведутся дебаты о том, что означает концепция гендерного равенства и как ее следует использовать. Иногда похожие понятия используются взаимозаменяемо - не каждый может полностью понять такие понятия.



Концепция, часто используемая в качестве альтернативы гендерному равенству, - это гендерное равенство. Кроме того, основная цель статьи - определить разницу между гендерным равенством и гендером. В этой статье мы подробно остановимся на необходимости проводить различие между понятиями гендерного учета и гендерного выражения, а также основными принципами гендера и гендерными концепциями.

В данной исследовательской работе были использованы методы событийного и сравнительно-исторического анализа. Особое значение в статье имеют мнения различных экспертов и ученых. В статье анализируется концепция гендера с помощью сравнительно-исторического метода, а также освещается позиция гендерного равенства в международных организациях.

Ключевые слова: гендер, концепция, женское равенство, гендерная стабильность, идентификатор, ООН, CEDAW, феминизм, конвенция о правах женщин.

Annotation: This article is devoted to the fact that gender equality is becoming one of the current problems and the importance of concepts. Today, as there is a struggle for gender equality, there is also a debate about what the concept of gender equality means and how it should be used. Sometimes similar concepts are used interchangeably - not everyone can fully understand such concepts. A concept often used as an alternative to gender equality is gender equality. Also, the main goal of the article is to define the difference between gender equality and gender. In this article, we will dwell in detail on the need to distinguish between the concepts of gender consideration and gender expression, and the main principles of gender and gender concepts.

Event and comparative-historical analysis methods were used in this research work. The opinions of various experts and scientists are of particular importance in the article. The article analysis the concept of gender through a comparative-historical method, and also highlighted the position of gender equality in international organizations.

Key words: Gender, concept, women's equality, gender stability, identifier, UN, CEDAW, Feminism, women's rights convention.

Kirish.



Ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalarning teng huquqlari, majburiyatlari va imkoniyatlarini nazarda tutadi. Tenglik ayollar va erkaklar bir xil bo'lishini anglatmaydi, balki ayollar va erkaklarning huquqlari, majburiyatlari va imkoniyatlari ularning erkak yoki ayol bo'lib tug'ilishiga bog'liq emasligini bildiradi. Gender tengligi ayollar va erkaklarning turli guruhlarini xilma-xilligini tan olgan holda, ayollar va erkaklarning manfaatlari, ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinishini anglatadi. Gender tengligi ayollar muammosi emas, balki erkaklar bilan bir qatorda to'liq jalb qilinishi kerak. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik ham inson huquqlari muammosi, ham odamlarga yo'naltirilgan barqaror rivojlanishning dastlabki sharti va ko'rsatkichi sifatida qaraladi.

Klassik qarashlar tizimida gender tizimi binar tizim sifatida qaraladi: erkak (ota, boquvchi, jangchi) yoki ayol (ona, beka). Ularning har biri tashqi atributlar va ichki fazilatlar, sevimli mashg'ulotlar va ijtimoiy funksiyalarning o'ziga xos to'plamiga ega. Biroq, zamonaviy tadqiqotchilar genderlarning ko'pligini e'tirof etishadi. Shuningdek, bola tug'ilganidanoq uning genderi belgilanmaydi, yoki kattalar uni aniqlamaydi, balki bolaning o'zi yoshi ulg'ayishi va o'zini anglay boshlashi bilan yaratiladi. Buni gender tadqiqotchi klinik psixolog Diana Erenzaft ham ta'kidlaydi.¹⁴

Natijalar va muhokamalar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlaydi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlaydi. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtincha maxsus

¹⁴ Gadamer G. Istina i metod: Osnov filosofskoy germeneyvtiki. (Per. snem)/ Gans- Georg Gadamer. – M.: Progress, 1988.



choralar ko'riladi. Shaxslar ijtimoiy mavqei, jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlaridan qat'i nazar inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishsa, gender tengligi yuzaga keladi.¹⁵

Hozirgi davrda jins tushunchasiga turli xil qarashlar mavjuddir. Dunyo bo'ylab ko'p odamlar hali ham faqat ikkita jins - erkaklar va ayollar bor deb hisoblashadi. Bu gender ikkilik, faqat ikkita jins g'oyasi tug'ilishda tayinlangan jinsga asoslanadi. Jins biologik bo'lsa-da, jins ijtimoiy jihatdan qurilgan; jins bilan bir xil emas. Butun dunyoda, asrlar davomida ko'plab jamiyatlar va madaniyatlar ikki jinsdan ko'proq narsani tan oldilar. Masalan, Indoneziyadagi Bugi besh jinsni tan oladi. Insonning jinsi qanday idrok etilishi ko'pincha boshqalarning ularni qanday qabul qilishi va unga munosabatda bo'lishiga ta'sir qiladi va insonning jamiyatdagi mavqei haqida ma'lumot beradi. Ijtimoiy me'yorlar va gender bilan bog'liq kuch dinamikasi joylarga qarab o'zgarib turadi va vaqt o'tishi bilan o'zgaradi.

Dastlab feminism tushunchasi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish zarurdir. Bir so'zdan ko'ra, feminizm ayollarning erkaklarnikiga teng ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qiluvchi harakatdir. Uning birinchi hujjatlashtirilgan ishlatilishi 1837-yilda Fransiyada boshlangan, u yerda sotsialist Charlz Fyurje utopik kelajakda ayollarning ozodligini tasvirlash uchun "feminizm" dan foydalangan.¹⁶

1848-yil, Seneca Falls, Nyu-York, AQSh¹⁷. Birinchi ayollar huquqlari konvensiyasining tashkil topishi. Ayollarni qullikka qarshi konvensiyada nutq so'zlash taqiqlanganidan g'azablangan amerikaliklar Elizabeth Cady Stanton va Lucretia Mott Nyu-Yorkda o'z mamlakatlaridagi birinchi ayollar huquqlari konvensiyasida bir necha yuz kishini yig'ishdi. Ular birgalikda qarorlar deklaratsiyasida ayollarning fuqarolik, ijtimoiy, siyosiy va diniy huquqlarini talab qiladilar:

"Biz bu haqiqatlarni o'z-o'zidan ravshan deb bilamiz; barcha erkaklar va ayollar teng yaratilgan."

2.Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna_Genderlik tenglik tushunchasi va gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari_issn: 2181-4027_sjif: 4.995_pedagogs international research journal

¹⁶ UN/Women. Gender Equality Glossary. 2017.

¹⁷<https://interactive.unwomen.org/multimedia/timeline/womenunite/en/index.h/tmlgclid=C/jOKCQiA4uCcBhDdARisAH5/jyUkcq8iRzWkn/UabXBSbcY/YrfFypvFyhrkVWxDd4UFh-LrA OAetc98aAtVOEALw>.



“Ayniqsa, ayollarning saylov huquqi jamoatchilik tomonidan masxara bilan kutib olinmoqda” deya ta’kidlashgan.

Ikkinchi Jahon urushi vayronagarchilikdan so’ng, 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun tuzildi. Uning nizomi gender tengligini mustahkamlaydi:

“Biz xalqlar, erkaklar va ayollar teng huquqliligiga ishonchimizni yana bir bor tasdiqlaymiz”.

Bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish uchun poydevor qo’yish bo’yicha ko’p qadamlaridan biridir. 1946-yilda ayollar maqomi bo’yicha komissiya faqat gender tengligiga bag’ishlangan birinchi global hukumatlararo organga aylandi.¹⁸

Gender tengligi konsepsiyasi uzoq vaqtdan beri ayollar va erkaklar, qizlar va o’g’il bolalar uchun teng huquqlar, hayot istiqbollari, imkoniyatlar va kuchlarning afzal qilingan iborasi sifatida shakllangan. U 1979-yildagi “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish” to’g’risidagi konvensiyadan (CEDAW) 2015-yildagi barqaror rivojlanish maqsadlarigacha bo’lgan barcha asosiy xalqaro shartnomalarda qo’llanila boshlangan.¹⁹

CEDAW: "Ayollar huquqlari to’g’risida" deb nom olgan ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to’g’risidagi konvensiya (CEDAW) ayollarning inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan eng keng qamrovli xalqaro hujjatdir. Bunda 189 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyadan keyin BMTning inson huquqlari bo’yicha ikkinchi eng ko’p ratifikatsiya qilingan shartnomasidir.

2010-yilda BMT faqat ayollar huquqlarini himoya qiluvchi birinchi BMT agentligiga aylandi.

¹⁸ www///C: hot-issue-gender-equality-and-gender-eguity.

¹⁹ IBID



Shuningdek, genderga asoslangan zo'rvonlik - bu gender me'yorlari va rollaridan, shuningdek, ayollar va erkaklar o'rtasidagi teng bo'lmagan kuch munosabatlaridan kelib chiqadigan zo'rvonlikdir. Zo'rvonlik, ayniqsa, jinsi tufayli odamga qarshi qaratilgan va u ayollarga nomutanosib ta'sir ko'rsatadi. U jismoniy, jinsiy va ruhiy zararni (jumladan, oilada yoki umumiy jamiyatda qo'rqitish, azob-uqubat, majburlash yoki ozodlikdan mahrum qilish) o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi.

Xalqaro tashkilotlar aytadiki: "Ayollar va qizlar zo'rvonliksiz hayot va gender teng dunyoni xohlashadi."

Ba'zi mutaxassislar fikriga ko'ra, gender tenglik tushunchasi G'arbdan kirib kelgan tushuncha sifatida e'tirof etiladi. Biroq bu qarash to'laqonli o'zini oqlamaydi. Sababi, islom olamida, xususan, muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda mazkur tushuncha ayni shu nom bilan atalmasa-da, mohiyatan shu masalani ochib beruvchi alohida suralar mavjud.

"Mas, "Niso" – ayollar surasida, asosan, oila, turmush, meros masalalari, er-xotin huquqlari" bayon etilgan.

Gender tenglik uzoq tarixga ega bo'lib, diniy va dunyoviy olam bilan uzviy bog'liqligini anglatadi, shuningdek, o'z isbotini asrlar oshgan bo'lsada namoyon etib kelmoqda. Bugungi kunda gender tenglik qoidalarining diniy va huquqiy asoslari mavjud bo'lib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish kelgusi avlodlarga mustahkam poydevor yaratishimiz jamiyatimiz barcha a'zolarining yagona maqsadiga aylanishi lozim.²⁰

Xulosa.

Ko'rib chiqilgan masalalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro maydonda ham, milliy kontekstda ham gender tengligi inson huquqlari kun tartibi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchadir. Bundan tashqari, butun dunyo bo'ylab ayollar harakati tomonidan ayollar huquqlari uchun kurashda maqsadni belgilash uchun ishlatiladi. Gender tengligi asosiy e'tiborni ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar uchun imtiyozlar va ehtiyojlarga nisbatan adolatga qaratadi.

²⁰ Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna_Genderlik tenglik tushunchasi va gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari_issn: 2181-4027_sjif: 4.995_pedagogs international research journal



Aksiyadorlik, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash va gumanitar sohalarda turli odamlar guruhlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda resurslarni teng taqsimlashga ishora qiladi. Ushbu kontekstda gender tengligi - bu ehtiyojlarning gender tahlili zarurligini anglatadi, chunki ular ko'p jihatdan ayollar va erkaklar, o'g'il bolalar va qizlar uchun farq qilishi mumkin.

Biroq, gender tengligi tushunchasi gender tengligini inson huquqlari kun tartibidan ajratish, ayollar va qizlarning inson huquqlari haqida gapirishdan qochish uchun ham qo'llaniladi. Bu ayollar va erkaklarning bir-birini to'ldirishini ta'kidlaydigan, "alohida, lekin teng" haqida gapiradigan va jamiyatdagi ayollar va erkaklar uchun biologik rol va majburiyatlar haqida bahslashadigan konservativ aktorlar tomonidan qilinganligini unutmash kerak.

Foydalanilgan manbaalar ro'yxati:

1. Gadamer G. Istina i metod: Osnov filosofskoy germeneytiki. (Per. snem)/ Gans Georg Gadamer. – M.: Progress, 1988.
2. Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna_Genderlik tenglik tushunchasi va gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari_issn: 2181-4027_sjif: 4.995_pedagogs international research journal
3. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –T. "O'zbekiston", 2007.
4. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. –T. "O'zbekiston". 2003.
5. UN/Women. Gender Equality Glossary. 2017.
6. [www///C: hot-issue-gender-equality-and-gender-eguity](http://www.C: hot-issue-gender-equality-and-gender-eguity).
7. [www/https://interactive.unwomen.org/multimedia/timeline/womenunite/en/index.h/tml?gclid=C/jOKCQiA4uCcBhDdARisAH5/jyUkcq8iRzWkn/UabXBSBcY/YrfFypvFyhrkVWxDd4UFh-LrA OAetc98aAtVOEALw](https://interactive.unwomen.org/multimedia/timeline/womenunite/en/index.h/tml?gclid=C/jOKCQiA4uCcBhDdARisAH5/jyUkcq8iRzWkn/UabXBSBcY/YrfFypvFyhrkVWxDd4UFh-LrA OAetc98aAtVOEALw).



СУВ ТАЪМИНОТИ ТАҲЧИЛЛИГИДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

Кодиров Рахматилла Нўмонович

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнолигялар институти

Гидротехника ва мелиоратив иншоатлар ” кафедраси доценти

АННОТАЦИЯ

Ушбу ишда Андижон вилоятида сувнинг манбаларининг сарфини самарали ошириш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, янги навлар ва уларнинг кўрсаткичлари ҳақида маълумот берилган. Ўғитлаш ва суғориш жараени ҳақида гапирилган.

Калит сўзлар: манба, ресурс, нав, ҳосил, минерал ўғит.

РЕЗЮМЕ

В данной работе дается информация о эффективном использовании водных источников, о процессе производства сельскохозяйственной продукции, новых сортах и их показателях, а также о технологии подкормки минеральными удобрениями и полива в Андижанской области.

Ключевые слова: источник, ресурс, сорт, урожай, минеральные удобрения.

ABSTRACT

In this work, information is provided on the effective increase of water consumption and the cultivation of agricultural products, new varieties and their indicators. Fertilization and irrigation procedures are mentioned in the Andijan region.

Key words: source, resource, variety, yield, mineral fertilizer.

Бугунги кунда XXI аснинг энг глобал муаммоларидан бири - сув ресурсларининг ўта танқислигидир. Сув - ўта чекланган ресурс бўлиб, унинг



манбаларини эгаллаш ҳозирданок геосиёсатнинг зарурий омилларидан бўлиб, жахондаги кескинликлар ва можаролик вазиятларнинг сабабларидан бирига айланмокда. Дунё қишлоқ хўжалигида сув тақчиллиги шароитида экинларни илмий асосланган суғориш тартибларга амал қилиш бугунги кунда экинлар ҳосилдорлиги ортиши ва унинг сифатига ижобий таъсирини кўрсатмокда. Шу жиҳатдан сув ва ресурсларни тежайдиган замонавий илмий асосланган суғориш тартибларини, ҳамда ерларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш бўйича изланишлар олиб бориш долзарб ҳисобланади.

Республикада суғориш тизимлари сув манбалари ва насос станцияларидан фойдаланиш орқали амалга оширилади. Уларнинг самарадорлигини ошириш, уларнинг иш самарадорлигини таъминлаш бўйича қурилмалар ва технологияларни такомиллаштиришга қаратилган кенг қамровли чора-тадбирлар амалга оширилмокда. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги, 2018 йил 17 апрелдаги ПФ-5418-сон «Қишлоқ ва сув хўжалигини бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармонлари, 2021 йил «Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва ирригацияни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида»ги қарорлари ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъерий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга хизмат қилади.

Республикамизнинг турли тупроқ иқлим шароитларидан келиб чиқиб, такрорий соядан кейин кузги буғдойни суғориш тартиби ва меъёрларини ишлаб чиқиш, юқори ва сифатли дон ҳосили олиш орқали озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашга эришиш мумкин. Жумладан, Андижон вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида кузги буғдой навларини эгатлаб суғоришда назарий суғориш техника элементлари, суғориш тартиблари ва меъёрларини ўсиш, ривожланиш ва ҳосилдорлиги ҳамда унинг сифат кўрсаткичларига таъсири илмий асосланмаган. Ўзбекистон Республикасининг 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясидаги “Суғориладиган ерларда бошоқли дон етиштиришни янада кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш соҳасига интенсив



усулларни, энг аввало маҳаллий ер-иқлим шароитларга мослашган қишлоқ хўжалиги экинларининг бошоқли дон экиладиган майдонларда замонавий агротехнологияларни жорий этиш, айниқса ғаллачиликни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Мустақиллик йилларида мамлакатимиз сув хўжалигида жуда катта ўзгаришлар амалга оширилди. Жумладан, сув ресурсларини бошқариш тизими такомиллаштирилди, суғориш тармоқларининг техник ҳолатини яхшиланди, суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва уларнинг сув таъминотини ошириш борасида кенг кўламдаги ишлар олиб борилди. Сувни тежайдиган замонавий технологияларни жорий қилиш, автоматлаштирилган бошқарув ва кузатув тизимини ўрнатиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш ишларига кенг эътибор берилди. Ушбу тадбирлар натижасида бугунги кунда 43 минг га. майдонда томчилатиб, 46,4 минг га. майдонда эгатга плёнка тўшаб ва 34,0 минг га. майдонда ўқ ариқлар ўрнига илвучан қувурлар ёрдамида суғориш усуллари жорий этилди, 1 млн 200 минг га. ерларнинг мелиоратив ҳолати яхшиланди, кучли ва ўрта шўрланган ерлар майдони 149,4 минг га, сизот сувларининг сатҳи ерга яқин жойлашган майдонлар 302,9 минг гектарга камайди, 1 млн. 300 минг га. ернинг сув таъминоти яхшиланди, мелиорацияланган ерларда ғўза ҳосилдорлиги 3-4 ц/га ва буғдой ҳосилдорлиги 4-5 ц/га га ошишига эришилди.

Тадқиқот натижалари Андижон вилояти ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида кузги буғдой навларидан “Половчанка”, “Дурдона”, “Чиллаки” устида олиб борилган ишлар мўл ва сифатли дон ҳамда сомон ҳосили олишда мақбул маъданли ўғитлар меъёрлари ва самарадорлиги илмий асосланганлиги билан изоҳланган.

Суғориладиган ўтлоқи бўз тупроқларнинг агрокимёвий тавсифи.



Тупроқ намунаси олинган қатлам, см	Гумус, %	Умумий миқдори, %			Ҳаракатчан миқдори, мг/кг		
		азот	фосфор	калий	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
0-10	1,02	0,081	0,154	1,53	18,2	25,6	205
10-28	0,93	0,063	0,142	1,54	10,5	21,0	170
28-36	0,81	0,057	0,128	1,36	6,4	10,3	150
36-62	0,29	0,046	0,105	1,20	4,8	8,0	130
62-89	0,20	0,011	0,067	1,05	2,3	5,4	8,0

Тадқиқот натижаларининг илмий аҳамияти Андижон вилояти ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида кузги буғдой навларининг ўсув даври ва ривожланиш фазаларини ўтиш муддатларига, тулланишга, барг майдонига, фотосинтетик потенциалига, фотосинтез соф маҳсулдорлигига ҳамда дон ва сомон ҳосили, дон сифат кўрсаткичларига маъданли ўғитлар меъёрларининг таъсири аниқланганлигидан иборат.

Кузги буғдойнинг “Дурдона”, “Чиллаки” ҳамда “Половчанка” навларидан ҳам ишлаб чиқариш шароитида олиб борилган тадқиқот майдонимизда юқори дон ва сомон ҳосили олинган бўлсада, “Дурдона” ҳамда “Чиллаки” навидан биров паст натижалар олинди [2,3].

Изланишларимизда олинган таҳлил ва натижаларига асосан Андижон вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида МДХ давлатидан олиб келинган кузги буғдой навларига ўзимизда яратилган маҳаллий навлар рақобат қила олиши яна бир бор исботланди. “Дурдона”, “Чиллаки” навларини етиштиришда маъдан ўғитларни йиллик меъёрини N₂₀₀ P₁₂₀ K₁₂₀ кг/га миқдорда, “Дурдона”, “Чиллаки”, “Табор”, “Первица” навларида N₂₅₀ P₁₄₀ K₁₄₀ кг/га ўғитлаш меъёрини қўллаш тавсия этилади.



Адабтётлар рўйхати

1. Мирзажонов К.М. Сув бутун борлиққа ҳаёт бахш этар (Вода дарит жизнь для всей вселенной) /Пахтачилик ва дончиликни ривожлантириш муаммолари (Проблемы развития хлопководства и зерноводства). Ташкент, 2004. С. 60–65.

2. Хасанова Ф. М., Қорабоев И. Кузги буғдой экишда минимал техналогияни экиш меъёрлари ва ҳосилдорликка таъсири //Ўзбекистон республикаси қишлоқ хўжалигида сув ва ресурс тежовчи агротехналогиялар. Халқаро илмий–амалий конференция тўплами. Тошкент, 2008.б. 331.

3. Кадиров Р.Н. Влияние норм подкормки и орошения озимой пшеницы сортов Дурдона и Аср на урожайность зерна и саломы “Мелиорация и водное хозяйство” журнал.Россия -2019. №4 29-30- б.

4.Кадиров Р.Н. Такрорий соядан кейин экилган истикболли Дурдона, Аср навларининг сув баланси. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. Тошкент-2012.

5. Сиддиқов Р.,Рахимов М. Фосфорли ўғитларни қўллаш усулларининг кузги буғдой дон ҳосилига таъсири. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -2018. №11.-37 бет.

6. Таблица данных урожайности зерновых в ведущих странах мира за 2013 год.

URL:<http://total-rating.ru/1439-urozhaynost-zernovyh-v-stranah-na-2013-god.html>.

7. Кадиров Р.Н. Кузги буғдойнинг Аср ва Дурдона навлари даласининг ер-сув мувозанати. //Экология хабарномаси. -2018. №11 -19-21 бетлар.

8. [Электронный ресурс: <https://news.mail.ru/economics-/50923379/-?frommail=1>] (18.01.2022 г.)

9. Кирйигитов Б., Кодиров Р. Использование альтернативных видов источников электроэнергии в сельском хозяйстве //Scientific progress.-2021-V.2.-I.7.





ФАРҶОНА ВИЛОЯТИНИНГ БОҒДОД ТУМАНИ СУВ МАНБАЛАРИНИНГ ЭНЕРГЕТИК ПОТЕНЦИАЛИ ТАҲЛИЛИ

Кирйигитов Б.А.

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

E-mail: baxriddin.kiryigitov@mail.ru Тел.: 90 141-28-54

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Фарғона вилояти Боғдод тумани худудидаги сув манбаларининг кўрсаткичлари, умумий тизими ва бошқариш тизими ҳақида маълумот берилган. Асосий эътибор йирик сув манбалари ва улар атрофидаги яратилган суғориш тизимига қаратилган. Сув манбаларининг тизими гидроэнергетик кўрсаткичлари ҳам ўрганилган. Улардан самарали фойдаланиш ҳақида таклифлар ҳам келтирилган.

Калит сўзлар: коллектор, узунлик, сув ўтказиш ҳажми, канал.

АННОТАЦИЯ

Данная работа посвящена анализу информации об ирригационной системе Багдадского района Ферганской области. Основное внимание уделено показателям крупных водных источников и территорий их системе водообеспечения. Изучены гидроэнергетические показатели водных источников. Приводятся информация о форме использования, имеющихся энергетических ресурсов.

Ключевые слова: коллектор, длина, объем водного потока, канал.

ABSTRACT

This work is devoted to the analysis of information about the irrigation system of the Baghdad district of the Fergana region. The main attention is paid to indicators of large water sources and areas of their water supply. The hydropower indicators of systems water sources have been studied. Provides information on the form of use of available energy resources.

Key words: collector, length, volume of water flow, channel.

Электр энергияга бўлган эҳтиёж ва унинг иқтисодий ривожланишга бўлган аҳамияти бугунги куннинг асосий муаммосидир. Охирги йилларда энергетика соҳасига молиявий инвестиция киритиш жуда катта ҳажмда ортиши кузатилмоқда. Ўзбекистонда мана йўналишда ривожланиш учун катта ишлар олиб борилмоқда [1]. Ҳозирги йилларда электр энергияга бўлган эҳтиёжнинг 3-5% га ортиши амалда бўлмоқда. Унга кўра 2030 йилга келиб электр энергия сарфи йилига 6-7% ортиши кутилмоқда. Фарғона вилоятининг Фарғона вилояти ва унинг таркибида бўлган Фарғона вилояти бўйича изланишлар олиб борилган [2-4]. Кичик ва бошқа турдаги сув манбаларининг электр энергия олиш мақсадида фойдаланиш бўйича ҳам илмий тадқиқот ишлар чоп этилган [5,7,8]. Фарғона вилоятининг энергетик имкониятларини кўриб чиқишда туманлар кесимида ўрганишга ҳаракат қилдик.

Боғдод тумани Фарғона вилоятининг марказий қисмида жойлашган. Ғарбдан – Учкуприк тумани, шарқдан – Олтиарик тумани, шимолдан – Бувайда тумани,



шимолий-жанубда – Риштон тумани, ғарбий-жанубий томондан – Ўзбекистон тумани билан чегарадош. Мана шу ҳудудларда электр энергия алмашинувини иашкил этиш йўлга қўйилиши яхши бўларди.

Бу ерда асосий манба сифатида Шимолий Боғдод канали ҳисобланади. Унга барча мавжуд коллектор ва дренаж тизимлари уланган. Кейинги манба- Янги кадам магистрал канали. Унинг кўрсаткичлари ўртача бўлиб (сув ўтказиш хажми 10м^3), у Шимолий Боғдод каналнинг ҳудудини қамраб олади. Туманнинг шарқий қисми шимолий қисмига нисбатан анча сув манбалари билан яхши таъминланган.

Қайта тикланувчи электр энергия манбалари (ҚТЭМ), айниқса, кичик гидроэнергетика имкониятидан фойдаланиш бу ерда ўринли. Ҳудудни электр энергия билан таъминлаш учун кичик гидроэнергетик иншоатлар орқали эришса бўлади. Гидротехник потенциал (ГТП) – $1,9 \cdot 10^5$ МВтга тенг. Хатто мавжуд энергия захирасининг 1-2%дан фойдаланилса ҳам гидроэнергетик потенциал (ГЭП) – $3,9 \cdot 10^3$ МВтни ташкил қилади. Жой ташланишнинг сабаби- Боғдод ва Олтиарик туманлар черасида жойлашган, сув миқдори деярли бир хил миқдорда ўтади. Энергетик захира ҳосил қилиши учун қуйидаги талабларга асосида олинса асосан қулай бўлади:

- сув манбаларнинг сув ўтказиш хажми нисбатан бир хил бўлиши,
- гидроэнергетик қурилмаларни ўрнатиш учун қулай бўлган жойнинг узунлиги етарлича катта.

Боғдод туманининг жанубий-ғарбий қисмидан Катта Фарғона канали (КФК) оқиб ўтади. Унинг сув ўтказиш хажми 66 м^3 ни ташкил этади. Унинг миқдори йил давомида ўзгариши рўй беради ва йиллар бўйича фарқланади.

КФК нинг ғарбий қисми ЛБК-2, БДК-4-4-4, БШ-2, ЛБК-1 коллектор тизими ва Самарканд тизими (Хўжамқишлоқ (сув ўтказиш хажми 8м^3) ҳамда Амиробод (сув ўтказиш хажми 5м^3), Оксус коллектори, улар Бетон Самарканд (сув ўтказиш хажми 18м^3 , узунлиги 6,8км) ва ўз навбатида Майлибойга уланади (сув ўтказиш хажми 5м^3 , узунлиги 5,5км).

Туманнинг жанубий – ғарбий ҳудудида ГТП фойдаланишлари учун КФК ва бир нечта тўйинтирувчи каналлардан фойдаланиш қулай. Масалан, КФК нинг 10 км узунлигида




олинган ГТП қиймати - $3,3 \cdot 10^6$ МВт, ГЭП қиймати – $(3,3-6,0) \cdot 10^4$ МВт ни ташкил этади.

Туманнинг марказий қисми асосий сув манбаси – Сўх тармоғидир. Унинг тузилиши қуйидагича:

Соҳ тармоғининг сув ўтказиш хажми 15 м^3 га тенг булиб, у қисман БХ-1 коллекторга (сув ўтказиш хажми $1,5 \text{ м}^3$ ва узунлиги $4,8 \text{ км}$) қурилган сув тўғони орқали ажратилади.

Шу ҳудудда сув манбаларнинг қўрсаткичлари мавжуд гидроўтказиш иншооти (тўғон) лар орқали мунтазам назорати ишлари олиб борилади.



1-расм. Сўх тармоғининг тизими.

Ушбу сув манбалар тизими қуйидагилардан иборат:

Соҳ тармоғи. Унинг сув ўтказиш хажми 15 м^3 . Таркибига Боғишамол, Самарканд, Катта Лашкар, Мехнатобод, Ина, ДМК-1-2 коллектора ва улар ўз навбатида БХ коллектори ҳамда Шимолий Боғдод каналига уланиб кетади.

Ҳудуднинг ГТП ва ГЭП қийматлари иккита асосий сув манбалари (Сўх тармоғи ва Шимолий Боғдод каналлари) тизимида шакллантириш мумкин. Уларнинг имкониятларидан фойдаланган ҳолда ГТП – $3,5 \cdot 10^6$ МВт, ГЭП – $0,7 \cdot 10^4$ МВтни ташкил этади (3-расм). ГЭП қиймати 1-2% миқдорда электр энергияси олиниши ҳолати учун ҳисобланган.

Туман бўйича ҚТЭМ орқали олиниши мумкин электр энергия захираси умумий ҳолда қуйидагиларга тенг: ГТП - $7 \cdot 10^6$ МВт, ГЭП - $8,5 \cdot 10^4$ МВт. Бу электр энергияси миқдори кичик бўлсада ҳозирги кунда электр энергияга эҳтиёжни бироз енгиллатиш йўлида фойдаланишимиз керак.



Сув манбаларнинг энергетик ресурсларидан фойдаланиш жараёнида бир нечта амалий ёндашувларни қўллаш фойдали бўлиши мумкин:

- қўшимча электр энергия таъминотини истеъмолчиларнинг заруратини камида 25-30% ни қопланадиган миқдорда бўлиши,
- агарда бир нечта КТЭМ лар манбалари (шамол, Қуёш) дан фойдаланиш имконияти мавжуд бўлса гибрид шаклда ишлатиш,
- мутахассисларни тайёрлаш замон талаби бўйича амалга ошириш ва ёндашиш муҳимлиги [7].

Умумий хулоса шуки, Боғдод туманида қайта тикланувчи электр энергия манбалари имкониятидан кенгроқ фойдаланиш аҳоли ва ҳудудларнинг иқтисодий, саноат потенциалини оширишда кўмакчи бўлади ва тадбиркорлик объектларни ишлаши учун шароитлар яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Конценция обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020-2030 годы. Электронный ресурс: (gazeta.uz)
2. Чемберисов Э.И., Лесник Т.Ю., Чемберисов Т.Э. Особенности использования стока малых рек Ферганской долины для орошения.
Электронный ресурс: (cawater-info.net/bk/improvement-irrigated-agriculture/files/chemb6.pdf)
3. Вода - жизненно важный ресурс для будущего Узбекистана//ПРООН-Ташкент,2007-128 стр.
4. Кирйигитов Б., Кодиров Р. Использование альтернативных видов источников электроэнергии в сельском хозяйстве //Scientific progress.-2021-V.2.-I.7. С.150-154
5. Кирйигитов Б. Use small and medium rivers to solve the problem of supplying electricity //Scientific progress.-2021-V.2.-I.7. С.145-149
6. Боғдод туманининг марказий ва жанубий қисми сув манбалардан фойдаланиш // “Ilm- fan va ta’limda innovatsion yondasuvlar, muammolar, taklif va yechimlar” мавзусидаги 20-сонли республика илмий-онлайн конференцияси. Материаллар тўплами. Фарғона, 2022, 30 январ. 1 қисм. 192-194-бет.



7. Кирйигитов Б. Using mini and micro HPP /Science and education.-2021. September-Vol.2. Issie 9.-P.159-163.

8. Bozarov O., Rayimjanov B., Kiryigitov B. Andijon viloyati janubiy qismidagi mavjud suv manbalarining gidroenergyetik potentsiali taxlili / “Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясида янги инновацион технологияларнинг роли” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман. Андижон, 2021. 369-370-betlar.



ODAM SAVDOSI- DAVR MUAMMOSI.

Qo'ldoshev Sherzod Mansur o'g'li

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada odam savdosi va uning uning qisqacha tarixi keltirib o'tilgan. Odam savdosining global muammo ekanligi hayotiy misollar va aniq raqam va faktlarda ko'rsatib berilgan. Yurtimizda ushbu illatga qarshi kurash yo'lida amalga oshirilgan islohotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: transmilliy jinoyatchilik, zamonaviy qulchilik, huquqsizlik, kamsitilish, "tirik mahsulot", transplantatsiya.

Аннотация В статье цитируется торговля людьми и ее краткая историю Тот факт что торговля людьми является глобальной проблемой б бил продемонстрирован на реальных примерах и конкретных цифрах и фактах. Описаны реформы в борьбе с этим злом в стране.

Annotation: The article cites human trafficking and its brief history. The global problem of human trafficking is illustrated by real-life examples and exact figures and facts. The reforms carried out in country to combat this courage are described.

“ Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas: qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi”

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 4-modda

Zamonaviy qullikning bir ko'rinishi deb baholangan odam savdosi bugungi kunda dunyo afkor ommasini xavotirga solmoqda. Ushbu transmilliy jinoyatchilik tufayli har yili yuz minglab insonlar , achinarlisi ayollar va bolalar shahvoniy maqsadlarda va majburiy mehnatga jalb etilmoqda. Ularning insonlarning asosiy huquq va erkinliklari poymol etilmoqda. Ushbu transmilliy jinoyatchilikdan yiliga milliardlab dollar foyda ko'rilmogda. Bu transmilliy jinoyatchilik noqonuniy qurol-yarog' va narkobiznesadan keyin uchinchi o'rinda turadi daromad kelishi bo'yicha.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: “ Odam savdosi global muammo, unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik darkor”



Odam savdosi qurbonlari yiliga oshib bormoqda. Sababi dunyoda migratsiya jarayonlari nihoyatda tezlashgan. Ba'zi bir insonlar qisqa muddatda ko'p pul topish vasvasi tufayli firibgarlarning tuzog'iga aylanmoqda..

Shuning uchun mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish maqsadida Muhtaram Prezidentimiz tomonidan o'z vaqtida kerakli chora-tadbirlar ko'rildi. Bugun bu o'z samarasini bermoqda.

Muhtaram Prezidentimiz 2019-yil 30-iyun kuni “ Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmonni imzoladi. Farmon bilan Odam savdosiga qarshi kurashish bo'icha respublika idoralararo komissiyasi Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi etib qayta tashkil qilindi va uning tarkibi tasdiqlandi.

Milliy komissiya Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha hamda Majburiy mehnatga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kichik komissiyalardan iborat.

Kichik komissiyalarga tegishliligi bo'yicha Milliy komissiya raisi o'rinbosarlari hisoblangan ichki ishlar vaziri va bandlik va mehnat munosabatlari vaziri rahbarlik qiladi.

Davlat organlari va hududiy organlarning, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va NNTlarning odam savdosiga va majburiy mehnatgaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish Milliy komissiyaning asosiy vazifalaridan etib belgilandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'I Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimlari odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha hududiy komissiyalarga rahbarlik qiladi.

Farmon bilan Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha milliy ma'ruzachi institute ta'sis etildi.

Milliy ma'ruzachi odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi vazoiyat haqida prezidentgahar yili axborot taqdim etadi.

“ Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikaning Qonunida odam savdosi jinoyatining tushunchasiga qauyidagicha ta'rif berilgan.

Odam savdosi- bu kuch bilan tahdid qilish yokikuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, hokimiyatni suiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi



shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'irib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, yashirish, topshirish yoki qabul qilishni, shuningdek, odamlardan foydalanish maqsadida boshqa shaxslarning fohishaligida foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi.

Odam savdosi qadimdan mavjud bo'lgan jinoyatlardan biridir. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, antic davrda odam savdosi oddiy hol bo'lgan. Bunda savdo-sotiq obyektini inson qul maqomida bo'lgan. Inson huquqlari bo'yicha lug'atdagi ta'rifda qulchilik (Slavery) deganda, o'z ish beruvchilarini tanlashda mustaqil bo'lmagan, mulk yoki ashyo sifatida bozorda sotib yuborilishi mumkin bo'lgan shaxsning hayot sharoiti va maqomi tushuniladi. XVII asrda Amerika qullar Afrikadan keltirishi bilan odam savdosi yanada avj oldi.

Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha OBSE vakili Xelga Konradning ta'kidlashicha, har yili 200 mingdan 500 minggacha kishi odam savdosi bo'yicha g'arbiy Yevropa davlatlariga olib kiriladi. Ular ichida ayollar 60 foizni, erkaklar esa 40 foizni tashkil etadi. Vakillar har yili odam savdosidan olinadigan foyda 10-15 milliard dollarni tashkil etishini ta'kidlaydi. Odam savdosi bu jinoiy zanjir, uning kichik bo'g'inidan boshlab so'nggisigacha kurashish kerak. Faqat shundagina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Odam savdosi bir vaqtning o'zida ham jinoyat huquqi, ham inson huquqlari himoyasi masalasidir.

“ Tirik mahsulot” eksporti Turkiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Vengriya, Chexiya, Gretsiya, Rossiya, BAA, Isroil AQSH, Skandinaviya kabi davlatlarda amalga oshiriladi. Erkaklarni asosan quruvchilik, konchilik kabi ishlarda, ayollarni esa uy xizmatkori, idish-tovoq yuvuvchi, farrosh kabi ishlarga majburan jalb qilishadi. Biroq, oddiy eksplutatsiyadan tashqari seksual biznes sohasiga ham majburan jalb etish ham anchagina ko'p.

Yosh ayol va qizlarni chet ellarga ko'p pul topish mumkin bo'lgan ishlarni taklif etib, aldab o'z Vatanidan olib chiqib ketish hamda ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'yib, fohishabozlikka majbur etish holatlarining guvohi bo'lmoqdamiz. Bunday mushkul ahvolga tushib qolgan ayollar xorijga g'ayriqonuniy yo'llar bilan chiqilganligi sababli mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etishga qo'rqishadi.



Qulchilkning bu ko'rinishi, inson huquqlarining buzilishi, ayollarning diskriminatsiya qilinishi sifatida mazkur jinoyatlarga qarshi xalqaro hamjamiyatning va har har bir davlatdagi jamoatchilik kuchlarini birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur muammo chegara bilmaydi, rivojlangan, rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan davlatlar, deb ajratmaydi. Ushbu muammo nizolar girdobidagi davlatlar uchun ham, tinch yashayotgan davlatlar uchun ham xos bo'lib, ko'p katta boylik orttirish va shahvoniy maqsadlar bilan bog'liq bo'lgan mazkur muammo bir vaqtning o'zida jamiyat a'zolarining axloqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

“ Oq qulchilik” deb nomlangan ushbu holat XX asr boshlarida yuzaga keldi. 1904-yilda Yevropaning ko'pchilik davlatlari mazkur holatga qarshi kurashda hamkorlik qilish bo'yicha Parijda xalqaro shartnoma imzolanganlaridan so'ng “ oq qulchilk” atamasi paydo bo'ldi.

Odamlar savdosi- bu alohida shaxsni (guruhni) yollash, ularni bir davlat chegarasi doirasida yoki chegarasidan tashqariga olib ketish bilan bog'liq bo'lgan barcha harakat yoki maqsadlar bo'lib, u o'z ichiga sotish, sotib olish, topshirish, bunday harakatlarni foyda ko'rish yoki shunchaki bunday shaxsni keyinchalik aldab yoki majburlab (zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik islatish bilan qo'rqitib) shuningdek, xizmat mavqeini suiste'mol qilish yo'li bilan ishlatish maqsadida ushalb turishni, shuningdek, shaxsni xohishiga qarshi holda qulchilik sharoitida haq to'lish yoki to'lamasligidan qat'I nazar ushlab turishni ham o'z ichiga oladi.

Albatta xalqaro miqyosda odamlar savdosiga qarshi kurash bo'yicha qator ijobiy tadbirlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Jumladan, 2000-yil dekabr oyida BMT Bosh Asambleyasi tomonidan “ Transmilliy jinoyatchilkka qarshi kurashish to'g'risida” gi Konvensiya va uni to'ldiruvchi “ Odamlar savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish bo'yicha” Protokol qabul qilindi.

Odam savdosi jinoyatiga qarshi kurash va uning oldini olish, shuningdek, qabul qilingan qonunlarni xalqaro andozalarga moslashtirish alohida ahamiyatga ega. Sababi bu borada xalqaro hamjamiyatning tutgan o'rni beqiyos.

O'zbekiston Respublikasda ham bu borada ijobiy ishlar qilinmoqda. Xususan, odam savdosiga kurashish va uning oldini olish maqsadida boshqa tegishli idoralar, tashkilotlarr



bilan hamkorlikda shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi va xalqaro tashkilotlarning faol ishtirokida va yordami bilan ishchi guruhlar tuzilgan, profilaktika, tezkorva qonunni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar rejalashtirilgan. Biroq hali ham qator qilinadiga ishlarimiz va muammolarimiz mavjud.

Bir tomondan Konstitutsiyaga muvofiq, har qanday fuqaro erkin harakatlanish, jumladan chet elga chiqish huquqiga egadir, boshqa tomondan esa fuqarolarning davlat hududidan chiqishlari ustidan qonunga muvofiq nazorat qilinmas ekan, odamlarni eksplutatsiya qilish uchun ularni chet davlatlarga olib chiqilishini aniqlash va bu holning oldini olish qiyin bo'ladi.

Odamlardan foydalanish uchun yollash jinoyat ishlarini o'rganish, shundan dalolat beradiki, jabrlanuvchilar qanday vazifalarni bajarish uchun chet elga chiqayotganligini juda yaxshi anglaydi, ishlagan pullarining muayyan qismini ushbu safarni tashkil qilganlarga berish kerakligini biladilar.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda ushbu hodisaga qarshi kurashga huquqiy baza yaratish masalasi ancha rivojlanmoqda. Oldingi Jinoyat kodeksida "Odamlardan foydalanish uchun yollash" uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan va bu qilmishga "shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun aldash yo'li bilan odam yollash" deb ta'rif berilgan edi. Ushbu modda mazmuniga ko'ra yollash deganda "shaxsni toppish va u bilan qandaydir faoliyat bilan shug'ullanish haqida bitim tuzilishi tushuniladi. Jinoyat qonunida yuqoridagi modda mavjudligiga qaramasdan, O'z R MXX tergov bo'linmalari tomonidan JK amalda bo'lgan o'tgan davr mobaynida tergov olib borilishi ularning vakolatiga kirgan moddalr bo'yicha birorta ham shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmagan.

Odam savdosi tufayli olinayotgan daromad giyohvandlik vositalari va qurol-yarog' savdosidan keyin uchinchi o'rinni egallamoqda. Mazkur turdagi jinoyat natijasida uning ishtirokchilari har yili ko'plab miqdorda daromad olayotgani sababli ham bu noinsoniy qilmish tobora kengroq ko'lam kasb etyapti.

Shahvoniy maqsadlarda bolalarni eksplutatsiya qilish, kishilarni majburiy mehnatga jalb qilish, tilanchilk, donor organlari qora bozorining mavjudligi odam savdosi jinoyatining oqibatlaridir.



Ayrim mamlakatlarda odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalar savdosi shunchalik keng tarqalganki, hatto muayyan millatlar genofondiga va milliy xavfsizligiga real xavf tug'dira boshladi. Bunday vaziyatda har qanday mamlakat mazkur jinoiy faoliyatga qarshi kurashning barcha zaruriy choralarini ko'rish shart. Modomiki, O'zbekistonda ham bu jinoiy to'dalar o'z qilmishlarini amalga oshirmoqdadan qaytmayotgan ekan, ularga o'z vaqtida va samarali zarba berish butun jamiyatning muhim vazifasiga aylanmog'I shart.

Rustamboyev M.X yozishicha, odam savdosi jinoyatining obyekt avvalo shaxsning erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Odam savdosi jinoyati bo'yicha bir yuz bergan hayotiy misolni ko'rib chiqaylik.

Fuqaro Maxmudov Muzaffar, tanishi B.Supiyev va boshqa bir nechta fuqarolarni Qozog'iston Respublikasiga olib borib ishlatgan kunlari uchun, hech qanday haq bermasdan kelganligi yuzasidan tio'plangan surishtiruv hujjatlari asosida, JKning 135-moddasi 1-qismi bilan 2020-yil 25-may kuni fuqaro Mahmudov Muzaffarga nisbatan Oltinko'l tuman prokuraturasi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, 2020-yil 7-iyun kuni jinoyat ishi tergov harakatlarini davom ettirishlik uchun Oltinko'l tumani IIBga yuborilgan. Tergov harakatlari davomida, Maxmudov Muzaffar ularni sotib yubormaganligi, uning harakatlarida odamlardan foydalanish maqsadining yo'qligi, fuqarolar ixtiyoriy ravishda ishlash maqsadida Qozog'iston Respublikasiga borishganligi va ularni shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni o'zlarida bo'lganligi, majburiy mehnatga jalb qilinmaganliklari aniqlangan. Shu sababli 2020-yil 25-iyun kuni fuqaro M.Maxmudovning harakatlarida jinoyat alomatlari yo'q deb topilib, jinoyat ishi JPKning 83-moddasi 2-qismiga asosan tugatilgan.

Amaliyotda kelib tushayotgan arizalarda fuqarolar tomonidan yetarli kasb-hunarga ega bo'lmagan holda, ishlash uchun boshqa davlatga chiqib ketib, mehnat qonuniga ko'ra barcha hujjatlar rasmiylashtirilib, dastlabki oylar uchun ishlagan haqini olib kelgan bo'lsada, dunyoda bo'layotgan iqtisodiy inqiroz tufayli oylik maoshlarini o'z vaqtida ololmasliklari sababli, fuqarolar ularni ishga joylashtirish uchun olib kelgan shaxsni ariza bilan murojaat qilish hollari ham uchramoqda. Yoki moddiy manfaatdor bo'lish maqsadida fuqarolardan yolg'on ko'rgazma berish hamda tuhmat qilish hollari ham uchramoqda.



Huquqshunos M.Rajabova o'tgan asrdan XXI asrga transmilliy tashkiliy jinoyatchilikning uchta eng xavfli turi "meros" bo'lib o'tdi, ular terrorizm va din niqobi ostidagi zo'rvonlik, ya'ni ekstremistik, fundamentalistik, separastik xurujlar tursa, keyingisi narkobiznes va eng so'nggisi odam savdosi, traffic bilan shug'ullanuvchi yirik-yirik jinoyatchi tashkilotlardir, deb ta'kidlaydi.

Odam savdosi qullikning zamonaviy usuli, qul savdosining yangi yangi ko'rinishidir. Jinoyatchilar, birinchi navbatda, ayollar va bolalarni majburiy mehnat va jinsiy qullik qopqoniga aldab tushirmoqdalar. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxlar kuch ishlatish, firibgarlik, majburlash va boshqa jinoiy vositalardan foydalangan holda, himoyaga muhtoj, zaif va tushkunlikka tushgan insonlarni dunyonong boshqa davlatlariga olib ketadilar.

Odam savdosi quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

- Majburiy mehnat
- Qullik;
- Fohishabozlik;
- Majburiy donorlik;
- Harbiy to'qnashuvlardan foydalanish va h.k.

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar, o'z xususiyatiga ko'ra, latent xarakterga ega. Chunki, odam savdosi qurbonlari ularga nisbatan jismoniy yoki ruhiy tazyiq o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishi yoki o'zining noqonuniy xorijga chiqqanligi fosh bo'lishidan cho'chib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmaydilar. Bunday holat odam savdosi bilan shug'ullangan shaxslarning javobgarlikdan qutulib qolishiga hamda jinoiy faoliyatini davom ettirishiha olib keladi.

Odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar chet elga ishchi kuchi yuboruvchi tashkilotlar niqobi ostida faoliyat yuritib, chet elga talabalik, sayyohlik va boshqa xil vizalar bilan chiqmoqchi bo'lgan shaxslarni odam savdosi domiga tortib ketmoqdalar. Inchunun, Germaniyaga bormoqchi bo'lgan ayollarga nikoh idoralari er topib berish, ish topib beruvchi firmalar esa, turli xil ish topib berishni taklif qilishib, aslida ularni nemis fohishaxonalariga sotib yuborishgani ma'lum.



Odam savdosi jinoyatiga qarshi kurashihs va uning oldini olishda bizning takliflarimiz:

- Haftaning bir kunini odam savdosiga qarshi kurash kuni deb e'lon qilish;
- Shahvoniy maqsadlarda foydalanish evaziga ma'lum miqdorda manfaatdor bo'lishi uchun odamlarni yollovchi, fohishaxona saqlovchi yoki qo'shmachilik qiluvchi shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash;
- Aholi o'rasida axloqiy ma'naviy buzuqlikni targ'ib etuvchi, zo'ravonlik va shafqatsizlikka o'rgatuvchi, keng ommaning fikrini zaharlovchi barcha omillarni o'rganib chiqish, ularning manbalarini, kimlar tomonidan va qayerlarda tarqatilayotganligini aniqlash, bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ko'rish;
- Kabelli telekanallar, video-tasvir va audio ovoz yozish syudiyalarining video-audio tasmlari hamda CD, DVD disklari bilan savdo qiluvchi shoxobchalar, pornografiya, zo'ravonlik, shafqatsizlik va vahshiylikni targ'ib qiluvchi, shuningdek milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizga zid bo'lgan ma'lumotlarni tarqatilishining oldini olish maqsadida barcha turdagi ro'znoma, oynomalar, turli xil axborot tarqatuvchi faoliyat turi bilan savdo qiluvchi shoxobchalarning faoliyatini qat'iy nazorat ostiga olish;
- Xorijiy davlatlarga fuarolarni yuborish bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar, sayyohlik firmalari hamda shu usuldagi turli reklamalar beruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini qat'iy nazorat ostiga olish;
- Tijorat va boshqa yumushlar bilan tez-tez MDHga a'zo va boshqa xorijiy davlatlarga chiqib tuadigan shaxslarni, ayniqsa qo'shmachilik va fohishalikka moyil bo'lgan ayollarning ro'yxatlarini tuzish, ularni turmush tarzini alohida nazorat ostiga olish, bu toifadagi shaxslarni o'rganib chiqib, shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun yollanishi mumkin bo'lganlarni aniqlash choralarini ko'rish;
- Noqonuniy yo'llar bilan chet ellarga borib, deportatsiya qilingan fuqarolarni aniqlab, ro'yxatlarini tuzib, bunday shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish hamda ularning nima maqsadda, qanday yo'llar bilan chiqib ketganligini aniqlash choralarini ko'rish;



- Turli teri-tanosil va OITS kasalligini aholi orasida tarqalishining oldini olish, shu maqsadda ushbu kasalliklarni tarqatuvchi asosiy manbalar bo'lgan fohishalarni, yengil-yelpi, tartibsiz jinsiy hayot kechiruvchilarni, turli islavatxonalar egalari va ularning mijozlarini, besoqolbozlar va igna orqali giyohvand modda qabul qiluvchi shaxslarni, qimor o'yinlarining ishtirokkchilarini aniqlash va tibbiy ko'rikdan o'tishlarini ta'minlash;
- Ommaviy axborot vositalarida berilayotgan turli xil reklama va e'lonlarda bayon etilgan holatlarning haqiqiy ahvolga mosligini tekshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan maxsus tadbirlar o'tkazish. Ayniqsa, turli xil massaj, uqalash davolash maskanlariga taklif etish, chet mamlakatlarga ishga yuborish bilan bog'liq e'lonlarga alohida e'tibor qaratish;
- Ommaviy axborot vositalarida muqaddam jinsiy zo'ravonlikka va yolg'on qurboni bo'lgan, islovatxonalarda saqlangan, chet mamlakatlarda shahvoniy maqsadlarda zo'rlik ishlatib foydalanilgan ayollar, shuningdek ishga joylashtirish va boshqa maqsadlarda aldov yo'li bilan chet ellarga olib ketilgan shaxslar to'g'risida axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarimizning ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan radiosuhbatlar, telesuhbatlar va boshqa ko'rinishdagi chiqishlarni muntazam uyushtirib borish.

Xulosa qilib aytganimizda odam savdosi-davr muammosidir. Bu qanchalik global muammo ekanligini amaliy misollar va aniq raqamlar va faktlarda ko'rib, tahlil etdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustamboyev.M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.- T., "O'qituvchi" 2000.- 560b
2. Rustamboyev.M.X. Odam savdosi. – T: TDYI nashriyoti.
3. Fozilov. I.Y. Odam savdosi- global muammo, unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik darkor// O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborotnomasi,2009.
4. J.Bazarbayev va mualliflar jamoasi. Odam savdosi- qullik kishani. Toshkent, 2013.



Жўрайев Илхом Бахриддин ўғли
Гулистон давлат университети
ўқитувчиси

Мирзачўл воҳаси аҳолиси манбашунослиги ва тарихшунослиги (қўлёзма асарлар, сайёҳ ва элчилар қайдлари, этнографик маълумотлар, дала материаллари)

Аннотация: Ушбу мақолада қадимий Мирзачўл воҳаси тарихи асосан етник келиб чиқиши, аҳолиси, урф анъаналари ҳақида малумот берилган. Мирзачўл воҳаси бугунги кундаги аҳолиси асл аجدодлари ким бўлганлиги, қайердан қачон бу жойларга келиб қолганлиги қатор тарихчилар асарларида келтирилган маълумотлар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: етник таркиби, аҳоли, маҳаллий кўчманчи, манбалар, ”Мунтахабу-ут тарих”, ёзма манбалар,

Сўнги ўрта асрларда, яъни яқин тарихда Мирзачўл воҳаси ва унинг атрофларидаги ҳудудлар бир қатор фарқли сиёсий жараёнларга сахна бўлди. Аввало, воҳа жануб ва жануби-ғарбдан Жиззах ва Нурота воҳаларига қўшнилиги туфайли Бухоро амирлиги (1753-1920) сиёсий таъсирида қолган бўлса, кейинчалик маълум бир муддат бу ҳудудда Қўқон хонлиги (1709-1876) таъсири кучаяди. Бу ҳудудларнинг гоҳ Бухоро, гоҳ Қўқон хонлиги таъсирида бўлиши воҳа аҳолиси ижтимоий ва маданий ҳаётида ўзига хос из қолдирди. XIX асрнинг сўнги чорагига келиб эса Мирзачўл воҳасининг Россия империяси томонидан босиб олинishi ва воҳада империя бошқарувининг ўрнатилиши бу ер тарихида янги жараёнларни бошлаб берди.

Мирзачўл воҳаси тарихининг бу даврлари тарихи асосан Бухоро ва Қўқон тарихнавислигига оид кўплаб қўлёзма асарлар, элчи, дипломат, сайёҳ, ҳарбий, шарқшунос ва ҳоказо каби рус муаллифларининг қайдлари ҳамда XIX аср охири – XX асрда йиғилган этнографик маълумотлар ва дала материалларида ўз ифодасини топган.

Ушбу манба ва материаллар орасида аввало Бухоро амирлиги тарихнавислигига хос айрим асарларга тўхталиб ўтсак. Амирлик тарихига оид қўлёзма асарлар асосан форс тилида ёзилган бўлиб, минтақа тарихи билан боғлиқ адабиётларнинг бир қисми Бухоро амирлигининг маҳаллий муҳитига тегишлидир. Бухоро амирлигининг Бухоро, Самарқанд, Шаҳрисабз, Ургут каби йирик шаҳарларида ёзилган форсий тилли асарлардаги тарихий маълумотлар асосан Бухоро амирлигининг марказий



худудларидаги сиёсий воқеликларни қамраб олган бўлса-да, айрим ўринларда Нурота, Жиззах, Тошкент, Ўратепа, Хўжанд билан боғлиқ воқеликлар ёритилиши жараёнида Мирзачўл воҳасига тегишли айрим маълумотларга ҳам дуч келиш мумкин. Шу ўринда айтиб ўтиш керак, XIX асрнинг катта бир қисмида Бухоро – Қўқон орасида юз берган воқеликлар баён қилинар экан ушбу воҳадаги айрим аҳоли масканларида бўлиб ўтган воқеликлар ҳам тилга олингани кўзга ташланади. Жумладан, Мулло Ибодулланинг “Тарихи амир Ҳайдар”, Муҳаммад Шарифнинг “Достони амирони манғит”, Мир Олим Бухорийнинг “Фатҳномаи султоний”, Муҳаммад Шариф ибн Муҳаммад Нақининг “Тоҷу таворих”, Аҳмад Донишнинг “Манғитлар хонадони ҳуқумдорлари тарихидан қисқача рисола”, Мирзо Содик Муншийнинг “Манғит ҳуқумдорлари тарихи”, Мирзо Сомийнинг (1838-1907) “Дахмаи шоҳон” (Шоҳлар даҳмаси), “Тухфат-ул шоҳий” (Шоҳга совға), “Тарихи салотини манғития” (Манғит султонлари тарихи) номли асарлари Бухоро амирлиги ва унга қўшни худудлар тарихини ёришда муҳим асарлар ҳисобланади²¹.

Шунингдек, Мирзачўл воҳаси ва унга қўшни худудларнинг яқин тарихи бўйича муҳим манбалар сифатида Қўқон хонлиги муҳитига хос асарларни келтириш мумкин. Қўқон тарихчилари мактаби намояндлари асарларидан саналмиш Муҳаммад Ҳакимхоннинг «Мунтахаб ут-таворих» асари, Тоҷир Хўжандийнинг «Ғаройиби сипоҳ», Мирзо Олим Махдум ҳожининг «Тарихи Туркистон»²², Мирзо Олим Мушрифнинг «Ансоб ус-салотин ва таворих ал-хавоқин» («Қўқон хонлиги тарихи» номи билан нашр этилган)²³, Муҳаммад Юнус Тоибнинг «Тарихи Алиқули амирлашкар» ва «Тухфайи Тоиб» (), Муҳаммад Азиз Марғилонийнинг «Тарихи Азизий»²⁴ номли асарлар чоп қилинган. Қўқон тарихчилари асарларининг турли тил ва жанрда яратилишига хонликнинг қуйидаги тарихий-сиёсий жараёнлари туртки бўлган. Қўқон тарихнависларининг асарларини тадқиқ қилган А. Ўринбоев ва О.

²¹Қаландарова Ф. Бухоро тарихининг Мирзо Сомий асарларида ёритилиши // “Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни” мавзусидаги Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Бухоро, 2020. – Б. 175-178.

²²Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Ш. Воҳидов, тарих фанлари доктори Араб Ёзувудан табдил: Ш. Воҳидов ва Р. Холиқова. – Тошкент «Янги аср авлоди» 2008.

²³Мирзо Олим Мушриф. «Ансоб ус-салотин ва таворих ал-хавоқин» («Қўқон хонлиги тарихи»). – Тошкент, 1995.

²⁴Муҳаммад Азиз Марғилоний. «Тарихи Азизий». – Тошкент, 1999.



Бўриев, Т. К. Бейсембиев, Э. Хуршут, Ш. Воҳидов ва Д. Сангилова, Ў. Султонов, Б. Турсунов, Ш. Маҳмудов ва С. Йўлдошевлар Қўқон хонлиги тарихи бўйича тадқиқотлар олиб борган бўлиб, ушбу тадқиқотчиларнинг бир қисми мазкур асарларнинг бир қисмини нашр қилганлар²⁵. Бироқ шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, ушбу асарларнинг кўпчилигидаги маълумотлар Қўқон хонлигининг марказий ҳудудлари – Фарғона водийсида бўлиб ўтган воқеликларни ўз ичига олган бўлиб, қўқонлик қўшинларнинг Хўжанд, Тошкент, Чимкент, Дашти Қипчоқ ҳудудларига ёки жануби-ғарбга – Жиззах воҳасига юришлари жараёнида чўл ҳудуддан (Мирзачўл воҳасидан) ўтганликларига доир маълумотларни учратиш мумкин. Афсуски, Қўқон хонлиги муҳитида ёзилган форсий ва туркий тилли асарларда Мирзачўл воҳаси аҳоли масканларига доир жуда қисқа маълумотлар ўрин олган бўлиб, улар асосида воҳанинг яқин ўтмиши бўйича муайян тасаввурларга эга бўлиш қийин.

Қўқон хонлиги муҳитига хос қўлёзма асарларнинг бир қисми чигатой туркийси (эски ўзбек тили)да ёзилган бўлиб, уларда ҳам Мирзачўл воҳасидаги айрим аҳоли масканлари ҳақида қисқача маълумотларни учратиш мумкин. Жумладан, Мирзо Олим Маҳдум ҳожининг “Тарихи Туркистон” асарида Қўқон хонларининг Фарғона водийси, Хўжанд ва Ўратепа вилоятлари, Тошкент воҳаси, Жиззах воҳаси, Туркистон шаҳри, Чимкент ва Сайрам шаҳарларидаги фаолиятлари ҳақида сўз борганда қўқонлик қўшинларнинг ушбу шаҳар ва вилоятларга йўл олганда Сирдарё хавзаларидан ўтганликларига бирмунча тўхталганига гувоҳ бўламиз. Масалан, асарда Қўқон хони амир Умархон (1787-1822) Жиззахга қўшин тортганда қўқонликлик қўшинларнинг бир муддат Ховосда бўлиб, ундан кейин Ём орқали Жиззахга йўл олганликлари қуйидагича тилга олинади: *“Бул миёнада қорақалпоқ ва хитой-қипчоқ аҳволотидин воқиф ва огоҳ бўлуб, аларга шафқат ва мархамат кўрсатиб, аҳволпурслик қилмоқ лозимдур, деганда ҳамма би-л-иттифоқ бир маслаҳатга қарор бериб, эртаси Қўштегирмондин кўчуб, Хавос устига бориб қўнуб, эртаси Хавосдин жўнаб, эртаси Ём мавзейига қўнуб, эртаси андин жўнаб, Жиззах устига етиб*

²⁵ Ўринбоев А, Бўриев О -бошқарувтизими (1709-1876 йй.). Тарих фан. ном. дисс. - Тошкент: Ўз ФА Тарих институтига, 2007.



қўнубдур. Бир кеча ул мавзеда ётгандин кейин эртаси чоповул қўшунни то Самаққанд тобиотиғача буюруб, қолган қўшун илан Диззах муҳосарасига машғул бўлубдурлар”²⁶.

Мирзачўл воҳаси маҳаллий аҳолисининг яқин ўтмишдаги урф-одатлари, қадимий анъаналари, фольклори ва ҳоказоларни тадқиқ этишда манба сифатида этнографик маълумотлар ва дала материалларининг ҳам ўзига хос ўрни бор. Бу масалани ёритишда айниқса XIX аср охири – XX аср давомида йиғилган этнографик маълумотлар ва архив материалларига мурожаат қилишга тўғри келади. Шунингдек, XIX аср охири – XX аср бошларида воҳада бўлган рус муаллифларининг қайдларида ҳам воҳа аҳолиси этнографиясига оид муҳим маълумотларга қўлга киритиш мумкин. Улар асосида воҳада яшаган ўзбек, қозоқ, қирғиз ва тожик халқларининг қадимий урф-одатлари, турмуш тарзи, миллий анъаналари ва ҳоказолар ҳақида муайян тарихий тасаввурларга эга бўлиш мумкин.

XIX асрнинг биринчи ярмига келиб Россия ҳукмрон доираларида Туркистонга бўлган қизиқиш минтақани изчил ўрганишга ундади. Бу даврда ёзилган асарлар ичида 1820 йилда Негри элчилик миссияси таркибида Бухорога келган Е. К. Мейендорф²⁷, 1833 йилда Бухорода татар муллasi Мирза Жаъфар номи билан тўрт ой яшаган П.И. Демезон²⁸, Бутенов элчилик миссияси билан 1841 йилда Бухоро амирлигида бўлган шарқшунос Н. Ханьков²⁹ ва бошқаларнинг асарларини таъкидлаб ўтиш керак. Россиядан Ўрта Осиёга келган ҳар бир киши – элчилик миссияси аъзоси, савдогар, зобит ва бошқалар ҳукумат идораларидан махсус кўрсатмалар ва йўриқномалар олиб, уларда ўзбек хонликларидаги ижтимоий-сиёсий вазият, бошқарув тартиблари, коммуникация йўллари, шаҳарлар ва бошқа ҳарбий-стратегик масалаларга эътибор қаратиш кераклиги таъкидланган³⁰.

1870- йилларда Бухоро амирлиги бўйича уюштирилган илмий экспедицияларда ўз даври учун муҳим этнографик маълумотлар йиғилган. Бухоро амирлигидаги

²⁶ Мирзо Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Ш. Воҳидов, тарих фанлари доктори Араб ёзувидан табдил: Ш. Воҳидов ва Р. Холиқова. – Тошкент «Янги аср авлоди» 2008. – В. 87.

²⁷ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С.70-75.

²⁸ Демезон П.И. Записки о Бухарском ханстве (Отчети П.И. Демезона и И.В. Веткевича). – М.: Наука, 1983. – С. 17-83.

²⁹ Ханьков Н. Описания Бухарского ханства. – СПб., 1843.

³⁰ Соловев М.М. Ученая экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. при участие натуралиста А.Лемана. – М.–Л., 1939. – С. 16-18.



маъмурий бирликлар бўйича XIX аср ўрталари – XX асрлар иккинчи ярми оралиғида А.Д. Гребенкин³¹, А.П. Федченко³², Л.Н. Соболев³³, А.П. Хорошхин³⁴ бошқалар томонидан тўпланган маълумотлар Бухоро амирлиги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий-маданий ҳаётида тутган ўрнини аниқлашда муҳим аҳамият касб этиб, уларда Мирзачўл воҳаси тарихига оид айрим қайдларни учратиш мумкин.

Мирзачўл воҳаси ва унга қўшни ҳудудлар аҳолисининг ижтимоий-маданий ва маиший ҳаётига тегишли маълумотлар XIX аср охирлари ва XX аср бошларида Туркистон ўлкасига ташриф буюрган бир қатор хорижлик муаллифлар асарларида ўз аксини топган. Жумладан, Ю. Скайлер³⁵ каби Европа ва россиялик муаллифлар томонидан ёзиб қолдирилган маълумотларда бу ҳудудлар бўйича муҳим маълумотлар берилган. Жумладан, 1870- йилларда, яъни Қўқон хонлигининг деярли барча ҳудуди, Бухоро амирлигининг эса сезиларли бир қисми Чор Россияси томонидан босиб олинган бир паллада Мирзачўл воҳаси орқали Фарғона, Зарафшон ва Қашқадарё воҳаларига ташриф буюрган америкалик журналист Ю. Скайлер воҳа тарихи учун муҳим маълумотларни қайд этган. Муаллифнинг ёзишича: *“... Дарё (Сурдарё)дан қарийб Жиззахгача саксон мил узоқликда қуруқ чўл ястанган бўлиб, руслар “Голодная” ёки “Мирзачўл” аташиб, гарчи бир-икки жойда шўр ҳамда ёқимсиз сувли қудуқ ва цистерналар бўлса-да, ҳозирда қуруқ ва унумсиз ер. Дарё яқинида эски канал ва ариқларнинг излари бўлиб, қачонлардир энг камида бу ерларга ишлов берилгани ва*

³¹ Гребенкин А. Д. Узбеки // Сборник. Русский Туркестан: Сборник ст. Вып. II.– Москва: Университет. 1872.– С. 106.

³² Федченко А. П. Путешествие в Туркестан. – Москва: “Географгиз”, 1953. – С. 17-31.; Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда (с картой Зеравшанской долины) // Изв. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. VIII. Вып. – Ташкент-Москва: 1870 – С. 130-131.

³³ Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа // Зап. Рус. геогр. о-ва по отделению статистики/ Т.IV. – СПб., 1874. – С. 713-714.

³⁴ Хорошхин А.П. Кызил-Кумский дневник. // Сборник статей, касающихся до(!) Туркестанского края. – СПб, 1876. – С. 400.

³⁵ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – СПб., 1865; Гребенкин А.Д. Таджики // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М., 1872. – С.1-3; Федченко А.П. Первый отчет туркестанской учёной экспедиции // Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – М., 1950. – С.65-66; Федченко А.П. Топографический очерк Зеравшанской долины и заметки о соседних бекствах и памятниках Самарканда (с картой Зеравшанской долины) // Изв. о-ва любителей естествознания, антропологии и этнографии. Т. VIII. Вып. – Ташкент-Москва: 1870 – С. 130-131; Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. Кириш, инглиз тилидан қисқартирилган таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлари муаллифи З. Саидбобоев. – Т.: O'zbekiston, 2019.



чўлнинг тоғлар яқинидаги қисмларида аҳоли истиқомат қилиб, меҳнат қилганлиги, кичик тоғ даралари орқали Зарафшон дарёсидан канал келтирилганлигини билдиради”³⁶. Шу билан бирга, муаллиф Тошкентдаги амалдорлар (ҳар ҳолда рус амалдорлари бўлса керак – *диссер.*) Сирдарёдан ушбу чўл ҳудудларга сув чиқариш ҳақида режалар борлиги, улар бу ернинг эски сув иншоотлари қолдиқларига қараб, бу борада муайян ишлар амалга оширишни ўйлаётганликларини таъкидлаб ўтади. Ю. Скайлер Мирзачўлдаги Малик мавзесидан йигирма мил узоқликдаги Мирза Работ деб номланувчи эски карвонсаройларга дуч келганини ёзиб, бу каби иморатларнинг машҳур Абдуллахон томонидан қурилгани тахмин қилинишини айтиб ўтганлиги диққатга сазовордир³⁷.

XIX асрнинг сўнгги чорагида Мирзачўл воҳаси ва унга яқин ҳудудлар Чор Россияси таркибига ўтиб, бу ерлар империяга қарашли Туркистон генерал-губернаторлигига қарамоғига олингач, воҳага империянинг марказий ҳудудларидан кўплаб славян халқлари – руслар, белоруслар, украинлар кўчириб келтирилиб, янги аҳоли масканлари ташкил этила бошлайди. Кўчириш сиёсати боғлиқ статистик маълумотлар Мирзачўлни ўзлаштириш бўйича Чор Россиясининг Туркистондаги вакиллари турли режалар тузиб, воҳанинг аҳолиси нисбатан кам бўлган ҳудудни ўзлаштириш орқали минтақада рус тилли аҳоли сонини ошириш мақсад қилиб олган. Мирзачўл воҳасидаги бир неча славян (рус, украин, белорус) аҳоли масканлари кадростлаган. Мирзачўлда ташкил топган рус қишлоқлари, улардаги муаммолар ҳақидаги айрим маълумотлар князь В.И.Масальский асарида келтириб ўтилган бўлиб³⁸, улар асосида воҳа тарихининг айрим жиҳатларини ёритишда муҳим манба вазифасини ўтайди. А. Кауфман Россия империясининг қарийб ярим асрлик - 1861–1904 йиллар оралиғидаги кўчирувчилик сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари, янги кўчирилган аҳолининг маҳаллий муҳитга мослашуви, ташкил этилган дастлабки қишлоқларнинг хўжалиги, ижтимоий таркибига доир маълумотларни қараб чиққан³⁹.

³⁶ Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари . . . – В. 172-173.

³⁷Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари . . . – В.173.

³⁸ Масальский В.И. Туркестанский край. Спб.: Изд. А.Ф.Девриена, 1913.

³⁹ Кауфман А. Переселение и колонизация. Спб.: Типография товарищества “Общественная польза”, 1905.



Шунингдек, совет даврида олиб борилган этнографик тадқиқотларда ҳам Нурота, Жиззах ва Тошкент воҳалари аҳолиси турмуш тарзига оид этнографик маълумотлар йиғилиши жараёнида Мирзачўл воҳаси билан боғлиқ материалларга ҳам эътибор қаратилган. Бу даврда таниқли этнографлардан В.Г. Мошкова, Б. Кармишева⁴⁰ асарларида у ёки бу даражада ўз аксини топган маълумотлар эса гарчи Мирзачўл воҳасига тўғридан-тўғри тегишли бўлмаса-да, воҳага туташ ҳудудлар аҳолиси бўйича бирламчи материаллар бера олади.

Шу билан бирга, воҳа аҳолисининг маиший турмуш тарзи ва қадимий удумлари билан боғлиқ маълумотларнинг тарихий илдизларини тадқиқ этишда ўрта асрларда яратилган форсий ва туркий тилли асарлардаги маълумотларга мурожаат қилишга тўғри келади. Шундай асарлардан бири Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғати-т-турк” асари (XI аср) бўлиб, гарчи асарда ўрин олган маълумотлар туркий халқларнинг деярли брачаси учун хос бўлса-да, минтақадаги ўзбек, қозоқ, қирғиз каби туркий халқларнинг урф-одатлари ва улар билан боғлиқ атамаларнинг тарихий илдизларни кузатишда жараёнида ушбу асарга мурожаат қилиш зарурияти туғилади. Хусусан, Мирзачўл воҳаси ва унга қўшни ҳудудлардаги аҳоли орасида сақланиб қолган турли хил урф-одатлар билан боғлиқ атамаларни таҳлил қилиш жараёнида “Девону луғати-т-турк”да ўрин олган маълумотларга бирламчи манбалар сифатида мурожаат қилинди.

Хуллас, Мирзачўл воҳаси аҳолисининг яқин ўтмишдаги тарихи, айниқса, аҳолининг этник таркиби, ижтимоий-маиший ҳаёти, урф-одатлари ва анъаналарига доир маълумотлар минтақанинг бошқа бир қатор ҳудудларига нисбатан бирмунча кам маълумотлар етиб келган. Шундай бўлишига қарамай, турли манбалардаги узук-юлук маълумотларни, хусусан, ёзма манба маълумотлари ва этнографик материалларни ўзаро таққослаган ҳолда воҳа тарихининг ўзига хос жиҳатларини ёритиш мумкин.

⁴⁰ Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен // Материалы по археологии и этнографии Узбекистана: Труды института Истории и археологии АН УзССР. Т. 2. – Т., 1950. – С. 141-149; Мошкова В.Г. Ковроделие узбеков племени туркмен // Ковры народов Средней Азии. – Т.:1977. – С. 69-77.



Бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартларининг мамлакатимиз тараққиётида роли ва аҳамияти

Махамадалиев Бобурбек Баходир ўғли

Ўзбекистон Республикаси банк-молия
академияси тингловчиси

Тел: +998 94 277-88-98

Почта: mbobur313@gmail.com

Иқтисодиётнинг глобаллашуви шароитида турли мамлакатларда сифатли, таққосланадиган ва ишончли ҳамда уйғун ахборотларни шакллантиришда ягона ёндашувни қабул қилиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бундай имкониятга фақат молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини (МҲХС) тан олиш ва унга мувофиқ ҳолда ҳисоботлар тузиш орқали эришиш мумкин. Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонуннинг янги таҳририда ҳам бухгалтерия ҳисоби субъектлари белгиланган тартибда МҲХСларни қўллаш мумкинлиги эътироф этилди⁴¹.

МҲХСларни қўллаш зарурияти қуйидаги омиллар билан белгиланади:

– турли мамлакатларда инвесторлар ва акционерлар потенциал компанияларнинг бир хил тамойиллар, яъни таққосланувчанлик асосида тайёрланган молиявий ҳисоботни яхшироқ таҳлил қилиш имкониятига эга бўладилар;

– турли мамлакатларда турли фонд биржаларига уларнинг ҳар бирига ўша мамлакатнинг стандартлари асосида тузилган молиявий ҳисоботдан кўра ҳаммаси учун ягона тан олинадиган битта молиявий ҳисоботни тузиш мақсадга мувофиқдир. Натижада ҳисоботни тузиш харажатлари қисқаради ва капитални жалб қилиш имкониятлари кенгайди.

Бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартлари қўмитаси (IASB) – бутун дунёдаги бухгалтерия ҳисоби соҳаси фаолиятидаги вакиллардан иборат аъзоларни бирлаштирган, ҳукуматга оид бўлмаган халқаро бухгалтерия ҳисоби ташкилоти

⁴¹ Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни, 10-модда. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 9-сон, 142-модда.



бўлиб, унинг асосий мақсади молиявий ҳисоботларни тайёрлаш учун бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартларини ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва доимий такомиллаштириб бориш ҳисобланади.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ўрганадиган муҳим объектлардан бири молиявий ҳисоботни тақдим этиш, ҳисоб сиёсати, концептуал асослари масалалари бўлиб ҳисобланади. Буларга пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот, оралиқ молиявий ҳисобот, консолидациялашган молиявий ҳисобот, гиперинфляция шароитидаги молиявий ҳисобот, корхоналар бирлашганда ва қўшилгандаги молиявий ҳисобот, сегментар молиявий ҳисобот, қўшма фаолиятда молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик масалаларини киритишимиз мумкин. Буларнинг ҳар бири алоҳида халқаро стандартларда ўрганиладиган объектлар ҳисобланади.

Бундай молиявий ҳисобот бир йилда бир мартадан кам бўлмаган ҳолда тайёрланади ҳамда тақдим қилинади ва кенг доирадаги ахборот фойдаланувчиларнинг умумий бўлган ахборот эҳтиёжларини қондиришга қаратилган.

Кўп фойдаланувчилар молиявий ҳисоботни молиявий ахборотларнинг бош манбаи сифатида қарайдилар. Шу боис, молиявий ҳисобот уларнинг эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда тайёрланиши ва тақдим қилиниши шарт.

Ушбу ҳужжатда умумий фойдаланишдаги молиявий ҳисоботнинг мақсади куйидагича изоҳланади: «Молиявий ҳисобот ташкилотнинг молиявий ҳолати ва фаолиятининг молиявий натижаларини структуралаштирилган ҳолда тақдим қилишдир. Умумий фойдаланишдаги молиявий ҳисоботнинг мақсади ташкилотнинг молиявий ҳолати, унинг фаолияти, молиявий натижалари ва пул маблағлари ҳаракати тўғрисида шундай ахборотларни тақдим қилиш ҳисобланадики, улар ушбу маълумотлар кенг ахборот фойдаланувчиларга иқтисодий қарорлар қабул қилишда фойдали бўлади. Ушбу мақсадга эришиш учун молиявий ҳисобот ташкилотнинг куйидаги кўрсаткичлари тўғрисидаги ахборотларни таъминлайди:

- активлар;
- мажбуриятлар;



- хусусий капитал;
- даромад ва харажатлар, фойда ва зарарларни ҳам ўз ичига олади;
- хусусий капиталдаги бошқа ўзгаришлар;
- пул маблағлари ҳаракати»⁴².

Ўзбекистон Республикасида МҲХСларга ўтишда ўзига хос ва миллий иқтисодиётимизга мос йўл танланди. Бу халқаро стандартларга мувофиқ келадиган бухгалтерия ҳисоби бўйича миллий стандартларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш йўли бўлди. Ҳозирги кунда ишлаб чиқилган миллий стандартларимиз халқаро стандартларга мувофиқ келади⁴³. Шу билан бир қаторда ҳозирги кунда корпоратив бошқарувга асосланган акциядорлик жамиятларида халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузишга ўтилмоқда. Бу эса бевосита халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузиш ёки миллий стандартлар асосида тузилган молиявий ҳисоботни халқаро стандартларга трансформация қилиш орқали эришилиши мумкин.

Умумий мақсаддаги молиявий ҳисоботларни тақдим этиш мақсади мавжуд ва потенциал инвесторлар, қарз берувчилар ва бошқа кредиторларга мазкур ташкилотни ресурслар билан таъминлаш тўғрисида қарор қабул қилишда фойдали бўладиган ҳисобот берувчи ташкилот тўғрисидаги молиявий маълумотни тақдим этишдан иборатдир.

1-жадвал Бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартлари (БҲХС) таркиби⁴⁴.

I. Молиявий бухгалтерия ҳисоби фундаментал асослари
Молиявий ҳисоботни тузиш ва тақдим қилишнинг концепти
II. Молиявий ҳисобот ва ахборотларни тақдим қилиш
БҲХС-1 Молиявий ҳисоботни тақдим қилиш
БҲХС-7 Пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот
БҲХС-8 Ҳисоб сиёсати, ҳисобли баҳолашлардаги ўзгаришлар ва хатолар
БҲХС-10 Ҳисобот санасидан кейинги ҳодисалар

⁴² Ташназаров С.Н., МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ ВА УЛАРГА ЎТИШ ЗАРУРИЯТИ, ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2016, 7

⁴³ Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тўплами. – Т.: «NORMA», 2011. –360-бет.

⁴⁴ minfin.ru/ru/performance/accounting/mej_standart_fo/docs интернет манбасидаги маълумотлар



БҲХС-26 Пенсия дастурлари бўйича ҳисоб ва ҳисобот
БҲХС-29 Гиперинфляция шароитида молиявий ҳисобот
БҲХС-34 Оралик молиявий ҳисобот
БҲХС- 21 Валюта курслари ўзгаришининг таъсири
БҲХС- 24 Боғлиқ томонлар тўғрисида ахборотлар тавсифи
БҲХС-33 Акцияга фойда
III. Активлар, мажбуриятлар ва инвестициялар стандартлари
БҲХС-2 Захиралар
БҲХС-16 Мулк, бино, машина ва асбоб-ускуналар
БҲХС-40 Инвестицион кўчмас мулк
БҲХС-38 Номоддий активлар
БҲХС-36 Активларнинг қадрсизланиши
БҲХС-12 Фойда солиғи ҳисоби
БҲХС-37 Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар
БҲХС- 17 Ижара
БҲХС-19 Ходимларни рағбарлантириш
IV. Даромад ва харажатлар
БҲХС-18 Тушумлар
БҲХС-11 Қурилишдаги битимлар
БҲХС-20 Давлат субсидиялари ҳисоби ва давлат ёрдами тўғрисидаги ахборотлар тавсифи (очиқлаш)
БҲХС-23 Қарзлар бўйича харажатлар
БҲХС-41 Қишлоқ хўжалиги
V. Молиявий инструментлар
БҲХС-32 Молиявий инструментлар: тақдим қилиш
БҲХС-39 Молиявий инструментлар: тан олиш ва баҳолаш
VI. Бизнес бирлашишлари ва қўшма корхоналар молиявий ҳисоботи
БҲХС-27 Алоҳида молиявий ҳисобот
БҲХС-28 Ассоциациялашган компанияларда инвестициялар ва қўшма корхоналар

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, халқаро стандартларни қабул қилиш бу бевосита юртимиз бизнес қатламини дунё кўз ўнгида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мувофиқлаштиришга хизмат қилади, деб ўйлаймиз ва халқаро миқёсда эркин тушуниш ва таққослаш имконини беради. Бу эса ўз навбатида хорижий инвестициялар оқимини янада кучайтириши табиий. Бу мақсадларни амалга ошириш учун, албатта, амалиётчи ходимлар ва илмий тадқиқотчиларни хорижий



мамлакатларда тажриба алмашинишини ташкил этиш, амалиётчи бухгалтерларни сертификатлаш ишларини йўлга қўйиш керак бўлади.



MUNDARIJA

1	ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ГЛАВНЫЕ КРИТЕРИИ ИННОВАЦИИ Бобомурадова Юлдуз Садирдиновна	4
2	Turli mehnat sharoitidagi omillarning inson organizmiga gigiyenik bahosi Samadova X.S	8
3	ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ Хасанов Акмалжон Азамат угли Мурадов Дониер Алишер угли Жавхаров Дилмурод Дилшод угли	12
4	МАЪЛУМОТЛАР ТАҲЛИЛИДА КОМПЛЕКС ТУШУНЧАЛАР Фойдаланиш Садиков Абдумалик	16
5	АНИҚ ФАНЛАРИ ЎРГАНИШДА ҚЎШИМЧА МАНБАЛАР АҲАМИЯТИ Усмонов Абдукаҳхор	21
6	The formation of children’s literature and common ideas in American and Uzbek children's prose Ikbola Kodirjonova	25
7	Oqirvshı jaslar arasında huquqbuzarlıqtın aldın alw hám jámiyete huqıqıy tárbiyanıń roli Shrazov Adilbay Shamshetdinovich	30
8	CHET TILLARINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA SAMARALI O’RGANISH. Sobirov Doniyorbek Murodjon o’g’li	34
9	KORRUPSIYA – FUQAROLIK JAMIYATINING TANAZZULI Пулатов Хасанжон Иброҳим угли	39
10	FUQAROLAR HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI Пулатов Хасанжон Иброҳим угли	44
11	МУСУЛМОН ҲУҚУҚИЙ ТИЗИМИ МАМЛАКАТЛАРИНИНГ ФОРС-МАЖОРГА ОИД ФУҚАРОЛИК ҚОНУНЧИЛИГИ ИСАНОВ Холмурод Рузиевич	49
12	СОЦИОЛОГИЯ И ОБЩЕСТВЕННОЕ ЗДОРОВЬЕ Талъатхонов Азизхон Дилмуродхон угли	56
13	QODIRIYNING BEVAHO XAZINASI Ozodova Ouxonim Ismoil qizi	61
14	Рақамли идентификация - хавфсиз идентификаторни аутентификация қилиш ва текшириш тизимларини яратиш Асрор Комилович Худойбердиев	65
15	Ruhıy zo’riqish va uning talaffuz jarayoniga ta’siri Azimov Akbarjon Niyozidin o’g’li	69
16	ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA DAVLAT TILIDA ISH YURITISH ZARURIYATI Axmedova Gulnoza Atanazarovna	73
17	Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini tez va oson o’rgatishning samarali usullari Yuldasheva.F.F Sattarova.G.F	77
18	THE DIFFERENCE BETWEEN VERBAL AND NONVERBAL COMMUNICATION Munisa Nazirova Mirzakamalovna	81
19	Styles of Communication Munisa Nazirova Mirzakamalovna	84
20	EFFECTIVE VOCABULARY TEACHING FOR LYCEUM STUDENTS Munisa Nazirova Mirzakamalovna	87
21	MATEMATIKA DARSLARINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH Amanbayev Azamat Qaxramon o'g'li Xo'jaboyeva Sadoqat Abduraxmonovna	91
22	Fizika sohasida malakali qadrlar tayyorlashning innavatsion texnologiyalar Xojaboyeva Sadoqat Abduraxmonovna	93



23	АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ (Актуальные проблемы современной лингвистики) Самандарова Д.И	97
24	MILLAT QUDRATI – UNING TILI VA YOZUVIGA HURMATIDA Tolipova Mohlaroyim Abdurasul qizi	102
25	14-YANVAR VATAN HIMOYACHILARI KUNI. HARBIY VATANPARVARLIKNING MILLIY JIHATLARI Kojekeeva Kalka Baymuratovna	107
26	TAEKVONDOCHILARNING DASTLABKI TAYYORGARLIK JARAYONIDA MASHG'ULOT TUZILISHINING ASOSLARI Muxamedova Muxlisa Shukur qizi	111
27	ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МОЛИЯВИЙ ҚЎЛЛАБ ҚУВВАТЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИ Машарипов Шерзод Рустамович Мынбаева Айгуль Утепбергеновна	116
28	Nizamova Mohidil Maxmud qizi ZAMONAVIY DAVRDA GENDER TENGLIGI KONSEPSIYALARINING AHAMIYATI	119
29	СУВ ТАЪМИНОТИ ТАҲЧИЛЛИГИДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ Кодиров Рахматилла Нўмонович	126
30	ФАРФОНА ВИЛОЯТИНИНГ БОҒДОД ТУМАНИ СУВ МАНБАЛАРИНИНГ ЭНЕРГЕТИК ПОТЕНЦИАЛИ ТАҲЛИЛИ Кирийгитов Б.А	131
31	ODAM SAVDOSI- DAVR MUAMMOSI. Qo'ldoshev Sherzod Mansur o'g'li	136
32	Жўрайев Илхом Баҳриддин ўғли Мирзачўл воҳаси аҳолиси манбашунослиги ва тарихшунослиги	145
33	Бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартларининг мамлакатимиз тараққиётида роли ва аҳамияти Махамдалиев Бобурбек Баходир ўғли	152